

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI
VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 657.6-051:005.932:69**

Komilov Akramjon Xusanovich

**Qurilish korxonalarida ta‘minot jarayoni logistika xarajatlari hisobi va
auditini takomillashtirish**

08.00.08 – «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN
DISSERTASIYA**

Ilmiy rahbar: M.Sh.Mamatkulov, i.f.d., dotsent.

Toshkent - 2024

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. QURILISH KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI HISOBI VA AUDITINING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI	
1.1-§. Qurilish korxonalarini boshqarishda logistik tizimni yaratish va uning ahamiyati.....	12
1.2-§. Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlari.....	30
1.3-§. Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini tashkil qilish asoslari.....	51
I bob bo'yicha xulosa.....	61
II BOB. QURILISH KORXONALARI TA'MINOT JARAYONI LOGISTIKA XARAJATLARI HISOBI AMALIYOTI	
2.1-§. Ta'minot jarayonida saqlash (ombor) xarajatlarini hisobga olish tartibi.....	63
2.2-§. Ta'minot jarayonlarida tranzaksion xarajatlar hisobi.....	91
2.3-§. Ta'minot jarayoni logistika xarajatlarini nazorat qilish va ularning buxgalteriya hisobini takomillashtirish.....	107
II bob bo'yicha xulosa.....	115
III BOB. QURILISH KORXONALARIDA TA'MINOT JARAYONI LOGISTIKA XARAJATLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	
3.1-§. Logistika xarajatlari auditini rejalashtirish.....	116
3.2-§. Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini o'tkazish tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	121
3.3-§. Qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini takomillashtirish.....	131
III bob bo'yicha xulosa.....	148
XULOSA VA TAKLIFLAR	150
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	156

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida geosiyosiy dinamikaning o'zgarishiga qaramay, global qurilish kompaniyalari umumiy daromadlarida sezilarli o'sish kuzatilib kelinmoqda. Ayniqsa, aholining uy-joyga bo'lgan talabining o'sishi, sanoatning rivojlanishi ushbu tarmoqning yanada o'sishida muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. "2022-yilda qurilish kompaniyalarining jami daromadi 1,940 trillion AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2021-yilga nisbatan 6,3 foizga ko'p. O'tgan yili global qurilish industriyasida tovar narxlari ko'tarilishi, ta'minot zanjiri uzilishlari va boshqa holatlar kuzatildi. Sanoat savdosi oshgan bo'lsa-da, 2023-yilda qurilishning sust o'sishi qayd etilishi kutilmoqda, bu asosan zaif iqtisodiy vaziyat va qurilish materiallari narxining oshishi va jiddiy ishchi kuchi tanqisligi bilan ifodalangan salbiy sharoitlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Biroq, iqtisodiy barqarorlik yaxshilanar ekan, infratuzilma, energetika va kommunal xizmatlar kabi ayrim sohalar qurilish mahsulotining umumiy o'sishida muhim rol o'ynashi mumkin"¹. Bu esa jahon miqyosida qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahondagi globallashtirish va xalqaro raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditini samarali tashkil etishga mo'lgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Qurilish korxonalarini faoliyatining xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) muvofiqligini ta'minlash, qurilish kompaniyalarida pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlar, prognozlar va daromadlar to'g'risidagi hisobotlarni tez vaqt oralig'ida tayyorlanishini tashkil etish, qurilish korxonalarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tkazish, buxgalteriya hisobining eng zamonaviy dasturlaridan foydalanish, logistika xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

¹https://www.designingbuildings.co.uk/wiki/Construction_works

Yangi O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda yetakchi tarmoqlar qatorida qurilish tarmog‘ini modernizatsiyalashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada “qishloq joylarda yangi namunaviy loyihalar asosida 15 000 ta arzon uy-joy qurish, qishloq joylarda barpo etilayotgan namunaviy massivlarga ichimlik suvi (415,3 km), elektr (291,5 km), tabiiy gaz (316,9 km) tarmoqlari, ichki yo‘llar (291 km) va bozor infratuzilmasi ob’ektlari (134 ta) qurish, shaharlarda aholi hayoti sharoitlari va sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon va qulay ko‘p qavatli uylar qurish”² vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Oliy ta’lim muassasalarida arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, qurilish sohasini texnik tartibga solish, aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta’minlash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish, aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish, renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish”³ vazifalari ham belgilangan. Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlashning muhim qismi sifatida qurilish korxonalarida ta’minot jarayoni logistika xarajatlari hisobini to‘g‘ri xamda mukammal tashkil etish va uning auditini takomillashtirishga bo‘lgan zarurat mazkur sohani ilmiy, uslubiy va huquqiy asoslarini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning

² “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон, 8-илова, 2017 йил 7 февраль

³ “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60, 2-илова, 2022 йил 28 январь.

2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 25-oktyabrdagi PQ-408-son “2022–2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-son “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.

Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qurilish korxonalari ta‘minot jarayoni logistika xarajatlari buxgalteriya hisobi va auditini tashkil qilish mavzusida qator xorijiy va mahalliy olimlar o‘zlarining tadqiqotlarini olib borishgan. Mazkur masala xorijlik iqtisodchi olimlar E.A.Arens, R.Adams, S.M.Бычкова, L.D.Bernstayn, I.Grey, Yu.A.Danilevskiy, B.T.Жарылгасова, D.R.Karmaykl, P.I.Камышанов, V.V.Kovalev, D.Kolduell, V.V.Skobara, L.V.Sotnikov, A.A.Terexov, A.D.Sheremet va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan⁴.

⁴Аренс Э.А., Лоббек Дж.К. Аудит. – М.: Финансы и статистика, 1995. – 560 с., Адамс Р. Основы аудита: Пер. с англ./Роджер Адамс. – М: Аудит: ЮНИТИ, 1995. – 398 с., Gray I.H., Manson S.The audit process: principles, practice and cases. – London: Van Nostrand Reinhold (International). 1989. - 547 p., Сотников Л.В. Внутренний контроль и аудит: Учебник. – М: ЗАО Финстатинформ, 2001. - 239 с., Бычкова С.М. Международные стандарты аудита: учебное пособие/С.М.Бычкова, Е.Ю.Итыгилова. – М.: ПРОСПЕКТ, 2008. - 432 с., Бернстайн Л.Д. Анализ финансовой отчетности: теория, практика и интерпретация. науч. ред. И.И.Елисеева, гл. ред. сер. Я.В.Соколов. –М: Финансы и статистика, 1996. - 624 с., Данилевский Ю.А. Общий аудит в вопросах и ответах. – М: Бухгалтерский учет, 1995. - 112 с., Жарылгасова Б.Т. Международные стандарты аудита: учеб. пособие/ Б.Т.Жарылгасова, А.Е.Суглобов. -4-е изд., стерео тип. – М: КноРус, 2008. - 400 с., Камышанов П.И. Практическое пособие по аудиту/П.И.Камышанов. – М.: ИНФРА-М, 1996. - 522 с., Кармайкл Д.Р. Стандарты и нормы аудита: пер. с англ./Д.Р.Кармайкл, М.Бенис. – М: Аудит, ЮНИТИ, 1995. - 527 с., Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры. – М.: Финансы и статистика, 2005. - 560 с., Скобара В.В. Аудит: методология и организация: (монография). – М: Дело и сервис, 1998. - 576 с., Терехов А.А. Контроль и аудит: Основные методические приемы и технология/А.А.Терехов, М.А.Терехов. – М: Финансы и статистика, 1998. - 208 с., Шеремет А.Д. Аудит: Учебник. 5-е изд., перераб. и дополненное/А.Д.Шеремет, В.П.Суйц. – М: ИНФРА-М, 2006. - 448 с.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan I.T.Abdukarimov, R.D.Do‘smuratov, M.B.Kalonov, N.N.Qo‘ziev, Sh.I.Ilxomov, Z.T.Mamatov, M.Sh.Mamatqulov, S.N.Tashnazarov, U.O.Saxobov, M.M.Tulaxo‘jaeva, B.A.Xasanov, A.K.Ibragimov, M.Q.Pardaev, A.N.Maxmudov, J.M.Mirkasimov va boshqalarning ilmiy ishlarida logistika xarajatlari hisobi va auditi masalalari tadqiq etilgan⁵.

Yuqorida ta’kidlangan olimlar ushbu muammoni o‘rganish bo‘yicha turlicha fikrlarni bildirishgan. Ularning fikrlari asosida hozirgi sharoitlarda korxonalarda logistika xarajatlari hisobi va auditini o‘tkazish masalasiga umumiy yondashuvni o‘zida aks ettirib, ta’minot tizimi alohida ob’ekt sifatida ko‘rib chiqilmaganligini ta’kidlash va o‘z navbatida, mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyati mavjudligi, mavzuning muammosi nazariy va amaliy jihatdan hal qilinishi dolzarbligini belgilash mumkin.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

⁵Абдукаримов И.Т. Оценка и анализ финансового состояния предприятия: Учебное пособие. – Тамбов: ТРО ВЭО России. ТГУ им. Державина, 2001. - 74 с., Дусмуратов Р.Д. Аудиторлик фаолияти: назария, услубиёт ва амалиёт. Монография. – Т.: Молия, 2007. - 276 б., Калонов М.Б. Монография, Ибрагимов А.К. Аудитнинг халқаро стандартлари асосида тижорат банкларида ички аудитнинг ташкилий асослари. – Т.: Молия, 2013. - 384 б., Қўзиев И.Н. Аудиторлик ҳисоботларини тузиш ва уларни умумлаштириш: назария ва методология масалалари. Монография. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2015. – 200 б., Илхомов Ш.И. Аудиторлик текширувлари жараёнида ички назорат тизимини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисод фан. док. дисс. авторефер. – Т.: ТМИ 2018. – 40 б., Маматов З.Т. Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий ҳисобот аудитини ўтказишни такомиллаштириш масалалари: иқтисод фанлари доктори ... дис. автореферати. – Т.: 2005. - 40 б., Маматқулов М.Ш. Бошқарув ҳисобида логистика харажатларини ташкил этишни такомиллаштириш. иқтисод фанлари номзоди ... дис. автореферати. – Т.: 2011. - 22 б., Тошнazarov С.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисобот: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Наврўз, 2016. - 296 б., Тулахўжаева М.М. Ўзбекистон Республикасида молиявий назорат тизими. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998. – 176 б., Сахабов У.О. Планирование аудита: монография/ Сахабов У.О., Давранова Ш.К. – Т.: Ўзбекистон аудиторлар палатаси, 2008. - 160 с., Хасанов Б.А., Зокирова М.Ш., Алибаев З.А. Ички аудитни автоматлаштириш асослари. – Т.: Фан, 2003. - 162 б., Пардаев М.Қ, Исроилов Ж.И. Хусусий корхоналар фаолияти таҳлилининг назарий ва методологик муаммолари. Монография. – Т.: Fan va texnologiya, 2007. - 164 б, Маматқулов М.Ш. Коммунал хизмат кўрсатиш тизими корхоналарида бошқарув ҳисоби методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори(DSc) ... дис. автореферати. – Т.: 2021. - 22 б., Махмудов А.Н. Харажатлар ва даромадларнинг бошқарув ҳисоби ва ички аудити методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори(DSc)... дис. автореферати. – Т.: 2023. - 30 б., Миркасимов Ж.М. Логистик корхоналарда бухгалтерия ҳисоби ва иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори(PhD) ... дис. автореферати. – Т.: 2023. - 30 б.

Tadqiqotning maqsadi qurilish korxonalarida ta'minot tizimida yuzaga kelayotgan logistika xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish yo'nalishlariga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qurilish korxonalarida ta'minot jarayonida logistik tizimni joriy etish va uni samarali ishlashini baholash;

ta'minot jarayoni logistika xarajatlarning paydo bo'lish joylari va yuzaga kelish sabablarini o'rganish asosida ularni takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

qurilish korxonalarida ta'minot jarayonida logistika xarajatlari hisobi bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, guruhlash bo'yicha takliflar berish;

ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditi rejasini tuzish uslubiyotini ishlab chiqish;

logistika xarajatlari auditi jarayonida to'plangan ma'lumotlarni o'rganish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi qurilish korxonalarida ta'minot jarayonlarida buxgalteriya hisobi va audit faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari hisobi va auditini tashkil etish jarayonlaridagi iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, iqtisodiy-statistik tahlil, ikkiyoqlama yozuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qurilish korxonalarida hisob siyosatiga 2530 – “Qurilish korxonalarida omborxonalarini saqlash xarajatlari” schyoti va uning tarkibida 2531 – “Ta'minot omborlariga materiallarni tashish xarajatlari”, 2532 – “Ta'minot omborlarida materiallarni saqlash va ishlab chiqarishga chiqarish xarajatlari”, 2533 – “Ta'minot omborlarining boshqa xarajatlari” schyotlarini kiritish asosida qurilish

korxonalarida omborxonalarni saqlash xarajatlari buxgalteriya hisobining to'liq va aniq yuritilishini ta'minlash asoslangan;

qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari tarkibida tranzaksion xarajatlar hisobini alohida yuritish asosida buxgalteriya ma'lumotlari shaffofligi va boshqaruv qarorlarining aniqligini ta'minlash asoslangan;

qurilish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning davriy usulini qo'llash orqali qurilish korxonalari hisobi siyosatiga 9141 – “Davriy hisobda materiallarni sotib olish (qurilish korxonalari uchun)” va 9151 – “Davriy hisobda materiallar qoldig'ini tuzatish (qurilish korxonalari uchun)” schyotlarini kiritish va logistika xarajatlari salmog'ini kamaytirish asoslangan;

qurilish korxonalarida auditorlik tekshiruvlari jarayonida foydalanish tavsiya etilgan “Namunaviy audit umumiy rejasi” asosida auditorlik tekshiruvining tizimli yo'lga qo'yilishida “ta'minot va logistika xarajatlari” maxsus bandini kiritish orqali moliyaviy hisobotda muhim buzib ko'rsatishlarni o'z vaqtida aniqlash va auditorlik riskini pasaytirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish korxonalarida biznes-jarayonlarning samarali yo'lga qo'yish maqsadida logistika xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini uchta guruhga ajratgan holda shakllantirish tartibi ishlab chiqilgan;

qurilish korxonalarida tarmoq xususiyatlarini e'tiborga olib, ta'minot jarayoni logistika xarajatlari hisobi va uning vazifalari belgilangan;

ta'minotning logistika xarajatlarini hisobga olish tizimi bo'yicha asoslangan takliflar tadqiqot ob'ekti hisoblangan qurilish korxonalari amaliyotida sinovdan o'tkazilgan;

tannarxni pasaytirish uchun ta'minot omborlari logistika xarajatlari bo'yicha mavjud rezervlar aniqlanib, ular orqali tannarx pasaytirilishiga erishilgan;

qurilish korxonalari ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida foydalanilgan ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi davlat qurilish tashkilotlari va xususiy qurilish tashkilotlarining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanganligi hamda tadqiqot natijasi sifatida qilingan xulosa va berilgan takliflar tegishli tashkilotlar amaliyotiga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya natijasi sifatida berilgan ilmiy-uslubiy xulosa va tavsiyalar qurilish tashkilotlarining logistika xarajatlari hisobi va auditini tashkil etishni takomillashtirishda, maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda manba sifatida qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya natijalari sifatida berilgan amaliy tavsiyalar qurilish tashkilotlarida logistika xarajatlari hisobini takomillashtirish hamda unga doir maqsadli dasturlar, chora-tadbirlar ishlab chiqilishida, shuningdek, dissertatsiya natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida “Moliyaviy hisob”, “Boshqaruv hisobi” va “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari” fanlari o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Qurilish korxonalarida ta’minot jarayoni logistika xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qurilish korxonalarida hisob siyosatiga 2530 – “Qurilish korxonalarida omborxonalarni saqlash xarajatlari” schyoti va uning tarkibida 2531 – “Ta’minot omborlariga materiallarni tashish xarajatlari”, 2532 – “Ta’minot omborlarida materiallarni saqlash va ishlab chiqarishga chiqarish xarajatlari”, 2533 – “Ta’minot omborlarining boshqa xarajatlari” schyotlarini kiritish asosida qurilish korxonalarida omborxonalarni saqlash xarajatlari buxgalteriya hisobining to‘liq va aniq yuritilishini ta’minlash taklifi O‘zbekiston auditorlar Palatasi, “Just Moment” MChJ va “And Tex-Naz” MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston auditorlar Palatasining 10-noyabrdagi 67-sonli, “Just Moment” MChJning 2023-yil 13-iyuldagi 10-sonli, “And Tex-Naz” MChJning 2023-yil 3-iyuldagi 2-sonli

ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish korxonalarida omborxonalarni saqlash xarajatlari buxgalteriya hisobining to'liq va aniq yuritilishini ta'minlashga erishilgan;

qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari tarkibida tranzaksion xarajatlar hisobini alohida yuritish asosida buxgalteriya ma'lumotlari shaffofligi va boshqaruv qarorlarining aniqligini ta'minlash taklifi O'zbekiston auditorlar Palatasi, "Just Moment" MChJ va "And Tex-Naz" MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston auditorlar Palatasining 10-noyabrdagi 67-sonli, "Just Moment" MChJning 2023-yil 13-iyuldagi 10-sonli, "And Tex-Naz" MChJning 2023-yil 3-iyuldagi 2-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish korxonalarida tranzaksion xarajatlar hisobini yuritishda namunaviy qaydnoma amaliyotga joriy etilishi, buxgalteriya axborotlari shaffofligining ta'minlanishiga va oqilona boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga erishilgan;

qurilish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning davriy usulini qo'llash orqali qurilish korxonalarini hisobi siyosatiga 9141 – "Davriy hisobda materiallarni sotib olish (qurilish korxonalarini uchun)" va 9151 – "Davriy hisobda materiallar qoldig'ini tuzatish (qurilish korxonalarini uchun)" schyotlarini kiritish va logistika xarajatlari salmog'ini kamaytirish taklifi O'zbekiston auditorlar Palatasi, "Just Moment" MChJ va "And Tex-Naz" MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston auditorlar Palatasining 10-noyabrdagi 67-sonli, "Just Moment" MChJning 2023-yil 13-iyuldagi 10-sonli, "And Tex-Naz" MChJning 2023-yil 3-iyuldagi 2-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mahsulot tannarxining to'g'ri aniqlanishiga va tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish samaradorligining oshishiga xizmat qilgan;

qurilish korxonalarida auditorlik tekshiruvlari jarayonida foydalanish tavsiya etilgan "Namunaviy audit umumiy rejasi" asosida auditorlik tekshiruvining tizimli yo'lga qo'yilishida "ta'minot va logistika xarajatlari" maxsus bandini kiritish orqali moliyaviy hisobotda muhim buzib ko'rsatishlarni o'z vaqtida aniqlash va auditorlik riskini pasaytirish taklifi O'zbekiston auditorlar Palatasi, "Just Moment" MChJ va

“And Tex-Naz” MChJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston auditorlar Palatasining 10-noyabrdagi 67-sonli, “Just Moment” MChJning 2023-yil 13-iyuldagi 10-sonli, “And Tex-Naz” MChJning 2023-yil 3-iyuldagi 2-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish korxonalarida auditorlik tekshiruvlarining tizimli yo‘lga qo‘yilishiga, moliyaviy hisobotda muhim buzib ko‘rsatishlarning o‘z vaqtida aniqlanishiga va auditorlik riskining pasayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.

Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan, umumiy hajmi betdan iborat.

I BOB. QURILISH KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI HISOBI VA AUDITNING TASHKILY-USLUBIY ASOSLARI

1.1-§. Qurilish korxonalarini boshqarishda logistik tizimni yaratish va uning ahamiyati

Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida qurilish korxonalarining bozor talablarini bajara olishi, uning umumiy xarajatlari darajasiga bog‘liq bo‘lib, qurilish korxonalarini tomonidan qurilayotgan uy-joylar tannarxi yuqori bo‘lmasligi, uni xaridorga to‘laqonli qurib topshirishi bugungi bozor talablaridan biridir. Qurilish korxonalarida uy-joylarni qurish mobaynida tovar-moddiy zahiralarni tashish-ko‘chirish, ta‘minot va qurilish jarayonlarida logistika xarajatlarning aniq o‘rnini belgilash va baholarni shakllantirish mexanizmidagi rolini o‘rganish bugungi kunning zarur shartlaridan biridir. Bu borada, xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini topish orqali daromadni ko‘paytirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Asosiy masala xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini topish va korxonaning logistika xizmatlari uchun baho darajasini ozaytirish, shu orqali korxonaning raqobatbardoshligi va daromadini ko‘paytirishga erishishdir. Xarajatlarni logistik boshqarishda bozor konyukturasi dinamikasining yuqori darajasini, to‘lov vositalaridagi taqchillikni, raqobatning yuqori darajasini, ya‘ni logistik faoliyatni samaradorligiga ta‘sir etuvchi barcha omillar hisobga olinishi shart.

Qurilish korxonalarini bozorni egallash va doimiy o‘z xaridorlariga ega bo‘lish yo‘lida asosiy xarajatlarni kamaytirishi emas, balki unumsiz xarajatlarni amalga oshirmaslikka e‘tiborlarini qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qurilayotgan uy-joylar joylashuvi qurilish smeta xarajatlari va logistika xarajatlari ortishi ta‘sirlariga barham berish muhim omil hisoblanib, qurilish korxonalarini bu borada samarali chora-tadbirlarni qo‘llashlariga bog‘liqdir. Shundagina uy-joylar qurilishida bozorning erkin kurashishlariga javob bera oladigan qurilish korxonalarini iqtisodiyotda yashab qola oladi. Buning uchun, mikrodarajada o‘ta yirik loyihalarni amalga oshirish talab etilsada, ushbu loyihalarni amalga oshirishga yirik moliyaviy imkoniyat va mablag‘lardan voz kechishga to‘g‘ri kelishi mumkin. Bizning

fikrimizcha, tejamkor va yuqori samarali loyihalarni ishlab chiqish, boshqaruvni logistik muomalalarni hisobga olgan holda tashkil etish logistika xarajatlari hisobi optimal yuritilishiga zamin yaratadi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlari rivojlanganligi va xalqaro iqtisodiy hamkorlik jarayonining kuchayganligi respublikamizda qurilish tashkilotlari ham yangi talablar asosida faoliyat yuritishi kerakligini taqozo etmoqda.

1.1.1 - jadval

O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari xajmi xaqida ma’lumot⁶ (mlrd. so‘m)

Xududlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
O‘zbekiston Respublikasi	51129,3	71156,5	88130,3	107492,7	130790,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2182,7	3315,4	3992,5	4480,6	5272,4
Andijon	2819,5	3539,1	4673,0	5657,8	6864,1
Buxoro	3581,2	4368,1	5659,8	7401,1	8448,7
Jizzax	1564,3	2510,6	2715,0	3085,4	3446,4
Qashqadaryo	3701,1	4365,3	4832,6	6336,6	7793,8
Navoiy	2280,8	3464,0	3944,7	5155,5	5855,0
Namangan	2257,6	3471,0	4678,2	5556,7	6653,2
Samarqand	3299,0	4527,2	5755,3	7385,7	8895,4
Surxondaryo	2879,7	3979,7	4774,7	5868,4	6521,9
Sirdaryo	1001,1	1926,2	2407,6	2708,8	3260,1
Toshkent	3006,7	5594,1	7102,6	9401,2	12237,4
Farg‘ona	2942,7	4162,8	5473,9	6993,7	8646,0
Xorazm	1878,3	2496,8	2856,8	4228,5	4878,4
Toshkent.sh	10870,7	16256,9	19215,4	26535,3	32946,1

Yuqorida jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda qurilish ishlarining hajmi 2018 – 2022-yillarda tashkil etilgan qurilish korxonalarini soniga nisbatan mutanosib ravishda o‘tib borgan. O‘zbekistonda 2022-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, qurilish sohasida 48 874 ta korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan. Shunga mos ravishda 2018-yilda qurilish ishlari hajmi respublika bo‘yicha 51129,3 mlrd. so‘m ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda ushbu raqam 130790,9 mlrd. so‘mga yetgan. Xududlar kesimi bo‘yicha Toshkent shahri yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lmoqda. Buni olib borilayotgan qurilish ishlari ko‘limidan ham ko‘rishimiz mumkin.

⁶ https://t.me/statistika_rasmiy kanal ma’lumotlari asosida tuzilgan

Logistika va logistika xarajatlariga e'tibor qaratishning bosh maqsadi – bu tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchining ko'proq daromad va foyda olishini ta'minlashdir.

Islohotlarning zamonaviy bosqichida tadbirkorlar shonchli axborotlarga ega bo'lgan holda puhta asoslangan qarorlar qabul qilishi zaruriyati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Eng asosiysi rivojlangan davlatlardagi korxonalar faoliyatida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalarni qo'llagan holda “xarid qilish–ishlab chiqarish–taqsimot–sotish–xizmat ko'rsatish” uzluksiz logistik zanjiri orqali material oqim va unga yondosh oqimlarni yahlit va mantiqiy uyg'unlikda boshqarishga erishish lozim. Korxonalar menejerlariga o'z faoliyat majburiyatlarini muvofiqlashtirilgan va integratsiyalashtirilgan logistika yordamida amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratib berish lozim. Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz iqtisodiyotida kuzatilayotgan yangi sharoit, munosabat va imkoniyatlardan amalda to'g'ri foydalanish uchun logistika fani va uning tahlil usullari shakllanishini takomillashtirish zarur.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan logistika va logistika xarajatlarini hisobga olish metodologiyasi muammolari va yechimlari yetarlicha tadqiq qilinmagan yoki ular muammoning ayrim jihatlariga e'tibor berish bilan cheklangan. Logistika va logistika xarajatlarini hisobga olish metodologiyasi muammolarini hal etish yo'lidagi ana shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar o'tkazib, logistika va logistika xarajatlariga bag'ishlangan yangicha ilmiy-uslubiy fikr-mulohazalarimizni va amaliy tavsiyalarimizni jamlab ushbu dissertatsiya ishida yoritishga harakat qildik.

Logistika ingliz tilidan tarjima qilinganda “ta'minot”⁷, yunonchadan tarjima qilinganda esa, mantiqan “amaldor”⁸ degan ma'noni bildiradi.

Bizning fikrimizcha, turli davrlarda mazkur atama turlicha ta'riflanishi natijasida unga nisbatan alohida, tugal tushuncha shakllantirilmagan.

⁷ Тайгашинова К.Т. Управленческий учет логистических издержек (управление товарно-материальными запасами) часть 1: Учебное пособие. -Алматы: Экономика, 2006. – с. 60

⁸ Дадабоев Қ.А. Логистика. Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2004. 12-б

Zero, ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda logistika tushunchasi to'g'risida ko'plab fikr va mulohazalar keltirilgan. Jumladan: rus olimi Ye.A.Golikov logistikaga ta'rif berishda terminologik jihatdan yondashgan, "Etimologik (til) nuqtai nazaridan qaralganda "logistika" atamasi lotincha o'zaklarga ega, ya'ni "logos" (ong), "logosmos" (hisob-kitob, fikrlash, reja), "logo" (o'ylamok, fikr yuritmoq), "logistika" (hisob-kitoblarni yuritish san'ati) degani va hokazo. Semantik jihatdagi tushuncha sifatida "logistika" so'zining mazmuni Vizantiya imperatori Leon IV (865-912 yy)ning qurolli kuchlar moddiy-texnika ta'minotini boshqarish, ularning harakati va taqsimlanishiga bag'ishlangan "Qo'shinlarga yo'riqnoma"da tilga olingan⁹.

Nazarimizda, biror bir terminga ta'rif berilganda, albatta uning lug'aviy ma'nosiga ahamiyat berish lozim, lekin uning ta'rifi logistika mohiyatini to'liq ifodalab bermaydi, chunki davrlar o'tib terminning lug'aviy ma'nosi qanday bo'lsa shundayligicha qolishi mumkin, ammo uning mohiyatining o'zgarishi qaysi davrga xizmat qilishi va rivojlanishiga bog'liq.

Fransuz mutaxassislari logistikani zarur xom ashyo va materiyallarni eng kam xarajatlar qilgan holda va shu xom ashyo va materiyallarga aniq ehtiyoj mavjud bo'lgan vaqtda hamda joyda olish maqsadida turlicha faoliyat turlarining amalga oshirilishidir deb tushuntiradilar.

Nemis iqtisodiyot fanida logistika tushunchasi ostida, xarajatlarga nisbatan samarali jarayonlarni rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish tushunilib, tayyor mahsulotlar, hamda ish-xizmatlarni mijozning hohish-istaklari asosida yetkazib berish haqidagi axborot tushuniladi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy ilmi nuqtai nazarida firma va kompaniyalarni strategik rejalashtirish borasidagi eng qudratli qurol logistika hisoblanadi. Chindanda, logistik boshqaruv to'g'ri tashkillashtirilishi moliyaviy, tovar, xom ashyo va materiyal zahiralar tejalishiga olib keladi.

⁹ Голиков Е.А. Маркетинг и логистика. Уч.пос. – М.: Дашков и К°, 1999. – с. 180

“Logistika – iste’molchi talabiga doimo muvofiqlashtirilib boruvchi, ishlab chiqarish rivojlanishining strategik yo‘nalishi uchun noyob ijodiy muhitdir”¹⁰, deb ta’riflaydi V.G.Degtyarenko.

Fikrimizcha, bu yerda logistikaning muhim jihatlari to‘liq ochib berilmagan va uning fikricha logistika faqat ishlab chiqarish uchun “noyob ijodiy muhit” deb hisoblansada, biz bunday fikrga qo‘shilmagan holda qilgan hulosamiz shuki, logistikaning tarkibiga faqat ishlab chiqarish jarayonlarigina emas, balki ta’minot, sotish va material zahiralarni avaylab-asrash, saqlash va sarflash jarayonlari ham kiradi.

Rossiyalik olimlar O.A.Novikov va S.A.Uvarovlar logistikani “...bozor iqtisodiyoti tizimida material, moliyaviy, mehnat, huquqiy va axborot oqimlarining umumiylikdagi harakatlari jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish, funksional boshqarish va nazorat qilishning nazariyasi va amaliy faoliyatidir”¹¹, deb fikr bildiradilar.

Yana bir qator olimlardan M.N.Grigorev va A.P.Dolgov¹²lar ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlashgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ta’riflar va tadqiqot yo‘nalishida amalga oshirilgan izlanishlar natijasi sifatida biz “logistika” atamasining quyidagi ta’rifini taklif etmoqchimiz: “Logistika ta’minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida xarajatlarni kamaytirish vositasidir xamda tayyor mahsulot, ish va xizmatlarning sifatini oshirish xamda raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida shakllantiriladi”.

Ta’kidlash joizki, K.A.Dadaboyev “Logistika – ma’lum maqsadlarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan mablag‘ va xizmatlarni maqsadga muvofiq tayyorlash, foydalanishni tashkil etish va boshqarish”¹³ - degan fikrni ilgari surgan. Biz ma’lum ma’noda uning fikriga qo‘shilamiz, ammo bu ta’rif logistikaning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi deb hisoblaymiz.

¹⁰Дегтяренко В.Г. Основы логистики и маркетинга. Ростов-на-Дону: Экспертное бюро, Москва: Гардарика, 1996. – с. 4

¹¹Новиков О.А., Уваров С.А. Логистики. Учебное пособие. – СПб.: Бизнес-пресс, 1999. – с 32.

¹²Григорьев М.Н., Долгов А.П. Логистики. Учебное пособие. – М: Гардарика, 2006. – с 15.

¹³Дадабоев К.А. Логистика. Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2004. 29-б

Yana bir iqtisodchi olim O.Dilmurodovning fikriga ko'ra: "Logistika – bu xom ashyo, materiyallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot zahiralari, xizmat ko'rsatish va u bilan bog'liq axborotlarni iste'molchida meva-sabzavot mahsulotiga bo'lgan talab paydo bo'lgan nuqtadan, ma'lum sifat ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadigan, uni iste'molchi talabini to'liq qondirish maqsadida ishlab chiqarilgan joydan iste'mol qilish nuqtasigacha harakatlanishi xarajatlarini pasaytirish nuqtai nazaridan rejalashtirish, boshqarish, bajarish va nazorat qilishdir"¹⁴.

B.Maxmadiyevning fikricha, "Logistika – bu belgilangan vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan vositalarni va xizmatlarni maqsadga muvofiq tayyorlash va ishlashini tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarishdir. Talab, ta'minot, ishlab chiqarish, transport va mahsulotlar taqsimlashning o'zaro aniq hamkorligiga suyangan holda logistika iqtisodiyotning ba'zi bir ishlab chiqarish infratuzilmasi sifatida ko'rib chiqiladi"¹⁵.

"Logistika – korxonaning o'zida va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ko'proq samara olish maqsadida material oqim va sirkulyatsion jarayonlarni boshqarish, rejalashtirish, tashkil etish bo'yicha faoliyatlar yig'indisi sifatida tushuniladi"¹⁶, degan fikrni L.F.Bobinin ta'kidlab o'tgan.

L.F.Bobinin yuqoridagi ta'rifida material oqimlarga alohida urg'u berib o'tgan, lekin logistik jarayonlarda moliyaviy va axborot oqimlarini ham birgalikda ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Germaniya federal logistika boshqarmasi raisi doktor G.Shtabenauning ta'kidlashicha, - "Logistika – bu materiallarni firmaning ichida va undan tashqarida boshqarish hamda nazorat qilishning asosiy vazifasidir"¹⁷. Olimning bunday ta'rifi ancha qisqa va bir tomonlama, deb hisoblaymiz.

AQSHning ta'minot masalalari bo'yicha jamiyati injenerlari logistika to'g'risida quyidagicha mulohazaga to'xtalib o'tganlar: "Logistika – bu ikki yoki

¹⁴ Дилмуродов О. Мева-сабзавотчилик мажмуида логистик тизим // Бозор, пул ва кредит. 2007. №2. 64-б

¹⁵ Махмадиев Б.С. Логистика. (Электрон ўқув қўлланма). – Қ.: www.ziyouet.uz., 2003.

¹⁶ Бобинин Л.Ф. Сбор. труд. проф. пре. сост. ИЭФ по мат. конф. Казахстан-2030. – Алматы:1998. – с. 32

¹⁷ Штабенау Г. Логистика: Проблемы и перспективы // Тез. док. науч. практ. сем. – М.: 1989. – с. 9

undan ortiq faoliyat turini rejalashtirish maqsadida, xom ashyo oqimining, tugallanmagan ishlab chiqarish zahiralari va yakuniy mahsulotni ishlab chiqarishdan to iste'mol bo'lgunigacha yuqori darajasini tadbiiq etish va kuzatish maqsadida birlashtirishdir"¹⁸.

Amerika logistika bo'yicha maslahat boshqarmasi yetakchilarining fikrlariga ko'ra: "Logistika – bu material oqimlarni optimal boshqarish vazifalarini yechish uchun tizimli yondashuvdir"¹⁹.

M.P.Gordon o'zining "Bozor va logistika" nomli risolasida "Logistika – xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish va muomalaga yo'naltirilgan material oqimlarni boshqarish"²⁰ degan fikrni ilgari suradi.

L.S.Fedorov "Logistika" nomli risolasida, "Logistika – bu boshlang'ich holatdan yakuniy holatgacha material oqimlarini boshqarish bilan shug'ullanadigan fandır"²¹ deb ta'kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarda faqat materiallar ta'minoti va material oqimga alohida e'tibor, urg'u berish bilan cheklanganligini ko'ramiz. Yuqoridagilardan kelib chiqib, material, moliyaviy va axborot oqimlari logistik tizimning asosi hisoblanishini e'tiborga olib, avvalo "oqim" tushunchasining ma'no-mazmunini aniqlab olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

"Oqim" tushunchasi bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Chunonchi, V.O.Baxarev fikricha: "Birinchiidan, "moliyaviy resurslar oqimi" to'g'risida, bizning nazarimizda, moliyaviy oqimlar pul oqimlari bo'lishi mumkin, "resurslar" oqimi emas, chunki hisobda resurs deb bug', gaz, elektr energiya, kislorod, suv, issiqlik, va hokazolar tushuniladi"²².

Bizningcha, V.O.Baxaraevning "resurs" va "oqim" atamalarini bir-biridan farq qiladigan alohida atamalar ekanligi haqidagi o'zining aniq ma'noni ifodalab berishi bilan "oqim" tushunchasi o'z ifodasini topdi deb hisoblaymiz.

¹⁸ Логистика: Проблемы и перспективы // Тезисы док. науч. практ. сем. – М.: 1989. – с. 8

¹⁹ Там же. – с.11

²⁰ Гордон М.П. Рынок и логистика. – М.: Экономика, 1993. – с. 13

²¹ Федоров Л.С. Логистика. Учебник. – М.: ИНФРА, 2001. – с. 12

²² Бахарев В.О. Производственно-заготовительная и сбытовая логистка предприятий ювелирной промышленности. автореф. дисс. д.э.н. – СПб.: 1997. – с. 7

I.YU.Benkening ta'kidlashicha, "Inflyatsiya sharoitlarida, har qanday xarajat turini pasaytirish zaruriyati dolzarb bo'lib turganda, oqim jarayonlarini boshqarishning ilmiy usuli sifatida logistikaning ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning bilan birgalikda bu holatda vazifalarni qo'yish va hal etish qiyinlashadi va qo'shimcha ko'rsatkichlar kiritish talab etiladi"²³.

Shuningdek, ushbu masala bo'yicha A.M.Gadjinskiy: "...ijrochi axborot tizimlarida material oqimlarni tezkor boshqarish amalga oshiriladi"²⁴ degan fikrni ilgari surgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'riflarni umumlashtirilgan holda, logistik oqimni ma'lum vaqt oralig'ida dinamik o'zgarishlarga sabab bo'luvchi harakat, deb tushunish mumkin. Demak, logistik tizim va muomalalarning ob'ektlari turli shakldagi oqimlar hisoblanadi va ular birinchi navbatda, material va unga mos ravishda axborot va moliyaviy oqimlardir.

A.M.Gadjinskiy²⁵ va A.N.Rodnikov²⁶ logistik muomalalarni "material va yoki axborot oqimini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilgan harakatlar majmui" deb tasdiqlaganlar.

V.O.Baxarevning: "...biroq logistik muomalalarga kiritilgan ob'ektlar qatoriga tovar-moddiy boyliklar oqimining harakatida paydo bo'luvchi moliyaviy oqimlar ham qo'shilishi kerak"²⁷ degan fikrni alohida e'tiborga olish joizdir.

Ammo, "oqim" tushunchasi hozirda nisbiy tushunchadir. Logistik muomalalarni amalga oshirishda doimo optimal yechimni izlab topish doimiy muammodir, ya'ni qabul qilinayotganidan ko'ra, yanada samaraliroq yechimlar izlanadi. Ana shu mantiqdan kelib chiqib, biz "Logistik oqimlarga material, moliyaviy va axborot oqimlari kiradi" degan umumiy hulosani qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz va ushbu jarayonni ob'ektimiz hisoblangan qurilish

²³ Бенке И.Ю., Юльчиева Г.Н. Японское искусство торговать в практике. – Алматы: 1999. – с.227.


²⁴ Гаджинский А.М. Основы логистики. – М.: Инфарм – Маркетинг, 1996. – с. 173

²⁵ Гаджинский А.М. Основы логистики. – М.: Инфарм – Маркетинг, 1996. – с. 12

²⁶ Родников А.Н. Логистика: Терминологический словарь. – М.: Экономика, 1995. – с. 90-91

²⁷ Бахарев В.О. Производственно-заготовительная и сбытовая логистика предприятий ювелирной промышленности. автореф. дисс. д.э.н. – СПб.: 1997. – с. 9

korxonalari misolida logistika oqimlari tasnifini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir (1.1.1 - rasm).



1.1.1 – rasm. Qurilish korxonalarida logistika oqimlari tasnifi²⁸

Ko'rsatib o'tilgan materiyal, axborot va moliyaviy oqimlarni boshqarish o'ta muhim hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, ularni bir-biridan ajratish maqsadga muvofiq emas. Qolaversa, biz mehnat resurslarini ham bevosita logistik oqimlarga ta'sir ko'rsatuvchi omil deb hisoblaymiz.

Izlanishlarimiz tahlili logistikada xarajatlarni aniqlash qiyinligining asosiy sababi - ularga tashqi va ichki muhitning ko'plab omillari ta'sir etishi ekanligini ko'rsatib berdi.

Ta'kidlash zarurki, ko'plab taniqli olimlar "logistik muomala" tushunchasini boshqaruv tizimining unsuri sifatida yoritib berishgan, ya'ni ularning fikrlarini umumlashtiradigan bo'lsak, "logistika – materiyal zahiralari boshqarishdir". Bizning nazarimizda, logistika - nafaqat ta'minot jarayonlarini boshqarishgina emas,

²⁸Muallif tomonidan tuzilgan

balki ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini ham boshqarishdek keng va juda murakkab jarayonni ifodalaydi.

M.P.Gordon: “Logistika quyidagi omillar ta’sirida rivojlanadi: sotuvchilar bozori sotib oluvchilar bozoriga aylanib qolishi, tovarlar tuzilmasini qiyinlashuvi va differentsiatsiyasi va albatta tovar harakatlanishi hamda transportda tashish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar va vaqtni qisqartirishga bo‘lgan intilish”²⁹ deb hisoblaydi.

Biz ham ushbu fikrga qo‘shilgan holda uni yanada ilmiy rivojlantirish maqsadida logistikaning quyidagi umumiy vazifalari mamlakatimiz iqtisodiyotida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- qurilish sohasining ta’minot jarayonidagi logistika xarajatlarini prognozlashni takomillashtirish;

- qurilish sohasining ta’minot jarayonida logistika xarajatlari iqtisodiy jihatdan ahamiyatli ekanligini chuqur his qilgan holda ularni strategik rejalashtirish, ularni katta qurilishlar biznes-rejasi asosiga kiritish;

- qurilish va uning ta’minoti sohasidagi logistik operatsiyalar orqali tashib keltiriluvchi mahsulot (ish, xizmat) sifatini nazorat qilishni kuchaytirish;

- qurilish ta’minoti logistik zanjirida optimal va chegirmali mol yetkazib beruvchilarni tanlash;

- xom ashyo va materiyallarni tashib keltirish yo‘llari va transport turlarini aniqlash hamda tanlash;


- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish;

- ombor xo‘jaligi holatini baholash va boshqarish;

- tayyor mahsulotni aniq muddatlarda yetkazib berish va taqsimlashni boshqarish.

Yuqoridagi fikrlarimizni umumlashtirib, logistikaning qurilish sohasi bo‘yicha vazifalarini quyidagicha ifodaladik. (1.1.2-rasm).

²⁹Гордон М.П. Функции и развитие логистики в сфере товародвижения // Риск – М.: 1993. – №1. – с. 5



1.1.2-rasm. Qurilish sohasida logistika tizimining vazifalari³⁰

Ushbu mavzuga oid qator iqtisodiy manbalar tahlil qilinib, shu sohada ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlarning izohlari va qarashlari biz tomonimizdan tadqiq etildi. Umuman olganda, tarmoq nuqtai nazardan, qurilish tarmog'ida logistik oqimlar va logistika xarajatlari hisobini yuritish va uni takomillashtirishga oid manbalar yetarlicha emasligini ta'kidlagan holda, bu borada izlanishlar olib borgan ayrim olim va mutaxassislarning qarashlarini keltirib o'tmoqchimiz.

Jumladan, A.M.Gadjinskiy o'zining "Logistika asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida "Ta'minot (xarid qilish) logistikasi – bu korxonani material resurslar bilan ta'minlash jarayonida material oqimni boshqarishdir. Har qanday ishlab chiqarish yoki savdo korxonasi xaridni amalga oshiruvchi, yetkazib beruvchi va xom ashyo, yarimtayyor va xalq iste'moli mollari vaqtincha saqlash xizmatiga egadir"³¹ degan fikrni ilgari surgan.

³⁰Муаллиф томонидан тузилган

³¹Гаджинский А.М. Основы логистики: Учеб. пособие. – М.: ИВЦ Маркетинг, 1999. – с. 173

A.N.Rodnikov bu haqida “Ta’minot logistikasi – bu sanoat ishlab chiqarishi yoki noishlab chiqarish ob’ektlarini ekspluatatsiya qilishdagi ishlab chiqarish-tijorat, oqim jarayoni faoliyatida tegishli ob’ektlarni zarur vositalar (materiyallar, energiya, butlovchi qismlar, ehtiyot qismlar va hokazo) bilan ta’minlashga yo’naltirilgan zanjir xalqasidir”³² deb o’z qarashlarini bayon etgan.

L.B.Mirotin, Ы.Е.Ташбайев va boshqalar: “Xarajatlarning tarkibi va hajmini aniqlashtirish nafaqat iqtisodiy balki, texnik iqtisodiy vazifadir. Korxonaning xarajatlari darajasi ishlab chiqarishni tashkil etuvchi muxandis kadrlarning ijodiy potentsiali va professionalligiga bog’liq bo’lsa, bu xarajatlarni korxonaning faoliyati turlari va mahsulotning birligi bo’yicha ishlab chiqarish bo’linmalariga hamda boshqa ob’ektlarga tegishlilikini aniqliligi iqtisodchilarning malakasiga bog’liqdir” deb ta’kidlamoqdalar³³.

Ch.T.Xorngren va Dj.Fosterlar esa, “Ko‘plab kompaniyalarda materiyallarni sotib olish va ulardan foydalanishni nazoratini turli bo‘linmalar amalga oshiradi. Natijada narxlar og‘ishi bo’yicha mas’ullik ta’minot bo‘limida bo‘lsa, samaradorlik og‘ishi bo’yicha mas’ullik – ishlab chiqarish bo‘limi yoki sotish bo‘limiga yuklatiladi. Narxlardagi og‘ishlarni boshqarish va nazorat qilish: narxlarni manipulyatsiya qilish, tovarni rentabelli hajmini sotib olish, chegirmalar olish, transport-tashishning eng ma’qul usulini tanlash kabilar hisobiga erishiladi. Narxlarning og‘ishini taxmin etish usullarini takomillashtirish va mol yetkazib beruvchi hamda transport tashkilotlariga nisbatan qarorlar qabul qilishda ishlatiladi”³⁴, deb e’tirof etganlar.

Xususiyl jihatdan olganda, logistika xarajatlari va ularning hisobi chuqur tadqiq etilishiga muhtojdir.

B.Nidlz, X.Anderson va D.Kolduellarning bu borada fikrlari quyidagicha, “Materiyal zahiraning birlamchi asosiy hisobi vositani sotib olish chog‘ida to‘langan narx yoki berilgan kompensatsiya sifatida aniqlanuvchi tannarx hisoblanadi. Bunday

³²Родников А.Н. Логистика. Терминологический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2000. - с. 251.

³³Миротин Л.Б., Ташбаев Ы.Э. Эффективная логистика. – М.: Экзамен, 2003. – с. 76

³⁴Хорнгрен Ч.Т. ва Фостер Дж. Бухгалтерский учет: Управленческий аспект: – М.: Финансы и статистика, 2000. – с. 137

usul bilan aniqlangan material zahiralarning tannarxi (inventory cost) quyidagi elementlarini o'z ichiga oladi: a) xarid uchun chegirmalarni chiqarib tashlangan holda schyot-faktura summasi; b) tovarni yo'lda qo'riqlash summasi qo'shilgan holda fraxt qiymati; v) tegishli soliq va tariflar.

Sotib olish, qabul qilish va ombor xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar ham material zahiralarning tannarxiga kiritilishi kerak. Ammo, amalda bu xarajatlarni alohida buyumlar o'rtasida taqsimlash qiyin va ko'p holda ular material zahiralarning tannarxi elementi sifatida emas, balki hisobot davri xarajatlari sifatida hisobga olinadi³⁵.

M.Sh.Mamatkulovning fikriga ko'ra, "Uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda kommunal xizmat ko'rsatish jarayonlari logistika xarajatlari boshqaruv hisobini yuritishda quyidagilarni:

- xizmat ko'rsatish jarayonlarida tranzaksion xarajatlarni hisobga olgan holda hisobni olib borish;
- xizmat ko'rsatish jarayonida logistika oqimlarini boshqaruv qarorlari asosida boshqarish;
- moliyaviy oqimlarni yetuk mutaxassislar (buxgalter, ichki auditor va menejer)ning tavsiyalarini hisobga olgan holda jalb etish;
- xizmat ko'rsatish jarayonlarini logistik boshqarishda transport logistikasini takomillashtirish;
- uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlar boshqaruvi va hisobini yuritishda logistika xizmatini tashkil etish, buxgalterlikka logistika mutahassislarini jalb qilish va boshqalar³⁶ni amalga oshirishni tavsiya etgan.

Navbatdagi ilmiy hulosasi sifatida, ta'kidlash mumkinki: "Logistika xarajatlari - bu xaridlarni amalga oshirishda mahsulot yetkazib berish (ish, xizmat bajarish) jarayonlari, ya'ni ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida moddiy

³⁵Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. – М.: Финансы и статистика, 1996. – с.164

³⁶Маматкулов М.Ш. Уй-жой мулкдорлари ширкатлари ва бoшқарувчи ташкiлотларда лoгистик харажатлар бoшқарув хисoбини тaкoмиллаштириш. // Лoгистика ва иктисoдиёт. – Тoшкент, 2021.– №1. – 209 б. http://economyjournal.uz/maqola/Logistika_va%20iqtisodiyot_2021_1_son.pdf

qiymatliklarni sotib olish, tashish-ko‘chirish, tushirish, joylash va saqlashgacha bo‘lgan umumiy xarajatlardir”.

Logistika xarajatlari hisobi esa, ushbu xarajatlarni hisob schyotlarida aks ettirish, ularga doir muomalalarni hisobga olish va buxgalteriya hujjatlarini yuritishdir.

Logistika tizimining vazifalari chegarasini aniq belgilab olish hususida iqtisodiy adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjudligini ko‘ramiz. Q.A.Dadaboyev, - “Logistikaning maqsadi – ma’lum tovarni ma’lum vaqtda eng kam (minimal) xarajatlar bilan oldindan tayyorlash”³⁷, - degan fikr tarafdori.

Tahlillarimiz logistikaning maqsadi – mol yetkazib beruvchilarni optimal tanlash orqali TMZlarni keltirish, tushirish, omborga joylash, ularni ishlab chiqarishga berish, tayyor mahsulotni iste’molchilarga sotish va yetkazib berish jarayonlarida xarajatlarni optimallashtirish orqali yuqori daromadga erishish ekanligini yana bir isbotlab berdi.

Qozog‘istonlik iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra: “Logistikaning eng ma’qul shakli xo‘jalik faoliyatining moddiy-texnik ta’minoti majmuini yagona tizim sifatida ko‘rsatib beradi va bu tizimning maqsadi o‘z faoliyatining umumiy xarajatlarini optimallashtirish va bir vaqtning o‘zida mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha zarur darajani ta’minlashdir”³⁸.

Ushbu fikrlar yuqoridagi qarashlarimizni tasdiqlaydi. Shundan kelib chiqib, logistika bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida keng qo‘llanayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Q.A.Dadaboyev o‘z izlanishlari davomida: “Logistika to‘liq darajada iste’molchiga xizmat qiladi. Shuning uchun logistika doirasida tarqatish va sotish vazifalari faqat bir vaqtda 6 ta shart mavjudligida amalga oshadi. Bu shartlar - yuk, sifat, miqdor, vaqt, xarajatlar va yetkazish joyidir»³⁹ - deb ta’kidlab o‘tgan.

³⁷ Дадабоев Қ.А. Логистика. Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2004. 29-б

³⁸ Бенке И.Ю., Юльчиева Г.Н. Японское искусство торговать в практике. Казахстан, 1999. – с. 214

³⁹ Дадабоев Қ.А. Логистика. Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2004. 35-б

1.1.2 - jadval

Turli hil iqtisodiy adabiyotlarda logistika xarajatlariga yondashuvlarni qiyosiy taqqoslash⁴⁰

№	Manba	Logistika xarajatlari
1.	Shash N.N., Azimov K.A., Shepeleva A.Yu. Logistika. – M.: Yurayt-Izdat, 2006. – 205 s. (s. 203)	Logistika xarajatlari – materiyallar harakati oqimini boshqarishning yaxlit logistik tizimi bo‘lib, u mol yetkazib beruvchilarning xarajatlaridan boshlab oxirgi iste‘molchigacha bo‘lgan oraliqda korxonaning xarajatlari yig‘indisidir.
2.	Gadjinskiy A.M. Logistika. – M.: ITK Dashkov i K ⁰ , 2012. – 138 s.	Logistika xarajatlari (logistical cost) –Logistika xarajatlari logistika operatsiyalarini bajarish bilan bog‘liq xarajatlardir.
3.	Dadaboyev Q.A. Logistika. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2004. 150-b	Logistika xarajatlari (logistical costs) – logistik muomalalar (omborga joylashtirish, tashish va x.k., buyurtmalar, zahiralar, yetkazib berishlar haqidagi ma‘lumotlarni yig‘ish, saqlash va uzatish)ni bajarishga sarflangan xarajatlar. O‘zining iqtisodiy mazmuni bo‘yicha ular muomala xarajatlarning summasi va ishlab chiqarish xarajatlarning bir qismi (idishlar va idishga joylashtirish, transport, omborxonalar ishlariga xarajatlar va x.k.) dan iborat bo‘ladi
4.	Muallif ta‘rifi:	Logistika xarajatlari - ta‘minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida moddiy qiymatliklarni sotib olish, tashish-ko‘chirish, tushirish, joylash va saqlashgacha hamda ushbu jarayonlarni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy xarajatlardir. Logistika xarajatlari hisobini yuritish esa, ushbu xarajatlarni hisob schyotlarida aks ettirish, ularga doir muomalalarni hisobga olish va buxgalteriya xujjatlarini yuritishdir.

Logistika tizimidan foydalanishda logistika xarajatlarni o‘rganish va tahlil qilishning ahamiyati katta. Ombor xo‘jaligini boshqarish xarajatlari, zahiralar, transport xarajatlari, ishlab chiqarishni rejalashtirish xarajatlari, ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa xarajatlar bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Hattoki, ba‘zi turdagi xarajatlarni kamaytirish boshqa bir xarajatlarning ortib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun logistika xarajatlarni optimallashtirishdan oldin, har bir xarajat turlarini amalga oshirish va o‘zgartirish oqibatlarini har tomonlama tahlil qilish o‘ta muhim hisoblanadi. Ammo, unutmazlik kerakki, bunda tizimni keskin o‘zgartirish va qaytadan tashkil qilish natijasida yana qo‘shimcha xarajatlar paydo bo‘lishi ham mumkin. Buning sababi, quyidagi omillar ta‘sirida bo‘lishi mumkin:

- axborot va moliyaviy oqimlarning yetarli emasligi;
- boshqaruv qarorlarini tahlil qilmasdan muomalalarni amalga oshirish;

⁴⁰ Муаллиф томонидан тузилган


- boshqaruv xodimlari vazifalarini o‘z vaqtida yoki mas’uliyat bilan bajarmasligi;
- o‘zgartirishlarning muhim jihatlarini tahlil qilmasdan amalga oshirish;
- bozor talablarini va o‘zgarishlarini hisobga olmasdan boshqaruv qarorlari ishlab chiqish;
- amaliyotda logistikaning maqsadlari marketing yoki ishlab chiqarish maqsadlariga to‘g‘ri kelmay qolishi.

Logistikada xarajatlarni pasaytirish eng muhim vazifa ekanligidan kelib chiqib, shu o‘rinda logistika xarajatlarini tasniflash tadqiqotimizning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Korxonaning bozor talablarini bajara olishi uning umumiy xarajatlari darajasigi bog‘liqdir. Bunda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi yuqori bo‘lmasligi, uni haridorga yetkazib berish va sotish xarajatlari aksincha bo‘lishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning logistika xarajatlari o‘rnini belgilash va baho xosil qilish mexanizimidagi rolini o‘rganish zarur shartlardan biridir. Bu borada asosiy masala xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini topish orqali daromadning darajasini ko‘paytirishdir. Logistik faoliyatning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar qatorida bozor infratuzilmasining o‘zgarishi, to‘lovlarni amalga oshirish vaqtida moliyaviy resurslarning taqchilligi, raqobatning yuqori darajasi, kabi omillar hisobga olinishi shart.

Respublikamizda logistika xarajatlarini optimallashtirish masalalari shu kungacha mahsus tadqiqot qilinmaganligi uchun logistika xarajatlarini inkor etishdek salbiy natijalarga olib kelgan deb hisoblaymiz.

Har bir korxonaning biznesini rivojlantirish uchun keng miqyosda logistik oqimlarni ishlab chiqish va loyihalashtirish, bozorga moslashtirish, tovarni yetkazib berish va sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatish turlarini kengaytirish lozim. Logistika bo‘yicha menejerning vazifasi baho optimalligiga erishish, korxonaning har bir bo‘g‘inida paydo bo‘ladigan xarajatlarni va ortiqcha xarajatlarni tahlil qilishga qaratilgan maqsad ushbu faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Logistika ilmda asosan ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari xarajatlari o'rganiladi. Ularning ichida aynan qurilish korxonalari ta'minoti jarayonlarining logistika xarajatlari tasnifi quyidagi 1.1.3. - rasmda keltirilgan.



1.1.3-rasm. Qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari⁴¹

Biz qurilish tashkilotlari ta'minoti amaliyotida logistika xarajatlarini boshqarish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

- boshqaruv qarorlarini qurilish sohasining ta'minoti bo'yicha logistika xarajatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqish;

⁴¹Муаллиф томонидан тузилган

- qurilish sohasi ta'minoti bo'yicha har bir muomalani logistik jihatini hisobga olgan holda tashkil etish;
- har bir logistik oqim bo'yicha alohida hisob yuritish;
- qurilish ta'minotini logistik qonunlar asosida optimallashtirish;
- qurilish ta'minotidagi logistika xarajatlarini joriy va operativ rejalashtirish orasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish;
- material, axborot va mahsulot oqimini baholash optimalligiga erishish.

1.2-§. Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlar

Logistika fan sifatida tizimning zahiralari va ularning sig'imi, ishlab chiqarish quvvatlari va o'zgaruvchanlik qobiliyati o'rtasidagi aloqalarni o'rnatib, qisman maqbul bo'lgan tizimdan to'liq maqbul tizimlarga o'tish chog'idagi inersial jarayonlarni bosib o'tishga imkon yaratadi.

Logistik yondashuvning o'ziga xos ustuvorligi – bu yuqori darajadagi o'zaro tashkiliy aloqalarning o'rnatilishi, shu bilan birga logistika zanjiri qatnashchilarini material o'tkazuvchi yagona tizimga birlashtirishda namoyon bo'ladi. Logistik yondashuvning maqsadi – material oqimlarni mufassal boshqarish demakdir. Material oqimlarni boshqarish har doim xo'jalik faoliyatining sezilarli boshqarilgan sohasi hisoblangan. Material oqimlarni boshqarish butun iqtisodiy xayotining eng zarur vazifasiga aylanganligiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q (ya'ni, logistika rivojlanishi bosqichining ikkinchi davri – o'tgan asrning 60-yillaridan keyingi davrlar). Buning asosiy sababi – sotuvchi bozorida sotib oluvchi (xaridor) bozoriga o'tishi, buning natijasida ishlab chiqarish va savdo tizimlarini iste'molchining tez o'zgaruvchi xohish-istaklariga mohirona javob bera olish zaruriyati paydo bo'lishidir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida material-texnik bazani takomillashtirish me'yorlarining o'zgarishi har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt mavjud vaziyatni o'zi mustaqil baholashiga va qarorlar qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kun raqobatchilik kurashida logistika sohasidan

xabardor bo'lgan va uning metodlarini yaxshi bilganlar g'olib chiqmoqda. Shuning uchun ham, logistikani yangi ilmiy yo'nalishdagi mustaqil fan sifatida o'rganish zarur. Hozirda logistika shak-shubhasiz yangicha fikrlash shakli hisoblanmoqda. Endilikda logistikani ta'minot, ombor, ishlab chiqarish, sotish, savdo, transport, tijorat, axborot va boshqa sohalar yo'nalishlari logistikalariga ajratish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida logistikaning o'rni, mazmun-mohiyati ortib borishining asosiy sababi, tovarlarning harakatlanishi sohasida logistikani amaliy qo'llash natijasida iste'molchilarni doimiy ravishda o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha xarajatlarni qoplovchi zahiralar topilishidir. Zero, amalda logistik tizim to'g'risidagi tushuncha yetishmasligi sababli qurilish tashkilotlarida boshqaruvchilar yangilik kiritishga intilmasligi natijasida aynan yuqorida ko'rsatilgan hatoga yo'l qo'yiladi, ya'ni ishbilarmonlik siyosatini to'g'ri tashkil etishda logistik boshqaruvchilarning kasbiy tayyorgarligi yangi zamonaviy asosda bo'lishi ta'minlanmaydi.

Logistikani yuritishda asosan, unga tegishli oqimlar boshqarilganligi uchun biz ushbu oqimlarni material, moliyaviy va axborot oqimlariga ajratib chiqdik (1.1.1-rasmga qarang).

Material oqim material qiymatlik harakatini ifodalaydi va ular butun logistik zanjir o'ramida harakatlanuvchi oqimdir. Shu jihatdan qaraganda, material oqimlar quyidagi ikki bosqichni bir vaqtda birday harakatda bo'lishi bilan muhimdir:

- kiruvchi material oqimlar harakati (xom ashyoni sotib olish, saqlash va ishlab chiqarishga kiritish);

- chiquvchi material oqimlar harakati (tayyor mahsulotni omborda saqlash, xaridorga sotish va yetkazib berish).

Kiruvchi oqim – xom ashyo va yarimtayyor mahsulotlarning ishlab chiqarishga kelib tushishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, u bozorni o'rganishdan boshlanadi. Chunki, bozorda mahsulotni sotib olish, mol yetkazib beruvchilarni aniqlash, mahsulotning narxlari va boshqa masalalar hal etilishi mumkin.

Chiquvchi oqim – bu tayyor mahsulotni ulgurji, chakana savdoga yoki bevosita iste'molchiga yetkazib berishdir. Bu oqimlar ikki iqtisodiy toifa – talab va taklif bilan o'zaro bog'liqdir.

Rossiyalik olim A.D.Chudakov material oqimga quyidagicha ta'rif beradi, "... ma'lum bir vaqt oralig'ida tovar-moddiy boyliklar yuk birliklarining paydo bo'lishi va rivojlanishi yuz beradigan davrga tegishli bo'lgan tovar-moddiy boyliklari yuk birliklarining miqdoriy birlashuvidir"⁴².

Bir iqtisodiy xududda joylashgan ishlab chiqarish korxonalari va firmalarning iqtisodiy hamda texnologik aloqalari, shuningdek ularning ushbu xududdan tashqarida joylashgan korxonalar va firmalar bilan aloqalari, ular o'rtasidagi korrespondensiyani tashkil etishi natijasida transport-iqtisodiy aloqalar yuzaga keladi. Ushbu aloqalarning moddiy ko'rinishi va shakli material oqim hisoblanadi.

Olimlardan L.B.Mirodin⁴³, A.A.Kanke, I.P.Kosheva⁴⁴larning ta'riflashlaricha, "Material oqim – bu turli logistik (transportda yuklarni tashish va saqlash) va texnologik (mexanik ishlov berish, yig'ish) ta'sir etish jarayonlarda ko'rib o'tiladigan hamda ma'lum vaqt oralig'iga bo'ysundirilgan mahsulotdir (yuk, detal va TMZ shaklidagi mahsulot)".

Bizningcha, qurilish jarayonlaridagi material oqim logistik oqimlarning asosiy bir bo'g'ini bo'lib, unga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiqdir: qurilish sohasidagi material oqim – bu logistik jarayonlarda harakatlanuvchi qurilish korxonaning ma'lum maqsadlariga sarflash uchun keltiriladigan va chiqarib yuboriladigan moddiy joriy aktivlardir.

Ma'lum vaqt oralig'ida ko'rib chiqilmaydigan material oqimlar o'sha davr oralig'ida harakatlanmagan material zahiralari hisoblanadi.

Logistikada material oqimlar quyidagi parametrlar (o'lcham) bilan tavsiflanadi: mahsulotning nomenklaturasi, assortimenti va miqdori, gabarit tavsiflari (og'irlik, maydon parametrlar), og'irlik tavsiflari (og'irlik, BRUTTO va NETTO), yukning fizik-kimyoviy tavsiflari, tara yoki o'ramlar, transport vositasi

⁴² Чудиков А.Д. Логистика: 500 вопросов и ответов. Уч. пос. – М.: РДЛ, 2005. – с. 178

⁴³ Миротин Л.Б. Логистика: общественный пассажирский транспорт. Учебник. – М.: Экзамен, 2003. – с. 9

⁴⁴ Канке А.А., Кошева И.П. Логистика: учебник. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. – с.46

(yuk ko‘tarish, yuk sig‘dira olish) tavsiflari, sotish va sotib olish shartnomasi shartlari (mulkchilikka berish, mahsulotni yetkazib berish), moliyaviy (qiymat) tavsiflar va moddiy joriy aktivlarni (xom ashyo va materiyallar, yarimtayyor va tayyor mahsulotlar) ko‘chirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa jismoniy taqsimlash muomalalarini bajarish shartlari va boshqalar.

Miqdoriy jihatdan material oqim intensivlik, zichlik, tezlik va boshqa ko‘rsatkichlar bilan aks ettiriladi. Logistika nuqtai nazardan material oqimining tasnifi 1.2.1-jadvalda keltirilgan.

1.2.1.-jadval

Logistikada material oqimlarning tasnifi⁴⁵

№	Tasnifiy belgi	Material oqim turlari
1.	Logistika tizimiga tegishliligi	Tashqi material oqim Ichki material oqim
2.	Logistika tizimining bo‘g‘iniga tegishliligi	Kiruvchi material oqim Chiquvchi material oqim
3.	Tovar-moddiy boyliklarning tarkibi	Bir assortimentli material oqim Ko‘p assortimentli material oqim
4.	Ko‘lami	Yalpi material oqim Yirik material oqim O‘rta material oqim Mayda material oqim
5.	Yuk birliklari xarakteri va og‘irlik o‘lchamlari	Og‘ir vaznli material oqim Yengil vaznli material oqim Nogabarit material oqim
6.	Yuk birliklarini konsistensiyasi (quyuq-suyuq, zichlik, qattiq-yumshoq)	Uyib to‘kiladigan, mahsus transport vositalardan foydalanishni talab etuvchi yuklar; Idishsiz, o‘ralmagan, betartib to‘kiladigan, mahsus taralashtirishni talab etmaydigan yuklar; Tarali va donali yuklar; Quyiladigan yuklar.

Logistika nuqtai nazaridan xom ashyo va yarimtayyor mahsulotlarni sotib olgandan ko‘ra, o‘zida ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Shunday bo‘lsada, korxonaning bu imkoniyatlari ko‘p hollarda cheklangan. Shuning uchun xaridlar amalga oshiriladi va shunga ko‘ra, bizning fikrimizcha, korxonaga kelib tushayotgan material oqimni boshqarish bo‘yicha o‘tkaziladigan logistik muomalalarga quyidagilarni kiritish zarurdir:

⁴⁵Муаллиф томонидан тузилган

- boshqaruv apparati sotib olish qarorini yetakchi mutaxassislar (huquqshunos, boshqaruv buxgalteri, ichki auditor va logistika bo'yicha maslahatchi) ishtirokida ishlab chiqishi;

- sotib olishni rejalashtirish;

- hududiy bozorlarni sinchkovlik bilan o'rganish va sotib olish bozorini aniqlash hamda tanlash;

- chegirmalar beruvchi va sifatli xizmat ko'rsatuvchi mol yetkazib beruvchilarni izlash hamda tanlash;

- mol yetkazib berish bo'yicha kelishuv va shartnomalarni tuzish;

- sotib olingan materiyallarni korxonaga tashib kelish;

- sotib olingan mahsulotni xujjatli rasmiylashtirish;

- sotib olingan materiyallarni sifat nazoratidan o'tkazish;

- kelib tushgan materiyallarni saqlash.

Logistika bo'yicha materiyal oqimlar harakatini tashkil etish uchun zahiralarni sotib olish, tashib keltirish, ombor xo'jaligi va zahiralarni saqlash xarajatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan siyosatni yuritishga imkon yaratish talab etiladi. Boshqacha aytganda, barcha logistika vazifalari markazlashgan va markazlashmagan boshqaruvning tegishli nazorati ostida birlashtirilishi va boshqaruv apparati samarali qarorlar qabul qilishi uchun o'zaro uzviy bog'liqlikdagi logistika muomalalari bo'yicha har bir bo'linma javobgarlikni o'z zimmasiga olishi zarur. Hozirgi kunda ko'plab firmalar umumiy rahbarlik ostida o'z faoliyatining ikki zaruriy sohalarini ya'ni, zahiralarni boshqarish va tayyor mahsulotni taqsimlashni birlashtirmoqda. Shunday qilinganda, biznesning o'ta qiyin hisoblanuvchi transport-tashish va ombor xo'jaligi vazifalari qulay hal etilishi mumkin.

Ta'minot (xarid qilish) logistikasi asosiy logistik tizim osti tizimlaridan biri bo'lib, belgilangan tartibda korxonaga ehtiyoji uchun zarur bo'lgan aktivlarni ta'minotchidan korxonaning omborigacha bo'lgan harakatlanishi jarayonini o'rganadi.

“Xarid (sotib olish yoki ta’minot) logistikasi” atamasi ma’lum jarayonlarning vujudga kelishi va rivojlanishi natijasida paydo bo’lgan. Chet elda kompaniyalarni material oqimlar bilan ta’minlash odatda, “Purchasing” (procurement – xaridlar) xaridlarni boshqarish (ya’ni, ta’minot) deb ataladi. Ammo, so’nggi yillarda bu soha xarid logistikasi deb belgilana boshlandi. Chet el logistika fanida ham bu soha terminologiyasiga yagona yondashuv hanuzgacha o’rnatilmagan.

Jumladan, D.Dj.Bauersoks va D.Dj.Klosslar “Ta’minot ishlab chiqarish zahiralarini yetkazib beruvchidan ishlab chiqarish korxonalarining omborlariga yoki chakana savdo magazinlariga tashqi mol yetkazib berishni xarid qilish va tashkil etishni o’z ichiga oladi. Odatda ishlab chiqarish faoliyatida materiallar (tovarlar) sotib olish xaridlar deb ataladi, davlat sektorida – ta’minot, chakana savdo va ombor xo’jaligida ham xaridlar deb ataladi. Ba’zan, ushbu jarayonni “Kirish logistikasi” yoki “Ichki logistika” deb ataladi”⁴⁶ deb bu boradagi o’z qarashlarini bayon etganlar.

Ma’lumki, korxonalar o’z ehtiyojlari uchun zarur bo’lgan material resurslarni yetarli miqdorda sotib olishi lozim. Bunda albatta, sotib olinayotgan material qiymatliklarning sifati va narxiga shuningdek, ishonchli mol yetkazib beruvchilarni tanlashga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qurilish korxonalari o’z faoliyatida albatta quyidagilarga e’tibor qaratish zarurdir deb hisoblaymiz:

1. Mijozlar talabini o’z vaqtida bajarish uchun xamda qo’shimcha xarajatlarni oldini olish maqsadida korxonalar faoliyati uchun zarur bo’lgan material oqimini doimiy va uzluksizligini ta’minlash.

2. Qurilish materiallari zaxirasini yaratishda mablag’lar va xarajatlarni minimum darajaga keltirish. Ishlab chiqarish davomiyligini ta’minlashda materiallar zahirasi yaratish va saqlash ularning uzluksizligini ta’minlash usullaridan biridir. Bunda zaxira yaratish ma’lum xarajatlarni va mablag’larni talab etadi.

3. Qurilish sifatini oshirish va uni doimiy nazorat qilish. Sifat belgilangan talablarga javob berishi zarur. Natijada ishlab chiqarish xarajatlari ma’lum darajaga pasayadi. Aks holda yana qo’shimcha mablag’ va xarajatlar talab etilishi mumkin.

⁴⁶ Бауэрсокс Д.Дж., Клосс Д.Дж. Логистика: Интегрированная цепь поставок. – М.: Олимп-бизнес, 2001. – с

4. Qurilish materiallarini sotib olishda qulay va ishonchli ta'minotchini izlash. Ishonchli va qulay mol yetkazib beruvchini tanlash, ularning faoliyatini o'rganish va tahlil qilish, korxonaning talablariga javob bera oladigan mol yetkazib berishni tanlash yaxshi aloqani yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Qurilish materiallarni sotib olishda ularning bahosi va sifatiga e'tibor qaratish. Ta'minot jarayoni muhim jarayonlardan biri hisoblanganligi uchun sotib olinayotgan materiallarning sifatiga e'tibor qaratish bilan birga ularning sotib olish bahosini imkon qadar pasaytirish maqsadga muvofiqdir.

6. Xozirgi sharoitda raqobatbardoshlikni oshirish. Qurilish bozorida muqim o'ringa ega bo'lish uchun ortiqcha xarajat va daromadsiz faoliyatdan voz kechish choralarini ko'rish zarur. Buning uchun rivojlangan texnika va texnologiya yutuqlarini tadbqiq etish va boshqalar zarurdir.

7. Qurilish korxonasini boshqarishda uning barcha bo'linmalarini samarali ishlashini ta'minlash. Chunki, ta'minot logistikasi samarali ishlashi uchun barcha bo'linmalarda barqaror munosabatlar o'rnatilish lozimdir.

Xaridorlarni boshqarish (ta'minot logistikasi) sohasida yuqorida keltirgan maqsadlarga erishish uchun turli muomalalarni amalga oshirish talab etiladi. Shuning uchun, xodimlar tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vazifalarni ko'rib chiqamiz.

Korxonada ta'minotini amalga oshirishda jarayonida sotib olinadigan qurilish materiallari tarkibi va uning xajmini to'g'ri aniqlab olishi shuningdek, qulay mol yetkazib beruvchilarni tanlash va shartnoma shartlarini to'g'ri belgilab olishi logistikaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan materiallar va uning tarkibini to'g'ri aniqlab olish vazifasini bajarilishida tegishli mutaxassislar xamkorligi muxim o'rin tutadi. Ushbu mutaxassislar ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur extiyojni aniqlab beradilar. Shundan so'ng aniq ma'lumotlar ta'minot (xarid qilish) bo'limiga yetkazib berilishi lozim.

Sotib olinadigan qurilish materiallari xajmini aniqlashda ehtiyoj uchun zarur materiallarning ombordagi mavjudligiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Ishlab

chiqarish bo'limidan olingan ma'lumotlar asosida ehtiyoj miqdori belgilab olinganda so'ng moliyaviy bo'limga ma'lumotlar taqdim etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi

Ta'minot bo'limi xodimlarining zimmasiga qulay mol yetkazib beruvchilarni tanlash va shartnoma shartlarini to'g'ri belgilab olishda qator vazifalar yuklatiladi. Jumladan, sotib olinadigan qurilish materiallari bozorini va ta'minotchining faoliyatini xar tomonlama o'rganish va tahlil qilish juda muhim vazifalardan biridir.

Ta'minot jarayonini bajarilishida qurilish korxonasi ta'minot bo'limi va mol yetkazib beruvchi materiallarning narxi, shartnoma shartlarining bajarilishi, uning muddatlari va yetkazib berish xamda to'lov shartlari kabi masalalarni xal qilib olishlari lozim. Ushbu jarayonda korxonaning moliya, buxgalteriya, rejalashtirish kabi bo'limlarining xodimlari xam ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, xar doim xam xom-ashyo materiallarning katta qismini sotib olish emas, balki logistik tafakkur asosida ehtiyoj uchun zarur bo'lgan materiallarni korxonaning o'zida tayyorlash imkoniyatini ko'rib chiqish lozim. Bunda ishlab chiqarishni tashkil etish uchun tashkilotda sharoitlar bor yoki yo'qligini yaxshi o'rganish talab etiladi. Korxonada rahbariyati va yetakchi mutaxassislari yarim tayyor mahsulotlarni sotib olish yoki korxonaning o'zida ishlab chiqarish bo'yicha tezkor va optimal boshqaruv qarorini qabul qilishi lozim. Agar, undan ham mayda detalni tayyorlash haqida gap borsa, uni doim sotib olish ma'qul bo'ladi, ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan butlovchi qismni sotib olish xarajatlarini qisqa vaqt ichida qoplab yuborishi mumkin bo'lgan tayyor butlovchi qism bo'lsa, uni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

M.R.Linders va X.YE.Fironlar "Xarid jarayonini tashkil etish ma'lum bosqichlarga ega yani, materiyal resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, tovar va xizmatlarning zarur tavsifi va miqdorini aniqlash, tahlil va mumkin bo'lgan ta'minot manbalarini aniqlash, xarid bahosi va shartlarini aniqlash, xarid uchun buyurtmani tayyorlash va joylash, buyurtma bajarilishini nazorat qilish va yukni kuzatish,

tovarlarni olish va topshirish, material resurslar kelib tushishi hisob kabilardan iborat”⁴⁷ degan fikrni aytib o‘tishgan.

Ishlab chiqarish va umumiyqisodiy rejalardan olingan axborotlarni qayta ishlash asosida ta’minot jarayonini rejalashtiriladi. Rejalashtirilayotgan sotib olish biznes rejaga mos kelishi zarurligidan kelib chiqib, korxonaning xom ashyo, tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish rejasi esa, xom ashyo, tovar va xizmatlar sotib olinadigan manbani aniqlab beradi, umumiy tuzilgan biznes reja narxning umumiy tendensiyasi, ish xaqi va boshqa xarajatlarni baholash chog‘idagi zarur bo‘lgan axborot bilan ta’minlaydi.

A.A.Kanke va I.P.Koshevalarning tahlillariga ko‘ra, “Ko‘plab korxonalarda Pareto qonuni yoki AVS tahlili deb nomlanuvchi qonundan foydalanilib kelinmoqda, ya’ni, tovarning 20 foizini sotib olish uchun vositalarning 80 foizi xarajat qilinadi”⁴⁸.

So‘nggi yillarda ta’minot jarayonlarini logistik boshqarishda (xaridlarni amalga oshirishda) zamonaviy logistik tizimlar ishlab chiqilmoqda va amaliyotda qo‘llanilmoqda. Ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tsak.

JIT tizimining qo‘llanilishi va afzalliklari haqida A.I.Semenenko “JIT tizimi (“Aniq muddatda” yetkazib berish) korxonaning barcha logistik funksiyalarini mahsulotning yuqori darajadagi ishonchliligi va sifati darajasi hamda iste’molchilarning talablarini maksimal darajada qondirish uchun xizmat ko‘rsatishning yuqori sifatini ta’minlash, birlashgan logistik funksiyalarini maksimal darajada birlashtirishni asosiy maqsad qilib olgan tizimdir. Yuklarni “Aniq muddatda” yetkazib berish iste’molchining buyurtmasi bajarilishini ikki marta qisqartirishga, zahiralar darajasini 50 foizga kamaytirishga va mahsulotni tayyorlayotgan korxonada buyurtma bajarilishi davomiyligini 50-70 foizga qisqartirish imkonini beradi”⁴⁹ deb aytib o‘tgan.

⁴⁷ Линдерс М.Р., Фирон Х.Е. Управление снабжением и запасами. Логистика / пер.с англ. СПб.: Виктория Плюс, 2002. – с.97.

⁴⁸ Канке А.А., Кошева И.П. Логистика: уч. – 2-е изд. – М.:ФОРУМ, ИНФРА-М, 2007. – с.189

⁴⁹ Семенов А.И. Предпринимательская логистика. СПб.: Политехника, 1997. – с.314

Shuningdek, “KANBAN” tizimi bo‘yicha xam A.I.Semenenko “KANBAN tizimi barcha ishlab chiqarish uchastkalariga qat’iy jadval asosida aynan mahsulotni ishlab chiqarish uchun rejalashtirilgan material resurslar miqdori yetkazib berilishini nazarda tutadi. Germaniyada faoliyat yuritayotgan 80 dan ortiq firmalar faoliyatining tahlili, ular tomonidan KANBAN logistik tizimini qo‘llash chog‘ida ishlab chiqarish zahiralari – 50 foizga, tayyor mahsulot zahiralari – 80 foizga qisqarganligi, ish unumdorligi 20-50 foizga ortganligini ko‘rsatmoqda”⁵⁰ deb takidlab o‘tganlar.

MRP-1 tizimi bo‘yicha L.B.Mirotina, V.I.Sergeevalar “MRP-1 tizimi – dunyoda eng ommaviy tizimlardan bir bo‘lib, “ehtiyotlar, resurslarni rejalashtirish” logistik konsepsiyaga asoslangan. Bu tizim mahsuslashgan tayyor mahsulotga bo‘lgan talabga bog‘liq holda mahsulotlar, komponentlar, yarimtayyor mahsulotlarni o‘rganadi va ularni tashkil etish yo‘llarini belgilaydi. Bu tizimning asosiy maqsadlari – ishlab chiqarishni rejalashtirish uchun material resurslarga bo‘lgan talabni qondirish va iste‘molchilarga mol yetkazib berish, material resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlarni past darajada bo‘lishini ta‘minlash, ishlab chiqarish muomalalari, yetkazib berish jadvali va xarid muomalalarini rejalashtirishdan iborat”⁵¹ ekanligini aytib o‘tganlar.

Yana A.I.Semenenkoning qarashlariga e‘tibor bersak “MRP-2 – resurslarga bo‘lgan ehtiyotni rejalashtirish tizimining ikkinchi avlodi – bu o‘ziga hos birlashuvli mikrologistik tizim bo‘lib, unda moliyaviy rejalashtirish va logistik muomalalar birlashtiriladi. Ushbu tizim korxonaning logistika, marketing, ishlab chiqarish, moliyalashtirish, rejalashtirish va boshqarishdagi strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun samarali qurol hisoblanadi. MRP-2ning MRP-1dan afzallik tomonlari: iste‘mol talabini to‘liqroq qondira olishdir.

Bu tizimda iste‘mol talabini qondirish ishlab chiqarish sikllarining davomiyligini qisqartirish, zahiralarni kamaytirish, mol yetkazib berishni samarali

⁵⁰ Семенов А.И. Предпринимательская логистика. СПб.: Политехника, 1997. – с.314

⁵¹ Основы логистики: Учеб. пос./ Под. ред. Л.Б.Миروتина, В.И.Сергеева. – М.: Инфра-М, 2000. – с.177

tashkil etish, talab o'zgarishiga tezkorlik bilan e'tibor qaratish, rejalashtirish nafisligiga erishish orqali amalga oshiriladi.

AQSHda o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, MRP-2 logistik tizimini qo'llash tovar-moddiy zahiralarni o'rtacha 17 foizga qisqartirish, ishlab chiqarish samaradorligini 10 foizga oshirish, xom ashyo va jihozlar sotib olishni 7 foizga kamaytirishga erishilgan. Shu bilan birgalikda, iste'molchilarga taqdim etilayotgan xizmatlar hajmi 16 foiz o'sgan⁵² deb o'z fikrlarini bayon etgan.

Chet el kompaniyalari iste'mol talablarini rejalashtirish uchun yana bir qator tizimlardan foydalanadilar. Ular sirasiga, SDP, LP, DDT va boshqalarni xam ko'rsatib o'tishimiz mumkin

Ko'rinib turibdiki, yuqorida aytib o'tilgan tizimlar xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan tizimlar hisoblanib, qurilish korxonalarida tarmoq xususiyatidan kelib chiqib ushbu logistik tizimlardan foydalanish mumkin. Tadqiqotimiz natijalari va logistika xarajatlarini pasaytirishning optimal usullaridan kelib chiqqan holda qurilish tashkilotlari ta'minotining xarajatlari qatoriga: tranzaksion xarajatlar, xom ashyo va materiyallarni tashib keltirish, tushirish va omborga joylash xarajatlari, ombor xo'jaligini yuritish xarajatlari, TMZlarni omborda saqlash xarajatlari, TMZ, yarim tayyor va yaroqsiz mahsulotlar (ayrim yaroqsiz mahsulotlarni qayta ishlash natijasida tayyor mahsulotga aylantirilishi mumkin)ni ishlab chiqarish bo'linmalariga yetkazib berish xarajatlari kirishini umumlashtira olamiz.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini shakllantirish nafaqat nazariy jihatdan, balki uni shakllangan bozor amaliyotida ham o'rganishni talab etadi. Shuningdek, logistika muomalalari "zahiralarni boshqarish" ko'lamida shakllantirilishi va faoliyat olib borishi zarur hamda uning davomida zahiralarni yetkazib berishning eng yaxshi, maqbul usullarini tanlash lozim. Korxonalarining ta'minot tizimida moddiy aktivlarni xarid qilish va ularni tashib keltirishda ma'lum xarajatlarni amalga oshirishini taqozo etadi. Tashkilot boshqaruvi ta'minot jarayonlarida eng maqbul logistik muomalalardan izchil foydalanishi va shu asosda boshqaruv qarorlarini qabul qilishi maqsadga erishishning samarali yo'lidir.

⁵² Семенов А.И. Предпринимательская логистика. СПб.: Политехника, 1997. – с.314

Qurilish korxonalarida uy-joylarni qurishda moddiy zahiralarni yaratish va boshqarish, qurilish materiyallarini keltirishda transportdan foydalanish, iste'molchiga uy-joy qurish buyurtmasini bajarish xarajatlari va ularga kommunal xizmat ko'rsatish xamda boshqa xarajatlar o'zaro bir-biriga bog'liqdir. Ba'zan qurilish materiyallarni o'z vaqtida yetkazib kelish borasida qo'shimcha xarajatlarni amalga oshirish holatlari yuz bersada, xarajatlarni kamaytirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Zero, uy-joy qurilishi jarayonida to'xtalishlar va uzilishlar yuz berishi natijasida ma'lum bir xarajatlar ortib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun logistika xarajatlarning har bir turi bo'yicha alohida tahliliy amallarni o'tkazish muhimdir.

Shuning uchun, qurilish sohasida logistika xarajatlarini to'g'ri tasniflab olish va shu orqali logistika xarajatlarini samarali boshqarishga erishish mumkin. Quyidagi 1.2.2-jadvalda qurilish korxonalarida logistika xarajatlari tasnifi va ularni hisobga oluvchi schyotlar tartiblari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Demak, logistika xarajatlari bo'yicha alohida sintetik schyotlar qo'llanilmaydi, balki analitik schyotlarda aks ettiriladi, bu esa, hisob tizimida natijalarni jamlash va umumlashtirish jarayonida logistika xarajatlarning alohida natijalarini aniqlab bo'lmaydi, ya'ni umumiy xarajatlarning tarkibida logistika xarajatlari amalga oshirilsada, ularning salmog'ini aniqlash murakkablashadi. Ushbu muammoni yechish uchun logistika xarajatlari hisobi va ularning natijalarini alohida tahliliy amallarni o'tkazishni talab etadi. Umuman olganda, har bir korxonada alohida logistik tahlil o'tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xorijiy tajribalarni tadqiq etishimiz shuni ko'rsatadiki, korxonalarda logistika muomalalarini qo'llash, logistika xarajatlari hisobini olib borishda mutaxassislar doim ikki yondashuvlarga duch keladilar va ayrim murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Tadqiqot ob'ektimiz hisoblangan qurilish korxonalarida logistika xarajatlari hisobini tashkil etishda an'anaviy va logistik qarashlarga tayaniladi.

1.2.2-jadval

Qurilish korxonalarida logistika xarajatlari tasnifi va ularning hisobini yuritish tartibi⁵³

№	Xarajat moddalari	Logistika xarajatlari	Schyotlar nomi
1.	Materiyallarni sotib olish xarajatlari	- tashish xarajatlari: transport tarifi, fraxta, transport xizmatlari xarajatlari; - xizmat safari xarajatlari; - tashish bo'yicha materiyal xarajatlar	1000-"Materiyallar", 1500-"Materiyallarni tayyorlash va sotib olish", 1600-"Materiyallar qiymatidagi og'ishlar"
2.	Tovarlarni sotib olish xarajatlari	- tashish transport xizmatlari; - yuklash-tushirish xarajatlari; - tovar sifati ekspertizasi va tekshiruvlar xarajatlari	2900-"Tovarlar", 1500-"Materiyallarni tayyorlash va sotib olish", 1600-"Materiyallar qiymatidagi og'ishlar"
3.	Ombor xarajatlari	- materiyallarni tashib keltirish va omborga joylash transport xizmatlari; - yuklash-tushirish xarajatlari; - sifat ekspertizasi va tekshiruvlar xarajatlari	1000-"Materiyallar", 1500-"Materiyallarni tayyorlash va sotib olish", 1600-"Materiyallar qiymatidagi og'ishlar"
4.	Materiyallarni ishlab chiqarishga berish xarajatlari	- ish haqi xarajatlari, ijtimoiy soliq; - ombor binolarini dezinfeksiya va deratizatsiya qilish, yoritish, isitish, kanalizatsiya, suv ta'minoti xarajatlari; - ekspluatatsiyaga chiqarish chog'ida hisobdan chiqarilgan xo'jalik buyumlari qiymati; - ombor jihozlari, transport vositalarining ijarasi uchun to'lovlar; - asosiy vositalar amortizatsiyasi, joriy ta'mirlash xarajatlari; - saqlash-chiqarishda o'rovchi va materiyallar sarfi; - xodimlarning xizmat safarlari xarajatlari; - idish va idish materiyallari bo'yicha xarajatlar; - mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi xarajatlari; - yong'inga qarshi tadbirlar bo'yicha xarajatlar; - ombor ishchilariga beriladigan mahsus kiyim-bosh qiymatini qoplash.	1000-"Materiyallar", 2300-"Yordamchi ishlab chiqarish", 2500-"Umumishlab chiqarish xarajatlari"
5.	Ombordagi noishlab chiqarish xarajatlar	- tashish va saqlashda tabiiy zarar me'yorlari doirasida bo'lgan materiyallar kamomadi; - materiyallarning tabiiy yo'qotish me'yoridan ortiqcha kamomadi va buzilishi, sinish natijasida yo'qotishlar.	1000-"Materiyallar", 5900-"Kamomadlar va qimmatliklarni shikastlashdan talofatlar", 9430-"Boshqa operatsion xarajatlar"
6.	Ishlab chiqarishdagi tashish-ko'chirish xarajatlari	- ishlab chiqarishdagi tashish-ko'chirish xarajatlari; - materiyallarni oz muddat saqlash xarajatlari; - ishlab chiqarishdagi materiyallar ta'minoti xarajatlari.	2000-"Asosiy ishlab chiqarish", 2300-"Yordamchi ishlab chiqarish", 2500-"Umumishlab chiqarish xarajatlari"
7.	Tayyor mahsulot va tovarlarni omborlarga chiqarish va omborlarni saqlash xarajatlari	- tayyor mahsulot va tovarlarni tayyor mahsulot omborlariga tashish-ko'chirish xarajatlari; - tayyor mahsulot va tovarlarni tushirish va joylash xarajatlari; - tayyor mahsulot omborlarini saqlash xarajatlari.	2800-"Tayyor mahsulot", 2900-"Tovarlar"
8.	Tayyor mahsulot va tovarlarni xaridorlarga yetkazish xarajatlari	- xaridorlarga tayyor mahsulot va tovarlarni yetkazib berish xarajatlari; - tayyor mahsulot va tovarlarni xaridorlarning omborlariga tushirish-joylash xarajatlari.	2800-"Tayyor mahsulot", 2900-"Tovarlar"

⁵³ Муаллиф томонидан тузилган

Aytmoqchimizki, raqobat darajasi yuqori bo‘lgan iqtisodiyotda logistik qarashlar ustuvor hisoblanadi, undan tashqari xarajatlarni qisqartirishda logistika muomalalaridan foydalanib, ortiqcha zahiralardan voz kechish, vaqtni sababsiz yo‘qotishga yo‘l qo‘ymaslik va boshqa muomalalar orqali korxonalar raqobatbardoshligi va moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini to‘liq ta‘minlash mumkin, deb hisoblaymiz.

Tadqiqotlarimizga ko‘ra, qurilish korxonalarida uy-joylarni qurish jarayonlariga nisbatan an’anaviy va logistik yondashuvni quyidagicha tahlili amalga oshirildi (1.2.3-jadval).

1.2.3-jadval

Qurilish korxonalarida uy-joy qurish jarayoniga nisbatan an’anaviy va logistik qarashlarning qiyosiy tahlili⁵⁴

№	Ko‘rsatkichlar	Qurilish korxonalarida		Erihiladigan maqsad
		An’anaviy qarashlar	Logistik qarashlar	
1.	Qurilish materiallari zahirasi	Doimiy zahiraga ega bo‘lish	Zahiralardan voz kechiladi	Logistik tizim qo‘llanilishi natijasida ortiqcha zaxiralar yaratilmaydi
2.	Uy-joy qurishga sarflangan vaqt	Uy-joylarni tez vaqt mobaynida qurib topshirish	Uy-joyning har bir qismi qurilishiga me‘yor va standartlarga amal qilish talab etiladi	Qurilishning xar bir jarayoni tegishli nazoratdan o‘tkaziladi
3.	Qurilayotgan uy-joy sifati	Sifat birinchi darajaga qo‘yilmaydi	Yuqori darajada sifatli uy-joy qurilishiga erishiladi	Sifatli uy-joyga bo‘lgan talab ortishi natijasida Davlat standartlariga mosligi ta‘minlanadi
4.	Qurilish jarayonini sababsiz to‘xtab qolishi	Mumkin bo‘lgan holat deb qaraladi	Qurilish jarayoni sababsiz to‘xtab qolishi mumkin emas	Logistik tizimning samarali usullarini qo‘llash natijasida ta‘minotda to‘xtalishlar oldi olinadi
5.	Uy-joy qurilishiga sarflanayotgan qurilish materiallari sifati	Odatda sifatga emas, miqdoriga qaraladi	Sifatsiz qurilish materiallaridan foydalanmaslikka erishiladi	Sifatga bo‘lgan e‘tibor natijasida sifatsiz qurilish materiallaridan voz kechiladi
6.	Qurilish materiallarini yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar	Qurilish materiallarini o‘z vaqtida yetkazib bersa va buyurtmani to‘liq bajarib bersa bo‘ldi, deb qaraladi	Ishonchli va hamkor deb qaraladi	Mol yetkazib beruvchilarning optimal varianti tanlanadi. Zarur bo‘lsa zaxira variantlaridan foydalaniladi

⁵⁴Муаллиф томонидан тузилган

Qurilish tashkilotlarining ta'minot jarayoni logistika xarajatlari hisobini yuritish va ularni samarali boshqarishda quyidagilarni qo'llashni tavsiya etamiz:

1. Loyihalarni rejalashtirish, tayyorlash va ular bo'yicha tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishda logistika muomalalarni hisobga olish.

2. Qurilish ta'minoti loyiha va jarayonlarini optimal boshqarish uchun logistik tafakkurni shakllantirish o'qish kurslarni tashkil etish.

3. Hisobda alohida logistik tahliliy amallarni o'tkazish va logistika xarajatlarini hisobga olishda zamonaviy usullarni qo'llash.

4. Qurilish korxonalariga alohida logistika bo'yicha mutaxassislarni jalb etish.

5. Umumiy xarajatlar tarkibida logistika xarajatlari salmog'i va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni keng qo'llash.

6. Kommunal xizmat ko'rsatish narxlari va tariflari barqarorligiga erishishda logistika xarajatlari boshqaruv hisobini joriy etish.

Ana shunga ko'ra, qurilish korxonalarida logistika xarajatlari hisobini doimiy olib borish va logistik muomalalardan keng foydalanish orqali sohada uy-joy qurish va buyurtmalarni o'z vaqtida sifatli bajarilishiga erishish mumkinligi asoslab berildi, bunda qurilish korxonalar hisob tizimida logistika xarajatlari hisobi va tahlilini alohida olib borish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

1.3-§. Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini tashkil qilish asoslari

Ma'lumki, korxonani tashkil qilish va uning tashkiliy tuzilishining dastlabki bosqichida korxonaning logistika xizmatini xam shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuning zamirida korxonada ta'minotchilarni tanlash, korxonada omborini maqsadga muvofiq ishlatish, tayyor mahsulotni sotish va boshqa shu kabi logistika muomalalarini tashkil etuvchi yuqori malakali xodimlarni tanlab olish muhimdir. Ushbu tadbirlar korxonada samarali va mukammal ishlaydigan logistika tizimning yaratilishining asosini tashkil etadi. Ko'pgina hollarda qurilish korxonalarida logistik tizimning yo'qligi yoki samarasiz ishlashi natijasida korxonalarining ma'lum mutaxassislari tomonidan asossiz va bir qator noto'g'ri

hisob-kitoblari amalga oshirishiladi. Bu bir qator salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Jumladan, material, moliyaviy va axborot oqimlari xarakati sekinlashadi, shuningdek, mavjud logistika tizimining imkoniyatlari pasayib ketadi va logistika xarajatlarining ortishi va tayyor mahsulotni sotish, foyda olish darajasining pasayishi kuzatilish mumkin. Odatda ushbu xolatlar logistikaning ta'minot, ishlab chiqarish, sotish va tarqatish uchun mas'ul bo'lgan xodimlarning o'zaro bog'liklikdagi harakatlarida munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, korxonalarining logistika xizmati tashqi muhitning dinamik, o'zgarishlariga tezda javob bera oliishi kerak. Xozirgi yuqori raqobatbardoshlik muhitida qurilish korxonalari samarali faoliyat yuritishining muhim jihatlaridan biri bu korxonada yaxshi tashkil etilgan ta'minot jarayoni va logistika xizmatidir. Shuningdek, korxonalar logistikasining puxta ishlab chiqilgan strategik rejalashtirilishidir

Shuning uchun korxonalarda logistika xarajatlari, jumladan, ta'minot jarayonining logistika xarajatlari auditini o'tkazish muxim bosqich sifatida qaraladi. Auditni o'tkazish uchun amaldagi qonunchilik tizimiga asosan me'yoriy tartibga solish bosqichlari ta'minot auditining me'yoriy asoslari sifatida ko'riladi.

O'zbekiston Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimida O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi 677-sonli "Auditorlik faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni asosiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun 9 ta bob, 55 ta moddadan iborat bo'lib, unda quyidagilar ya'ni "audit asosiy tamoyillari, auditorlik sohasidagi vakolatli davlat organlari va ularning auditdagi vazifasi, auditorlik sertifikatini olish va bekor qilish tartiblari, auditorlik tekshiruvlari, auditorlik tashkilotlari va mijoz korxonalar, tashkilotlarning auditdagi huquq va majburiyatlari, auditning turdosh xizmatlari, auditning tashqi va ichki sifat nazoratlari to'g'risida batafsil yoritib berilgan"⁵⁵

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni. (yangi tahrir) O'RQ-677-son 25.02.2021-y. <https://lex.uz/docs/-5307886?ONDATE=14.03.2022>.

Mazkur Qonuni amalga oshirish va samarali ishlashi uchun hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosini ta'minlash ham muhim vazifa sifatida bajarilishi lozim.

Respublikamizda auditorlik faoliyatini tartibga solishda keyingi pog'onada turuvchi yana bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5210-son qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-maydagi "Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 280-sonli, 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risida"gi 171-son qarori, 2022-yil 28-sentabrdagi "Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risidagi" 538-sonli qarorlarini Auditning xalqaro standartlari va boshqa noramativ-huquqiy hujjatlarni misol qilsak bo'ladi.

Auditorlik firmalari o'z faoliyatlarini amalga oshirishda belgilangan Auditorlik standartlariga doimiy rioya qilish shartdir. Bu o'tkazilgan audit tekshiruvining sifatini va uning natijalari barcha uchun ishonchliligini kafolatlashning yagona yo'li hisoblanadi.

Uchinchi asosiy hujjat – standartlarni tadbiq qilish uchun zarur hujjatlar to'plami, ya'ni auditorlik tashkilotining ichki ishchi standartlaridir.

Ushbu hujjatlar auditorlik faoliyatida audit standartlarni qo'llash va standartlar asosida auditorlik faoliyatini tashkil etishga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Yana shuni xam alohida ta'kidlash joizki, auditorlik tashkilotlari bilan auditorlik tekshiruvi o'tkaziluvchi mijoz-korxonalar o'rtasidagi munosabatlar

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq belgilangan shartnomada keltirilgan shartlar asosida amalga oshiriladi.

Ma’lumki, auditorlik tashkiloti va mijoz korxonada o‘rtasida tuziladigan auditorlik xizmati ko‘rsatish shartnomasida audit predmeti, xizmat ko‘rsatish joyi, haq to‘lash hajmi va tartibi, tomonlarning javobgarligi o‘z o‘z aksini topadi. Ushbu shartnomada belgilangan shartlar va topshiriqlar mazmuni O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga zid bo‘lmasligi lozim.

Qurilish korxonalarida ta’minot jarayoni logistika xarajatlari auditining tashkiliy-uslubiy jihatlari - bu qurilish korxonasida ta’minot jarayonini tashkil etish va uni hisobga olish bilan bog‘liq jarayonlarni tizimli hamda aniq tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan tartib-taomillar to‘plami. Ta’minot jarayoni logistika xarajatlari auditining tashkiliy-uslubiy jihatlari ta’minot bilan bog‘liq logistika jarayonlarini samarali boshqarish va materiallarni saqlanishi xamda sarflanishini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Ular auditning to‘g‘riligi va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlashga yordam beradi, shuningdek, nafaqat ta’minot jarayoni balki, ishlab chiqarish va sotish sohasida xam boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma’lumot beradi.

Logistika auditi haqida G.G. Levkin o‘z qarashlarini “Korxonada rahbariyati logistika sohasida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil ravishda hal qila olmasa, ular logistika auditini o‘tkazish uchun tashqi maslahatchilar xizmatiga murojaat qilishadi. Auditning maqsadi korxonaning ta’minot tizimidagi yashirin muammolarini topish, ularni hal qilishning mumkin bo‘lgan usullarini aniqlash va korxonaning logistika tizimini optimallashtirish uchun ishlab chiqilgan usullarni amalga oshirishdir”⁵⁶ deb aytib o‘tgan.

Shuningdek, I.T.Balabanov xam “Korxonada transport va logistika jarayonlarini takomillashtirish, ta’minot zanjirlarini optimallashtirish asosida tashkilotning samaradorligini oshirish muammosi jahon iqtisodiyotining hozirgi davrida eng dolzarb masalalardan biridir. Korxonalar xarajatlarni kamaytirishning har qanday usullarini izlaydilar. Ushbu vositalardan biri logistika auditi bo‘lib, u

⁵⁶Левкин Г.Г. Логистика: теория и практика / Г.Г.Левкин. – Ростов н/Д: Феникс, 2009. – С. 221


korxonaning zaif tomonlarini topish va logistika tizimining tarkibiy qismlarini baholash, uning samaradorligi va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi"⁵⁷ deb logistika auditi xaqidagi qarashlarini bayon etgan.

Barcha turdagi korxonalarda buxgalteriya hisobi yuritilishi amaldagi qonun-qoidalarga muvofiq tashkil etilishini o'rganish maqsadida auditorlik faoliyatiga ehtiyoj seziladi. Auditorlik faoliyati juda qadimgi faoliyat turlaridan hisoblanib, taraqqiyotning turli bosqichlarida ma'lum bir tuzumning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilgan. Audit tushunchasining tub lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratsak, lotinchadan olingan bo'lib "eshitadi", "eshitaman" degan ma'nolarni beradi. Hozirgi vaqtdagi rivojlangan audit tushunchasi o'tgan asrlardagi sanoat inqilobidan so'ng paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Auditning rivojlanishi asosiy sabablari sifatida mulkdorlar va boshqaruvchi shaxslar tushunchasining korxonalarining tashkiliy tuzulmasida paydo bo'lishi xamda iqtisodiy jarayonlarning kengayishi bilan bog'liq deb hisoblashimiz mumkin. Audit faoliyatini o'rganish bilan bog'liq manbalardan ko'rishimiz mumkinki, u bir necha rivojlanish bosqichlarini o'tgan. Jumladan, auditning dastlabki bosqichi tasdiqlovchi audit deb atalgan bo'lib, ma'lumotlarning ishonchligi yoki ishonchli emasligi bo'yicha xulosa berishga asoslangan. Maqsadli sistemali audit bu ikkinchi bosqich bo'lib, unda aniq bir tizim asosida audit amalga oshirilgan. Oxirgi bosqichi bu tavakkalchilikka asoslangan audit bo'lib, unda auditorlik tekshiruvlari ma'lum tavakkalchilik (riskka) asoslangan holda o'tkazilgan.

Iqtisodiyotning globallashtirish davrida jaxonda ro'y berayotgan voqea hodisalar jadallik bilan rivojlanayotgan bir vaqtda audit sohasi ham shunga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Audit faoliyatining ko'lami kengayib uning yangidan yangi turlari paydo bo'lmoqda.

Qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditi o'tkazish bosqichlarini quyidagich aks ettiramiz (1.3.1-rasm).

⁵⁷ Балабанов И.Т. Интерактивный бизнес. – СПб.: Питер, 2010. – 185 с.



1.3.1-rasm. Qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni auditni o'tkazish bosqichlari⁵⁸.

Qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditining maqsad va vazifalarini belgilash. Ushbu bosqichda ta'minot jarayonida materiallarni hisobga olish, mavjud logistika tizimining samaradorligini baholash, materiallar sifati va saqlanishi xavfsizlik qoidalariga javob berishini o'rganish va ta'minot jarayonining zaif tomonlarni aniqlash kabi audit maqsadlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari audit rejasini ishlab chiqish. Bu bosqich juda muhim bosqichlardan biri hisoblanib unda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish usullari va tartiblarini belgilab olinadi, tahlil qilish uchun ma'lumotlar yig'ish, ichki nazorat tizimining samarali ishlashini baholash va auditni o'tkazish uchun ma'sullar belgilanadi.

Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini o'tkazish. Bu bosqich ta'minot jarayoni amalga oshirilishi, logistik tizimning maqsadga muvofiq tashkil etilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, shuningdek, ta'minot jarayoniga

⁵⁸ Муаллиф томонидан тузилган

va logistika xarajatlariga tegishli yozuvlar va hujjatlarni o'rganishni o'z ichiga olishi mumkin.

Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditi natijalarini tahlil qilish. Bunga ta'minot jarayoni va logistika xarajatlarini hisobga olish tizimining samaradorligini baholash, ta'minot jarayonidagi muammolar va uning zaif tomonlarini aniqlash, xavflarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif xamda tavsiyalar ishlab chiqish kiradi.

Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditi natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash. Ta'minot jarayonini hisobga olish xamda logistik tizimni takomillashtirish bo'yicha natijalar va tavsiyalar tahlilini o'z ichiga olgan batafsil audit hisobotini tayyorlash kiradi.

Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditi bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarning bajarilishini monitoring va nazorat qilish. Bu bosqich audit hisobotida taklif qilingan tavsiyalarning bajarilishini monitoring va nazorat qilish tizimini yaratishni o'z ichiga oladi.

Auditga oid iqtisodiy manbalarni o'rganish asosida auditning ta'rifiga oydinlik kiritish mumkin. Shuningdek, logistika auditi xaqidagi fikrlarni jamlash xamda uning odatiy tarzidagi auditdan farqli tomonlarini shakllantirish uchun auditning ta'rifini o'rganish muhim sanaladi. Xozirgi kunda audit tushunchasining eng keng tarqalgan ta'riflaridan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, audit sub'ektning iqtisodiy xarakatlari asosida vujudga kelayotgan jarayonlar xamda xodisalar xaqidagi xaqqoniy ma'lumotlarini belgilangan mezonlarga mosligini o'rganish va xulosalar berish xamda uning natijalariga qiziquvchilarga taqdim etishning tizimli jarayonidir deb atashimiz mumkin.

Logistika auditi xaqida M.M.Ardatova "tadqiqot, diagnostika, o'rganish atamaları sinonim so'zlar sifatida ishlatilishi mumkin. Bundan logistika auditini "ta'minot zanjiri bo'ylab korxonaning tijorat faoliyatini olish va baholashning tizimli jarayoni" deb ta'riflash mumkin, boshqacha qilib aytganda, logistika auditi mustaqil ekspert tomonidan olib boriladigan korxonaning ta'minot zanjirining barcha jihatlarini jumladan, yetkazib beruvchilar va mijozlar bilan munosabatlar,

rejalashtirish, protseduralar, ish jarayoni, logistika infratuzilmasi, sifat nazorati, logistika xarajatlarini mahalliy bozor sharoitlariga moslashtirish xolis baholashdir⁵⁹ deb ta'rif bergan.

Xozirgi keng ko'lamli iqtisodiy integratsiyalashuv va rivojlanish sharoitida qurilish korxonalarida xam manfaatdor tomonlarning qiziqishini inobatga olib, yuqori malakali logistika yo'nalishidagi auditorlarni korxonaning logistika tuzilmasidagi asosiy lavozimlarga kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu albatta korxonada ta'minot jarayonlarining ijobiy tashkil etilishini, logistik tizimning samarali ishlashi va logistika xarajatlarini minimallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlarini o'tkazishda uning moliyaviy auditdan farqli tomonlarini ajratib olish muhimdir. Logistika auditi korxonaga mavjud logistika tizimini samarali ishlashini ta'minlash va uni takomillashtirishga qaratilgan asosli qaror qabul qilish uchun zarur xolis va to'liq ma'lumotlarni taqdim etishi lozim. Shuningdek, auditorlar tomonidan o'tkaziladigan odatiy moliyaviy auditdan yana bir farqi shundaki, ushbu faoliyatga logistik tizim bilan bog'liq mijozning boshqa mutaxassilari xam jalb etilishi mumkin.

Ma'lumki, logistika auditi xam ma'lum tamoyillar asosida o'tkaziladi. Bu borada rus olimlaridan G.G.Levkin o'z qarashlarini "Logistika auditining asosiy prinsipi umumiydan xususiyyga o'tishdir: global maqsadlar va operatsion faoliyat ko'rsatkichlaridan past samaradorlik, mahsuldorlik va foydalanilmagan imkoniyatlar sabablariga to'xtalib, shundan keyingina - tanlangan faoliyat yo'nalishlarini batafsil o'rganishga kirishishdir. Ushbu prinsipga muvofiq korxonaning logistikaga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yoki aksincha, logistika ta'sir qilishi mumkin bo'lgan amaldagi strategiyasi va maqsadlari o'rganiladi. Buning uchun korporativ missiya, uni ishlab chiqarish, marketing va xarid qilish strategiyasi tahlil qilinadi. Auditning maqsadi korxonaning logistika tizimi faoliyatini baholash

⁵⁹Ардатова М.М. Логистика в вопросах и ответах. Учебное пособие. – М.: Проспект, 2009. – 272 с.

uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazasini yaratishdir⁶⁰ deb bayon etgan.

Qurilish korxonalarini ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditi davomida quyidagilar aniqlanadi:

- qurilish korxonasi ta'minot bilan bog'liq jarayonlaridagi xato va kamchiliklar;

- qurilish korxonasidagi mavjud logistika tizimining ijobiy va salbiy tomonlari;

- xom-ashyo va materiallardan foydalanishdagi nobudgarchilik holatlari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari;

- logistika xarajatalarini kamaytirish yo'llari;

- qurilish ob'ektlarining sifati va korxonalarining raqobatbardoshlik darajasi;

- qurilish korxonasi faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari;

Auditor audit jarayonida qurilish korxonasi ta'minot bilan bog'liq jarayonlaridagi xato va kamchiliklarni aniqlashda mol yetkazib beruvchilar bilan olib borilgan muomalalarni hujjatlashtirilishi, xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya uzatmalarida to'g'ri aks ettirilishiga, shuningdek, tuzilgan shartnomalarning rasmiylashtirilishi xamda shartnoma shartlarining bajarilishi xolatlariga e'tibor qaratmog'i zarur. Albatta bunda auditor ichki nazorat tizimining xolatiga xam baho berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni aniqlash vaqtida auditor turli usullardan foydalanishi mumkin. Aniqlangan xato va kamchiliklar yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Qurilish korxonasidagi mavjud logistika tizimining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashda korxonadagi logistik tizimning ishlash xolati, tizimni samarali boshqarilish va nazorati xolatlari o'rganib chiqiladi hamda baho beriladi. Logistik tizim ta'siri ostida amalga oshirilgan ishlarga baho beriladi. Bunda albatta quyidagilarga jumladan, ta'minotchilar bilan tuzilgan shartnomalarning maqsadga muvofiqligi, ularning mavqei, joylashgan joyi, ombor xo'jaligining ishlashi, logistik

⁶⁰Левкин Г.Г. Логистика: теория и практика / Г.Г.Левкин. – Ростов н/Д: Феникс, 2009. – С. 221

tizim xodimlarining malakasi, boshqaruv qarorlari kabi masalalarni o'rganib chiqiladi va shu asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Xom-ashyo va materiallardan foydalanishdagi nobudgarchilik holatlari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda ombor xo'jaligining tashkil etilish xolati, ishlab chiqarish zaxiralarini saqlanish sharoitlari, ularning ishlab chiqarish berilish me'yorlari va to'g'ri sarflanishi kabi xolatlarini o'rganib chiqiladi. Shuningdek, ulardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Logistika xarajatalarini kamaytirish yo'llarini aniqlashda qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlarini quyidagi uch turi ya'ni, qurilish materiallarini sotib olish va keltirish xarajatlari, qurilish materiallarini omborda saqlash xarajatlari va qurilish materiallarini qurilish jarayoniga sarflash xarajatlariga e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Keltirib o'tilgan xarajatlar turlari bo'yicha ularni kamaytirish chora-tadbirlar belgilab olinadi.

Qurilish obe'ktlarining sifati va korxonalarining raqobatbardoshlik darajasini o'rganishda esa korxonadan qurilgan ob'ektlarni bevosita ko'rish, uning sifat darajasi belgilangan talablar javob berish yoki bermaslik xolatlarini o'rganiladi va baho beriladi. Albatta sifat birinchi o'rinda turuvchi masalalardan biri hisoblanadi. Xozirgi sharoitda korxonaning raqobatbardoshligini belgilashda ushbu omil muhim sanaladi.

Yuqoridagi xolatlar o'rganib chiqilgandan so'ng qurilish korxonasi faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari o'rganib chiqiladi va kerakli tavsiyalar ishlab beriladi

Logistika auditining maqsadi qurilish korxonasidagi ta'minot zanjirining tashkil etilishi, unda sodir etilayotgan jarayonlarni hisobda to'g'ri aks ettirilishi, logistik tizimining ishlash xolati, xodimlarni boshqarish va ma'lum ko'rsatkichlarni aniqlashdan iboratdir. Auditor tomonidan audit yakunida taqdim etiladigan hisobot ko'rsatib o'tilgan jarayonlar va tegishli ko'rsatkichlar xolatini ifodalaydi. Shuningdek, ta'minot zanjirini samarali ishlashi uchun aniq tavsiyalar to'plamini taqdim etadi.

M.M.Ardatova o‘zining tadqiqotlarida “Logistika auditi uchun ma’lumotlarni yig‘ish tegishli hujjatlarni batafsil tahlil qilish va korxonada logistika tizimining yetakchi xodimlar bilan suhbatdan iborat. Ushbu ma’lumotlar keyingi protseduralarni o‘tkazish va logistik tizimning zaif tomonlarini aniqlash bo‘yicha birinchi xulosalar uchun asosdir. Mutaxassislar korxonaning asosiy menejerlari bilan uchrashuvlarni rejalashtiradilar. Ushbu uchrashuvlar odatda taxminan 45 daqiqa davom etadi, ular davomida korxonadagi turli xil biznes-jarayonlar oqimining tafsilotlari aniqlanadi. Ushbu intervyularning maqsadi ta’minot zanjirlaridagi barcha jarayonlarni ular kabi tasvirlashdir. Har bir intervyuda “istak” savoli ham mavjud bo‘lib, u orqali xodimdan mavjud ta’minot zanjirini boshqarish jarayonida nimani o‘zgartirishni xohlashi so‘raladi⁶¹ deb aytib o‘tgan.

Auditor audit jarayonida standartlarda belgilangan tartib qoidalar asosida xarakter qiladi. Audit uchun ma’lumotlar yig‘ishda auditor turli usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, yuqorida aytib o‘tganimizdek audit jarayoniga jalb etilgan mutaxassislar yuqoridagi suhbat o‘tkazilishi mumkin. Suhbat davomida jalb etilgan mutaxassislarning ta’minot jarayonidagi tegishli vazifalari, ta’minot zanjirini boshqarish bilan bog‘liq majburiyatlari va logistik tizimni tashkil etish xamda boshqarish uchun bilim darajalari muhokama qilinadi.

Suhbat davomida olib boriladigan savollar tuzib chiqiladi va u bir-biridan farq qilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, suhbat o‘tkazish usullari ta’minot tizimi va ko‘rsatkichlar bo‘yicha javob olishga qaratilishi lozim.

Auditor korxonadagi mavjud vaziyat haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lishi uchun logistika auditiga bo‘lgan talabani va korxonada haqidagi ma’lumotlarni yig‘ishga e’tibor qaratish lozim. Belgilangan reja asosida auditning dastlab bosqichida korxonada xodimlari bilan o‘tkazilgan suhbatlar asosida ko‘proq ma’lumotlar yig‘iladi xamda ushbu ma’lumotlar qayta ishlanadi. Bu esa audit bo‘yicha chiqariladigan xulosaning sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Suhbatlarni tashkil etishda albatta belgilangan vaqtga xamda uning samaradorligiga erishish maqsadga muvofiqdir.

⁶¹Ардатова М. М. Логистика в вопросах и ответах. Учебное пособие. – М.: Проспект, 2009. – 272 с.

Suhbatlar xar doim xam samarali bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun o‘tkaziladigan suhbatlar sifati va samaradorligi auditorlar malaka darajasi va uning kasb mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Shuni yodda tutish kerakki, korxonaning noaniq tashkiliy tuzilmasi bilan hujjatlar va ma‘lumotlarni to‘plash yetarli darajada samarali bo‘lmasligi mumkin. Aniqlangan dastlabki ma‘lumotlar yordamida qurilish korxonasining maqsad va vazifalari o‘rganib chiqiladi hamda tahlil qilinadi. Auditning asosiy maqsadi logistika xarajatlarini kamaytirish orqali foydani oshirish bo‘yicha tavsiyalar berishdan iboratdir. Shuning uchun audit jarayonida korxonaning rivojlanish strategiyalarini xam tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qurilish korxonalarida auditida ta‘minot jarayoni va logistika xarajatlari auditi o‘ziga xos o‘ringa egadir. Shu bilan birgalikda qurilish korxonalarida auditi boshqa tarmoq korxonalarida bilan o‘tkaziladigan auditdan bir qancha jihatlari bilan farq qilishi mumkin. Jumladan, materiallarni hisobga olishni tekshirish, ularni saqlanishi holatini va sarflanishini tekshirish, tannarxni aniqlanish va uni tekshirish, qurilayotgan ob‘ektlarning sifatini nazorat qilish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Auditor ta‘minot jarayoni logistika xarajatlari auditida logistika xarajatlarini o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, albatta qurilish ishlarining sifatiga, uning xalqaro sifat standartlari talablariga javob berishiga ham alohida e‘tibor qaratishi lozim deb o‘ylaymiz.

Hozirgi kunda mamlakatimizda auditning xalqaro standartlarini qo‘llash bo‘yicha tegishli choralar ko‘rib kelinmoqda. Shuning uchun, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlaridan biri bu auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari hisoblanadi. Shuni inobatga olib qurilish korxonalarida auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish, o‘tkazish va hisobot tayyorlash muhim hisoblanadi.

I bob bo‘yicha xulosa

Bozor iqtisodiyoti sharoitida logistika xarajatlari metodologik asoslarini chuqur tadqiq etib, biz tomonimizdan quyidagi xulosalar berildi:

1. Ilmiy izlanishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, logistikada material oqim, axborot oqimi va moliyaviy oqimlarni har bir turi bo'yicha boshqarish o'ta muhim hisoblanib, ularni bir-biridan ajratish maqsadga muvofiq emas. Logistika tushunchasiga ta'rif berishda fikrlar va terminologiya hilma-hilligidan kelib chiqqan holda bizning fikrimizcha logistika xarajatlari "xaridlarni amalga oshirishda mahsulot yetkazib berish (ish, xizmat bajarish) jarayonlari, ya'ni ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida moddiy qiymatliklarni sotib olish, tashish-ko'chirish, tushirish, joylash va saqlashgacha bo'lgan umumiy xarajatlardir. Logistika xarajatlari hisobi esa, ushbu xarajatlarni hisob shoyotlarida aks ettirish, ularga doir muomalalarni hisobga olish va buxgalteriya hujjatlarini yuritishdir.

2. Logistikaning quyidagi umumiy vazifalari mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llanilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- qurilish sohasining ta'minot jarayonidagi logistika xarajatlarini prognozlashni takomillashtirish;

- qurilish sohasining ta'minot jarayonida logistika xarajatlari iqtisodiy jihatdan ahamiyatli ekanligini chuqur his qilgan holda ularni strategik rejalashtirish, ularni katta qurilishlar biznes-rejasi asosiga kiritish;

- qurilish va uning ta'minoti sohasidagi logistik operatsiyalar orqali tashib keltiriluvchi mahsulot (ish, xizmat) sifatini nazorat qilishni kuchaytirish;

- qurilish ta'minoti logistik zanjirida optimal va chegirmali mol yetkazib beruvchilarni tanlash;

- xom ashyo va materiallarni tashib keltirish yo'llari va transport turlarini aniqlash hamda tanlash;

- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish;

- ombor xo'jaligi holatini baholash va boshqarish;

- tayyor mahsulotni aniq muddatlarda yetkazib berish va taqsimlashni boshqarish.

II BOB. QURILISH KORXONALARI TA'MINOT JARAYONI LOGISTIKA XARAJATLARI HISOBI AMALIYOTI

2.1-§. Ta'minot jarayonida saqlash (ombor) xarajatlarini hisobga olish tartibi

Iqtisodiyotning rivojlanishi, aholining o'sish sur'ati tezlashgan davrda qurilish sohasining faoliyat darajasi o'sib bormoqda. Bu esa qurilish korxonalarida ta'minot jarayonini mukammal darajada tashkil etishni talab qiladi. Qurilish korxonalarida ta'minot jarayonida ishlab chiqarish faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy resurslarni jalb etadilar. Ushbu jarayonda korxonalar o'z ehtiyojlarini ta'minlash uchun turli ko'rinishdagi aktivlarni ya'ni, nomoddiy aktivlar, asosiy vositalar, materiyallar va boshqa aktivlarni sotib oladilar.

Ma'lumki, buxgalteriya hisobida sotib olingan aktivlarning kirimi olingan aktivlarning sotib olish qiymatiga ularni sotib olish jarayonidagi xarajatlar, shuningdek sotib olingan aktivlarni foydalanishga qadar yaroqli holatga keltirish uchun sarflangan boshqa xarajatlarni qo'shgan xolda tashkil topgan haqiqiy tannarx asosida aks ettiriladi. Qurilish korxonalarida ta'minot jarayonining asosiy qismini qurilish materiyallarini sotib olish tashkil etadi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz amalga oshirish uchun doimo talab qilinadi va qurilish ob'ektlarining moddiy asosini tashkil qiladi. Materiyallar "zahiralalar" deb ataladigan vositalarning bir qismidir.

Qurilish korxonalarida ishlab chiqarish zahiralalar korxonaning aylanma mablag'larini ifodalaydi, ularni ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga qurilish ob'ektlarini qurish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun mo'ljallangan qurilish materiyallari, shuningdek korxonaning umumiy ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan materiyallar kiradi.

Ikkinchi guruhga sotish uchun mo'ljallangan mablag'lar, ya'ni, korxonalar ishlab chiqargan tayyor mahsulotlar va savdoni tashkil qilishda ishlatiladigan tovarlar xamda o'z ehtiyojlaridan ortiqcha materiallar kiradi.

Qurilish korxonalarida sotib olingan qurilish materiyallarning haqiqiy tannarxiga materiyallarni sotib olish xarajatlari va ularni olib kelish bilan bog'liq

bo‘lgan transport-xarid xarajatlari (TXX) kiritiladi. Materiyallarni sotib olish bilan bog‘liq transport va xarid xarajatlariga quyidagi xarajatlar kiritiladi:

- bojxona bojlari va yig‘imlari;
- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan soliq va yig‘imlar summalari (agar ular qoplanmasa);
- tovar-moddiy zaxiralar ular orqali xarid qilingan ta‘minotchi va vositachi tashkilotlarga to‘lanadigan vositachilik haqi;
- tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash va ularni tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo‘yicha xarajatlar;
- tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo‘yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari, tovar-moddiy zaxiralarni barcha turdagi transport bilan ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga tashish uchun tariflar (fraxt)ni to‘lash bo‘yicha xarajatlar, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralarni tashishda xatarlarni sug‘urtalash bo‘yicha xarajatlardan tashkil topadi;
- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar.⁶²

Ba‘zi tarmoqlarda transport va xarid xarajatlari sotib olingan materiyallar narxining 50 foizgacha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yetkazib berish shartnomalarida materiyallarga transport xarajatlari uchun to‘lov shakllari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Korxonalarda sotib olinayotgan resurslarning sotib olish bilan bog‘liq transport xarajatlarini bo‘yicha hisob-kitoblarning bir necha usullaridan foydalanish mumkin. Masalan, sotib olingan resurlar uchun transport xarajatlarini yetkazib beruvchining o‘zi yoki xaridorning o‘zi xarajatlarini to‘liq qoplashi mumkin. Shuningdek, yetkazib beruvchining o‘zi xarajatlarning ma‘lum qismini qoplashi xamda xaridorning o‘zi tomonidan qisman qoplanishi kabilar bo‘lishi mumkin.

⁶² 4-son BHMS “Tovar-moddiy” zaxiralar 5, 3-band <https://lex.uz/docs/-4890446? ONDATE=28.07.2021%2000>

Amaliyotda transpor xarajatlarini kim tomonidan qoplanishiga bog‘liq xolda sotib olinadigan materiyallarning to‘rtta asosiy narxi mavjud:

“Xaridorning ombori” – bu usulda sotib olingan resurslar uchun yetkazib berish bilan bog‘liq barcha xarajatlari sotib oliuvchi xaridor tomonidan qoplanadi;

“Bepul vagon, jo‘natuvchi stansiyasi” – sotib olingan resurslarni jo‘natiladigan stansiyaga yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar ta‘minotchining zimmasida bo‘ladi. Materiallarni yetkazib berishdagi qolgan xarajatlar sotib oluvchi tomonidan qoplanadi;

“Bepul tashish, xaridor stansiyasi” – manzilga yetkazib berish xarajatlari yetkazib beruvchining zimmasida, yetkazib berishning qolgan qismi xaridor tomonidan to‘lanadi;

“Yetkazib beruvchining ombori” – materiallarni yetkazib berish bilan bog‘lik barcha xarajatlari yetkazib beruvchining zimmasiga tushadi.

Qurilish korxonalarida materiallarni sotib olish ta‘minotchi bilan tuzilgan shartnoma asosida olib boriladi. Shartnomada yetkazib berish xarajatlarini qoplash bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish shakllari muhokama qilinadi. Korxonalar materiyallarni mol yetkazib beruvchilardan, boshqa yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan sotib olishlari mumkin. Naqd va naqdsiz to‘lovlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonada amalga oshirilishi mumkin va hokazo. Materiyallar ishlab chiqarish uchun hisobdan chiqarilganda, tashish va sotib olish xarajatlari, shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlariga yetkazib berilgan materiyallar narxidan foiz sifatida hisobdan chiqariladi.

Mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlarni bajarish uchun materiyallar ombordan ishlab chiqarishga chiqariladi. Korxonalarning asosiy faoliyatini amalga oshirish uchun, bundan tashqari, ular korxonaning boshqa iqtisodiy ehtiyojlari uchun zarurdir. Tayyor mahsulot tannarxida moddiy xarajatlar katta ulushga ega, shuning uchun tayyor mahsulot tannarxiga kiritilgan materiyallarning narxini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish uchun materiyallarni hisobdan chiqarish usuli nafaqat tayyor mahsulot tannarxiga, balki

solig solinadigan bazaga ham bevosita ta'sir qiladi, masalan, daromad solig'ini hisoblashda.

Qurilish korxonalarida hisobot davrida sotib olingan materiyallar narxi o'zgarganda, ishlab chiqarish uchun materiyallarni hisobdan chiqarishning quyidagi variantlari taklif etiladi:

- o'rtacha xarajatlar usuli (AVECO);
- FIFO usuli;
- har bir birlik narxida.

Korxonalarda moddiy texnik ta'minotining logistika tamoyillariga asoslangan ikki xil ko'rinishidan foydalaniladi. Ular markazlashgan ta'minot va markazlashmagan ta'minot. Markazlashgan holda moddiy texnik ta'minotining qulayligi shundaki, uning yordamida ta'minot xarajatlari kamayadi va tayyorlov, taqsimot, transport sohasida yagona korxonasi siyosati ishlab chiqariladi. Moddiy texnik ta'minotini markazlashgan shaklda boshqarish bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan va bir regionda bir nechta bo'linmalari mavjud bo'lgan kichikroq korxonalarda qo'llaniladi. Moddiy texnik ta'minotini boshqarishning markazlashmagan shakli belgilangan mahsulot ishlab chiqaruvchi va turli rayonlarda joylashgan korxonalarda qo'llaniladi. Katta ishlab chiqarish hajmiga ega bo'lgan korxonalarda aralash shakli ham qo'llaniladi. Bunday korxonalarda turli materiyallar iste'mol qilinadi va ular katta miqdorda sotib olinadi.

Korxonasi o'z faoliyatidan kelib chiqib moddiy texnika ta'minoti va mahsulotlar taqsimoti markazlashgan shaklining guruhlangan hamda guruhlanmagan usullaridan mos holdagi birini tanlashi va undan foydalanishi mumkin. Guruhlangan usulda korxonasi ichida harakat qilayotgan materiyal, xom-ashyo, yarim fabrikatlar, tayyor mahsulot bilan bog'liq materiyal oqimlarining korxonasi kirib kelishi va iste'molchiga chiqib ketishi uchun javobgarlik guruh zimmasiga yuklatiladi. Guruh korxonasi rahbari o'rinbosariga bo'ysunadi va ishlab chiqarish yoki rejalashtirish bo'limiga qo'shilishi mumkin. Guruhning vazifasi ta'minot, taqsimot, ishlab chiqarishni rejalashtirish va nazorat qilish bo'lib hisoblanadi. Guruhlanmagan usul korxonasi alohida bo'linmalari uning

faoliyatida muhim o‘ringa ega bo‘lgan ishlab chiqarishlarda qo‘llaniladi. Alohida bo‘linma sifatida ta‘minot bo‘limi, transport bilan ta‘minlash bo‘limini olish mumkin. Moddiy texnika ta‘minotining markazlashmagan guruhli usuli ham mavjud bo‘lib, unda korxonadagi har bir ishlab chiqarish bo‘linmalarining ta‘minoti va taqsimoti jarayoni uchun ham guruh javobgar bo‘ladi.

Qurilish korxonalarida puxta tuzilgan ta‘minot rejasi korxonada quyidagi asosiy muammolarni ijobiy xal qilishi mumkin. Birinchidan, materiallarning ta‘minotchi tomonidan o‘z vaqtida yetkazib berilishi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatsa, ikkinchidan, materiyallarni sotib olish uchun korxonaning kapitali band bo‘lishi oldi olinadi va uchinchidan, materiyallarni omborlarda saqlash xarajatlari iqtisod qilinishiga erishish mumkin. Korxonalarda puxta tashkil etilgan buxgalteriya hisobi ta‘minot tizimining yaxshi tashkil qilinishi xamda uning samarali ishlashiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun hozirgi kunda ta‘minot jarayoni buxgalteriya hisobini tashkil qilish sotib olinayotgan materiyallarning tannarxini to‘g‘ri aniqlash xamda xarajatlarni nazorat qilish va boshqarish kabi vaziflarani bajarishi lozim.

“Moliyaviy hisobot va hisob siyosati” deb nomlangan 1-son BXMS ga asosan korxonalar hisob siyosatida materiyallar tannarxi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatishlari kerak:

- baholash usulini tanlash;
- hisob baholarini aniqlash usulini;
- farqlarni taqsimlash usulini;
- hisob baholarini o‘zgartirish shartlarini;
- materiyallar haqiqiy bahosining tarkibini.

Amaliyotda materiyallarning hisob bahosini aniqlash buxgalteriya hisobining texnik vazifasi bo‘lib hisoblangan. G‘arb hisob tizimlarida materiyallarning bahosi eng avvalo logistika bo‘limi ish faoliyatini nazorat qilishning vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek korxonaning materiyallarni tayyorlash va sotib olish uchun rejalashtirgan xarajatlarini ham bajarilishini kuzatish mumkin. Amerikalik mashxur

menedjer P.Draker nazorat va boshqarishga quyidagicha ta'rif bergan : "... nazorat – bu o'lchov va axborot, boshqarish esa harakatdir".

Ta'minot jarayonida nazorat tizimini qo'llash hisobga olinayotgan materiyallarning hisob bahosi va undan chetga chiqishlarni boshqarish imkonini yuzaga keltiradi. Me'yoriy xarajatlar asosida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usulini qo'llash materiyallarni baholash uchun hisob baholarini qo'llashni talab etadi. Bunday holda buxgalteriya hisobi schyotlarida chetga chiqishlarni hisobga olishda "Materiyallar qiymatidagi farqlar" schyoti qo'llaniladi va ushbu schyot ma'lumotlaridan bahodagi chetga chiqishlar tahlilida foydalaniladi. Hisob baholarini qo'llash quyidagilarga yordam beradi:

- hisob hujjatlarisiz kelib tushgan materiyallarni hisobga olish;
- materiyallar harakatini joriy hisobini qiymat ko'rinishida yuritish;
- materiyallarni saqlanayotgan joyida hisobga olishni soddalashtirish (har bir materiyal (nomenklatura nomeri asosida) bir xil bahoga ega bo'ladi).

Materiyallar ta'minotida hisob baholarini qo'llash orqali buxgalteriya hisobini yuritish materiyallarning guruhlari bo'yicha samaralidir. Shunday bo'lsada, "Tovar moddiy zahiralari" deb nomlangan 4-son buxgalteriya hisobi milliy standartida hisob baholari to'g'risida hech qanday masala ko'rilmagan. O'zbekistonda materiyallar haqiqiy bahoda hisobga olinadi. Hisob baholari asosida materiyallar hisobini yuritishda ba'zi muammolar borligi aniqlangan. Ularga hisob baholarini aniqlash uslubining yo'qligi, bir hil hisob baholarini qo'llashda hisobot davri davomida aniqlanadigan farqning katta bo'lishi kabilarni keltirish mumkin.

Tovar moddiy zahiralari hisobi bo'yicha xalqaro tajribada hisob baholaridan keng foydalaniladi. Hisob baholari va ularni qo'llash masalasi "Materiyal ishlab chiqarish zahiralari" deb nomlangan 21-son buxgalteriya hisobi nizomida ko'rib chiqilgan. Unga ko'ra hisob baholari ishlab chiqarish budjeti va rejalarni tuzishda qo'llaniladi. Hisob baholari sifatida quyidagilarni qo'llash mumkin:

- shartnoma baholari;
- materiyallarning oldingi davrdagi baholari;
- rejali-hisoblangan baholar;

- guruhning o‘rtacha bahosi.

Keltirilgan barcha baholarning eng qulayrog‘i rejali-hisoblangan baholardir. Rejali-hisoblangan baholarni aniqlash korxonalar tomonidan mustaqil amalga oshiriladi. Uni aniqlashning usullari sifatida amaliyotda quyidagilar keltiriladi:

- hisobot davrining oxirida yuzaga kelgan va inflyatsiya bo‘yicha to‘g‘rilangan o‘rtacha baho. Inflyatsiya indeksi sifatida O‘zbekistonning tegishli vazirligi tomonidan kelgusi yil uchun o‘rnatilgan koeffitsient deflyator olinadi. Ushbu uslubiyotni qo‘llash baholar nomenklaturasini tuzishni yengillashtiradi. Materiyallarning nomenklaturasi bir necha ming turda bo‘lgan korxonalar uchun bu ahamiyatsiz emas;

- bozorda baholar o‘zgarishini tahlil qilish orqali aniqlangan baho;

- materiyallarni tayyorlash va sotib olish bilan bog‘liq hamma xarajatlarni o‘zida aks ettirgan hisob schyotiga (tayyorlash va sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar)ga quyidagilar kiritiladi:

- materiyallarning shartnoma bahosi;

- materiyallarni sotib olish bilan bog‘liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to‘langan to‘lovlar;

- bojxona to‘lovlari;

- sotib olish bilan bog‘liq soliqlar va to‘lovlar;

- vositachilarga to‘langan mukofotlar va hokazolar).

O‘zbekistonda hisob baholarini qo‘llash masalasi bo‘yicha aytilgan xalqaro tajribaga tayanib bir qancha ijobiy natijalarga erishish mumkin. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida hisob baholarini qo‘llashni tavsiya etish qurilish korxonalarining faoliyatiga xalaqit berishga olib keladi degan tushuncha ham yuzaga keladi. Bu holatni oldini olish uchun materiyallar hisob baholarini aniqlash jarayonini korxonalarining o‘ziga yuklash kerak. Hisob baholarida nomuttanosibliklarni yuzaga kelishini bartaraf etish uchun “Tovar moddiy zahiralari” deb nomlangan 4-son buxgalteriya hisobi milliy standartida hisob baholariga ta’rif berish va uni aniqlash yo‘llari keltirilishi kerak. Hisob baholarini aniqlashda bozordagi baholar tendensiyasini tahlil qilish orqali aniqlangan baho tizimini

qo'llash mumkin. Baholar tendensiyasi korxonada sotib olish siyosati va hisob siyosatida ko'rsatilishi hamda bu jarayonni hujjatlashtirish tizimi ishlab chiqilishi kerak. Hujjatlashtirish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish ichki nazorat tizimini yaxshi ishlashiga olib keladi.

Materiyallar ta'minoti tizimini tartibga solish va sotib olish jarayonidagi xarajatlarni nazorat qilish korxonalarda sotib olish bo'yicha logistik tizim yordamida amalga oshirilsa, tizimning natijalari samarali bo'lishiga olib keladi.

Qurilish korxonalarida xom ashyo va materiyallar bilan ta'minlash jarayonini o'rganish quyidagi xulosalarni yuzaga kelishiga olib keldi:

1. Korxonada asosiy xom ashyo va materiyallar ta'minoti markazlashgan holda tashkil qilinadi. Bu korxonada bo'yicha sotib olishlarni umumiy nazorat qilish imkonini beradi.

2. Korxonada tashish, saqlash xarajatlari uchun sarflarning barchasi umumiy holda bir xil stavka bo'yicha hisobga olinadi va hisobdan chiqariladi. Ushbu xarajatlarda tovar-moddiy zahiralar bo'yicha ta'minotning ustama xarajatlari deb nomlanadi.

3. Korxonada materiyallarni sotib olishda rejali hisob baholari usulini qo'llash tavsiya qilinadi. Ushbu hisobot davri yakunida xaqiqiy xarajatlarning summasini aniqlash va farqlar mahsulot tannarxiga kiritilishiga olib keladi.

O'zbekistonda ham iqtisodiy natijalarni baholash va istiqbolni belgilashning bu usullari takomillashtirilsa hamda respublika qurilish korxonalarida faliyatida ta'minot jarayonlarini logistik boshqarishda transport logistikasini ham birgalikda joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Logistikani to'g'ri yuritish uchun zahiralar yaratish muammosini amalda hal etish talab etiladi.

Zahiralar yaratish usullarini ikki hil, ya'ni zahiralar yaratish va ularni saqlash bo'yicha logistik boshqarishga ajratish mumkin.

Bizning fikrimizcha, moddiy ne'matlarni yaratishda yuzaga keladigan muammolardan biri – moddiy zahiralar yaratishning nazariy qoidalarini amaliyotga tatbiq etishdir. Ushbu vazifalarni amaliyotda qo'llash va ta'minot jarayonlarini boshqarish korxonada rahbariyatning boshqaruvchilik mahoratiga

bog‘liq. Demak, ta‘minot jarayonlarida menejerlar ishonchli axborotlarni qayta ishlashlari, zahiralarini boshqarishda samaradorlikka erishish uchun vazifalar belgilashi, tahlil o‘tkazishi, zahiralar yaratish rejalarini tuzishi hamda ularni to‘g‘ri baholashi zarur.

I.I.Omelchenko va A.V.Kireevlarning fikricha: “Xom ashyo resurslari va mahsulot zahirasini yaratish maqsadlari turlicha ekanligi sababli ularni optimallashtirish usullari ham turlichadir. Zahiralarini optimallashtirish degani bu – ularni boshqarish bilan barobardir”⁶³.

Ushbu fikrga qo‘shilgan holda aytish lozimki, ta‘minot jarayonlarida zahiralarini optimallashtirish – bu logistik boshqarishdir. Logistik zanjirda xarakatlanishi ma‘lum xarajatlar bo‘lishini talab etadi, chunki bu zanjirda buyurtmani bajarish va yetkazib berish zarur tovar-moddiy zahirasini shakllantiradi hamda uning aniq qiymati shakllanishiga ta‘sir etadi.

Ta‘minot jarayonlari uchun odatda, buxgalteriyaning birlamchi hujjatlari ma‘lumot bazasi hisoblanadi. Ta‘minot jaryonining logistika xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha axborotlar ichki hisob axboroti asosida olinadi va menejerga ta‘minot xarajatlari summalari haqida boshqaruv qarori qabul qilish uchun axborot sifatida taqdim etiladi. Bu axborot faqat ichki foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan axborot hisoblanib, undan foydalanuvchilar ta‘minot jarayonini boshqarishda turli xarajatlarni qisqartirish bo‘yicha choralar qo‘llay oladi. Biz zamonaviy va moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarda axborot vazifalarni kuchaytirish, uni tizimlashtirish, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish talablaridan kelib chiqib xarajatlar logistikasida tahliliy va ichki hisobni mukammal shakllantirish zarur deb hisoblaymiz.

Korxonaning ta‘minot jarayonlarida zahiralarini yaratish va zahiralarini saqlab turish bo‘yicha xarajatlar haqida olingan tezkor axborot buxgalter tomonidan menejer va logistika bo‘yicha mutaxassisga yetkaziladi. Ular olingan axborot asosida tahlilni amalga oshiradi va xarajatlarni qisqartirish bo‘yicha birgalikda boshqaruv qarorlarini qabul qiladi.

⁶³ Омельченко И.И., Киреев А.В. Промышленная логистика. – М.: ЮНИТИ, 1997. – с. 88

Logistika qonunlariga ko‘ra, zahiralarni vujudga kelish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar (ularga yetkazib berish xarajatlari, narxlarning tarifi, avtoxizmatlar, yuklash, tushirish ishlari, bojxona xarajatlari, omborlarda saqlash va boshqa xarajatlar) haqidagi axborotni har oyda menejerlarga yetkazib berilganda, ularni qisqartirish bo‘yicha doimiy tezkor choralar ko‘rish uchun va bir vaqtning o‘zida yuklarni kelishi hamda ularni kiringa olishning tezkor ma’lumotlarini tekshirish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu muammoning yechim bo‘yicha N.YU.Jo‘raev yozishicha, “Korxonalar boshqaruvida xo‘jalik mexanizmini takomillashtirish xaridlarning tushumi hisobi birinchi navbatda quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilishi zarurligini nazarda tutadi: tezkor hisob va xaridlarni yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarning bajarilishni nazorati; kelayotgan materiyallarni o‘z vaqtida va to‘lovni kiringa olish; ularni qabul qilish vaqtidagi son va sifat bo‘yicha tafovutlarni o‘rnatish; tuzilgan shartnomalarga nisbatan narxlardagi tafovutlarni aniqlashtirish zarur”⁶⁴.

Yuqoridagi takliflarni ma’qullash bilan birga, zahiralarni sotib olish xarajatlarini hisobot davri xarajatlari sifatida, tashish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni esa, transport-tayyorlov xarajatlari sifatida hisobga olishni lozim deb hisoblaymiz. Ko‘rinib turibdiki, chet el amaliyotida ushbu xarajatlar – umumkorxonalar xarajatlari yoki umumishlab chiqarish xarajatlari deb chegaralanmagan.

Ma’lumki, ishlab chiqarishga berilguncha zahiralalar omborlarda saqlanadi. Hozirgi kunda yana bir asosiy muammolardan biri ombor xo‘jaligini to‘g‘ri tashkil etish va omborlardagi zahiralarni saqlash xarajatlari bo‘yicha logistik boshqarishni tashkil etishdir.

Logistika nuqtai nazarida zahiralarni yaratish - bu sotib olingan boyliklarni omborga qabul qilib olish, ularni saqlash, moddiy boyliklarni ombordan iste’molga

⁶⁴ Жураев Н.Ю. Методы учета движения предметов труда // мат. меж. науч.-прект. кон. Закономерности, тенденции и особенности разв. соц-экон. отнош. в странах рыночной ориентации. – Алматы: 2001. – с. 31

tayyorlash va chiqarishdir. Omborlarda nafaqat saqlab turish xarajatlari, balki zahiralarning darajasining optimalligi ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Bu borada iqtisodchi olim A.A.Abdug'aniyev shunday fikr bildirgan, "Zahiralarni boshqarish – funksional faoliyat bo'lib hisoblanib, uning asosiy maqsadi – moddiy resurslarni shakllantirishga va saqlashga sarflanadigan xarajatlarning yillik hajmini minimallashtirish hisoblanadi"⁶⁵.

2.1.1 - jadval

Qurilish korxonalarida omborxonalarni saqlash xarajatlari va ularni hisobga olinishi bo'yicha taklif etilayotgan buxgalteriya uzatmalari ⁶⁶

Xarajat moddalari	Dt	Kt
Ta'minot omborlariga materiallarni tashish xarajatlari		
transport va tashish xarajatlari, materiallarni tashib kelish tariflari, yoqilg'i-moylash xarajatlari va boshqa transport xizmatlari xarajatlari	2531	6010
materiallarni yuklash-joylash-tushirish xizmatlari xarajatlari	2531	6010, 2310
materiallar sifatini ekspertizadan o'tkazish xizmatlari xarajatlari	2531	6990
materiallarni ta'minot omboridan ishlab chiqarishga tashish-ko'chirish xarajatlari	2531	2310
Ta'minot omborlarida materiallarni saqlash va ishlab chiqarishga chiqarish xarajatlari		
ta'minot ombori ishchi va xizmatchilarining mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlari	2532	6710
ijtimoiy soliq xarajatlari	2532	6530
ta'minot ombori bino va inshootlarini dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya qilish, yoritish, isitish, kanalizatsiya, suv ta'minoti xarajatlari	2532	6990
tovar-moddiy zahiralarni ekspluatatsiyaga chiqarishda hisobdan chiqarilgan xo'jalik inventarlari qiymati	2532	1080
ta'minot omborlari binolari, jihozlar va transport vositalari uchun ijara to'lovlari	2532	6910
ta'minot omborlarining joriy ta'mirlash xarajatlari	2532	2310
ta'minot omborlari va inshootlari amortizatsiyasi xarajatlari	2532	0220
ta'minot omboridan materiallarni saqlash-chiqarishda o'rash va boshqa moddiy xarajatlar	2532	1090
bo'sh idish va idish materiallari bo'yicha xarajatlar	2532	1060
Ta'minot omborlarining boshqa xarajatlari		
ta'minot omborlari ishchi va xizmatchilari xizmat safarlari xarajatlari	2533	4220
ta'minot omborlari mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi xarajatlari	2533	6990
ta'minot omborlari va inshootlarining yong'in xavfsizligi bo'yicha xarajatlar	2533	6990
ta'minot omborlari ishchi va xizmatchilariga beriladigan mahsus kiyim-bosh uchun xarajatlar	2533	1090

⁶⁵ Абдуғаниев А.А. Бошқарув ҳисобини ташкил этиш муаммолари, уларнинг ечимлар. Монограф. – Т.: ТМИ, 2003. 117-б.

⁶⁶ Муаллифнинг ўз ишланмалари асосида тайёрланган

Yuqoridagilarni inobatga olib qurilish korxonalarida hisob siyosatiga 2530 – “Qurilish korxonalarida omborxonalarni saqlash xarajatlari” schyoti va uning tarkibida 2531 – “Ta’minot omborlariga materiallarni tashish xarajatlari”, 2532 – “Ta’minot omborlarida materiallarni saqlash va ishlab chiqarishga chiqarish xarajatlari”, 2533 – “Ta’minot omborlarining boshqa xarajatlari” schyotlarini kiritish zarur deb hisoblaymiz. Bu asosida qurilish korxonalarida omborxonalarni saqlash xarajatlari buxgalteriya hisobining to‘liq va aniq yuritilishini ta’minlashga erishiladi. Qurilish korxonalarida omborlarni saqlash xarajatlari moddalari guruhini va ularni hisobga olish bo‘yicha taklif etilayotgan buxgalteriya uzatmalari quyidagi 2.1.1-jadvalda keltirilgan.

Ombor va ombor xo‘jaliklari xaridlarni qabul qilib olish va joylash, undan so‘ng saqlash va ularni ishlab chiqarishga berish bo‘yicha ma’lum xarajatlarni keltirib chiqaradi. Zahiralarini boshqarish bo‘yicha xarajatlarni shakllantirish, qolaversa, zahiralarini saqlash bo‘yicha xarajatlar summasini ajratgan holda shakllantirish, ushbu xarajatlarni qisqartirish choralarini ko‘rish uchun juda zarurdir.

Tadqiqot jarayonida “And Tex-Naz” MCHJning omborxonalarni saqlash xarajatlari tahlil qilindi va korxonada bu xarajatlar turlari ortib borganligi aniqlandi. (tahlillar 2.1.2-jadvalda keltirilgan). Jumladan, tahlil etilayotgan yillarda omborxonalar xarajatlarini taklif etilayotgan uchta gurux asosida o‘rganib chiqildi. Jami omborxonalar xarajatlari 2022-yilda 374157 ming so‘mni tashkil qilgan holda 2018-yilga nisbatan 102073 ming so‘mga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu xarajatlar tarkibida asosiy salmoqni ta’minot omborlariga materiallarni tashish xarajatlari egallamoqda. Ushbu xarajat 2022-yilda jami xarajatga nisbatan deyarli 70 foizni tashkil etmoqda.

Jadval ma’lumotlaridan xulosa qilishimiz mumkinki, keltirib o‘tilgan faktlar paydo bo‘lganligining sababi mazkur tashkilotda ta’minot jarayonlari logistika xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar qo‘llanilmaganligidir.

2.1.2 - jadval

“And Tex-Naz” MCHJda omborxonalarni saqlash xarajatlari tahlili⁶⁷ (ming so‘mda)

Xarajat moddalari	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2018-yilga nisbatan o‘zgarishi (+;-)
Ta‘minot omborlariga materiallarni tashish xarajatlari						
transport va tashish xarajatlari, materiyallarni tashib kelish tariflari, yoqilg‘i-moylash xarajatlari va boshqa transport xizmatlari xarajatlari	183301	186540	192511	239455	233660	+48959
materiyallarni yuklash-joylash-tushirish xizmatlari xarajatlari	10650	14510	19755	15890	16111	+5461
materiyallar sifatini ekspertizadan o‘tkazish xizmatlari xarajatlari	4750	5120	5445	5680	5590	+840
materiyallarni ta‘minot omboridan ishlab chiqarishga tashish-ko‘chirish xarajatlari	2140	3450	4690	6120	6490	+4350
Jami	200841	209620	222401	267145	261851	+61010
Ta‘minot omborlarida materiyallarni saqlash va ishlab chiqarishga chiqarish xarajatlari						
ta‘minot ombori ishchi va xizmatchilarining mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlari	22350	25600	30700	38940	43870	+21520
ijtimoiy soliq xarajatlari	6369	6144	7368	9345	10528	+4159
ta‘minot ombori bino va inshootlarini dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya qilish, yoritish, isitish, kanalizatsiya, suv ta‘minoti xarajatlari	6701	7100	7460	7600	7640	+939
tovar-moddiy zahiralarni ekspluatatsiyaga chiqarishda hisobdan chiqarilgan xo‘jalik inventarlari qiymati	6830	7890	8512	10933	9415	+2585
ta‘minot omborlari binolari, jihozlar va transport vositalari uchun ijara to‘lovlari	-	-	-	-	-	-
ta‘minot omborlarining joriy ta‘mirlash xarajatlari	14411	23590	21840	17000	16540	+2129
ta‘minot omborlari va inshootlari amortizatsiyasi xarajatlari	940	1110	1420	1612	1813	+873
ta‘minot omboridan materiyallarni saqlash-chiqarishda o‘rash va boshqa moddiy xarajatlar	2112	3418	4741	4984	4950	+2838
bo‘sh idish va idish materiyallari bo‘yicha xarajatlar	960	1080	1231	1450	1620	+660
Jami	60673	75932	83272	91864	96376	+35703
Ta‘minot omborlarining boshqa xarajatlari						
ta‘minot omborlari ishchi va xizmatchilari xizmat safarlari xarajatlari	8740	10370	11340	12460	13000	+4260
ta‘minot omborlari mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi xarajatlari	840	950	1100	1200	1450	+610
ta‘minot omborlari va inshootlarining yong‘in xavfsizligi bo‘yicha xarajatlar	560	780	790	850	890	+330
ta‘minot omborlari ishchi va xizmatchilariga beriladigan mahsus kiyim-bosh uchun xarajatlar	430	651	740	680	590	+160
Jami	10570	12751	13970	15190	15930	+5360
Xammasi	272084	298303	319643	374199	374157	102073

⁶⁷ Муаллифнинг ўз ишланмалари асосида тайёрланган

Ta'kidlash joizki, zahiralarni saqlab turish xarajatlari logistikasini to'g'ri tashkil etish uchun olingan axborot material oqimni oqilona boshqarilishi kerak. Tashkilotda logistika to'g'ri tashkil etilganligi masalan, axborot almashinuvi tezkorligini ham oshiradi. Yana shuningdek logistik boshqaruvni amalga oshirish material zahiralardan foydalanish va omborlarda saqlab turish xarajatlari haqida o'z vaqtida axborot olish imkoniyatini yaratib beradi.

L.B.Mirotin va B.E.Tashboyevlar, "omborxonalar bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarda ombor zahiralari yillik qiymatining o'rtacha 30 foizni tashkil etadi. Bir qator mutaxassislarining baholashicha, logistik usullarni qo'llash zahiralarning miqdorini 20-30 foizga kamaytirish va shu asosida korxonaning xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratadi. Logistika konsepsiyalarini amalda bajarish mavjud zahiralarni korxonaning umumiy minimal qarzlari darajasida optimallashtirish bilan bog'liqdir"⁶⁸ deb ta'kidlamoqdalar.

Yuqorida o'rganilganidek, zahira yaratish ma'lum xarajatlarni talab etadi va ularning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Demak, logistikada ko'zlanayotgan asosiy maqsad – zahira birligi uchun xarajatlarni pasaytirishdir. Bunda zahirani saqlash xarajatlari uni yaratish xarajatlari bilan aralashtirib ketmasligi kerak.

Biz ta'minot jarayonlarida xarajatlarni logistikasini yuritish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilinishi zarur deb hisoblaymiz:

1. Xaridlarni amalga oshirmaslik bo'yicha qaror. (Agar tashkilot harid qilinishi kerak bo'lgan mahsulotni o'zi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lsa).
2. Ta'minot maqsadida qilingan xaridlar tufayli yuzaga kelgan da'volar, jarimalar, penyalari tahlili va nazoratini yo'lga qo'yish bo'yicha qarorlar.
3. Asossiz oshirib yuborilgan xarajatlarning summalarini aniqlash bo'yicha maxsus qaror.
4. Yetkazib berish (kelish)da yuzaga kelgan kamomad, aynish, buzilish sabablarini o'rganish hamda ularni qayta qoplash imkoniyatlarini qidirish bo'yicha qaror.

⁶⁸Mиротин Л.Б., Ташбаев Б.Э. Эффективная логистика. – М.: Экзамен, 2003. – с. 25

5. Xarajatlarni qisqartirish bo'yicha choralar ko'rish qarori.
6. Yetkazib berish (kelish)ni rejalashtirish (biznes reja) bo'yicha qaror.
7. Tender asosida yetkazib berish shartnomalarini o'z vaqtida tuzish bo'yicha qaror.
8. Ta'minot uchun xardlarn bajarishdan oldin xarajatlar logistikasi ichki hisobini bozor talablaridan kelib chiqib o'rnatish bo'yicha qaror.

Logistika nuqtai-nazaridan qaralganda ta'minot jarayonining asosiy vazifasi - zahiralar yaratish muammolarini hal etish va boshqarishdir. Logistikada zahiralar yo'qligi ham xarajat hisoblanadi. Zero, zahiralar yo'qligi ishlab chiqarish to'xtab qolishiga sabab bo'ladi. Tashkilotlarda moddiy boyliklar zahirasi katta bo'lganligi sababli, omborlar va materiyallarning hisobini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Barcha materiyallar birinchi navbatda omborga keladi. Ombordagi materiyallarni hisobga olish moddiy javobgar shaxs, ombor mudiri yoki omborchi tomonidan amalga oshiriladi. Materiyallar harakati va qoldiqlarini hisobga olish materiyallar kartochkalarida amalga oshiriladi.

Qabul qilinganidan so'ng, har bir materiyalning nomi, navi va markasiga maxsus belgi - nomenklatura raqami beriladi. Har bir partiya ro'yxati raqamiga alohida hisob kartasi ochiladi. Keyin qimmatliklar raqamlari maxsus reyestrda kiritiladi, bu nomenklatura-narx yorlig'i deb nomalanadi. Nomenklatura-narx yorlig'ida, moddiy qiymatlikning nomi va tartib raqamidan tashqari, materiyalning narxi va o'lchov birligi ko'rsatilgan bo'ladi. Shunday qilib, nomenklatura-narx yorlig'i ularning qiymati va o'lchov birligini ko'rsatgan holda ishlatilgan barcha materiyallarning tizimli ro'yxatini taqdim etadi.

Odatdagidek, materiyallar ham omborda, ham buxgalteriya bo'limida qayd etilishi kerak. Materiyallarning harakatlanishini hisobga olish buxgalteriya hisobi metodologiyasiga bog'liq bo'lib, u omborda va buxgalteriya bo'limida materiyallarni saqlash tartibi va ketma-ketligini belgilaydi.

Omborda va parallel ravishda buxgalteriya bo'limida materiyallarni analitik hisobga olish kartalari ularning nomenklatura raqamlariga muvofiq saqlanadigan

hisob tizimini o‘rnatish mumkin. Faqat buxgalteriya hisobida, miqdoriydan tashqari, materiyallarning analitik hisobi kartochkalarida ham xarajatlar hisobi yuritiladi. Oy oxirida omborda va buxgalteriya bo‘limida materiyallar uchun buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini solishtirish amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobida balans deb ataladigan buxgalteriya hisobi usuli mavjud bo‘lib, materiyallarning ombordagi qoldig‘ini aniqlashda shu usuldan foydalaniladi. Materiyallarning balans hisobi qo‘lda qayta ishlanadigan korxonalarda omborda buxgalteriya bilan parallel holda dublikat hisob yuritiladi. Ombor tizimidagi logistika xarajatlarini kengroq o‘rganish uchun qurilish korxonalarida ta’minot jarayoni logistika xarajatlariini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik. Korxonalarda so‘ngi yillarda zaxira yaratish va uni saqlash bilan bog‘liq xarajatlar tarkibini salmoq bo‘yicha ko‘rib chiqamiz (2.1.3-jadval).

2.1.3-jadval
“Just Moment” MCHJda ta’minotning logistik xarajatlari tarkibi⁶⁹

Xarajatlar turlari	Salmog‘i, %	Korxonalar logistik xarajatlari umumiy tarkibidagi o‘rtacha ulushi,%	Umumiy logistika xarajatlari tarkibining o‘zgarishi,%
Kapital xarajatlar	72,9	12,0	7-35
Saqlash xarajatlari	10,4	2,6	0-6
Joriy texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari	1,6	1,1	0,5-2,7
Xavflardan zarar	15,1	1,2	0,5-1,8
Umumiy xarajatlar	100	16,9	8-48

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Just moment” MCHJda jami logistika xarajatlari tarkibida kapital xarajatlar 72,9 foizni tashkil etgan. Shuningdek, saqlash xarajatlari 10,4 foizni, joriy texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari 1,6 foizni, xavflardan zararlar esa 15,1 foizni tashkil etgan.

Ko‘rinib turibdiki, umumiy xarajatlar tarkibida ta’minot jarayoni logistika xarajatlari ulushi 16,9 foizni tashkil etib kelmoqda. Tahlillarimizdan ko‘rish mumkinki, ushbu ko‘rsatkich tavsiya etilayotgan xalqaro amaliyotdagi qo‘llanilayotgan ko‘rsatkichlar doirasida ekan.

⁶⁹Муаллифнинг ўз ишланмалари асосида тайёрланган

Qurilish korxonalaridagi umumiy logistika xarajatlari tarkibida ta'minot xarajatlari tarkibini dastlab xarajatlar guruhlarining iqtisodiy mazmunini kengaytirilgan rejada ko'rib chiqamiz, chunki shunga o'xshash xarajatlarni taqsimlash amaliyoti qurilish korxonalarini uchun ham to'g'ri keladi.

Kapital xarajatlar korxonalar kapitalining qancha qismi uni ishlatishning muqobil usullari nuqtai nazaridan zahiralarini yaratish bilan bog'liqligini tavsiflaydi. Bu xarajatlar odatda moddiy boyliklarni yaratish va saqlash xarajatlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Ombordagi zahiralariga qo'yilgan kapitalning minimal rentabelligini hisoblash qoidasi yordamida ushbu xarajatlar ta'sirini aniqlash mumkin.

Moddiy boyliklarni saqlash xarajatlariga omborda tovarlarni saqlash xarajatlari, ijara (omborni ijaraga olish), ekspluatatsion xarajatlar (elektr energiyasi, issiqlik, suv ta'minoti, binolarni saqlash va texnologik uskunalarni saqlash va boshqalar), omborda yuzaga keladigan ish haqi xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari kiritiladi. Bu xarajatlar zahiralar darajasiga bog'liq va ularning tuzilishi korxonaning o'z omborlaridan foydalanishiga yoki tashqi omborlardan foydalanishiga qarab farq qiladi.

Ushbu xarajatlarni korxonalarining moddiy boyliklarini boshqarish bilan bog'liq ombor logistika xarajatlarining tarkibi va qiymati bo'yicha jadvalga solib ko'ramiz (2.1.4-jadval).

Ushbu jadval 2.1.4-jadvalning mantiqiy davomi hisoblanib, jadvalda omborni boshqarish logistika xarajatlari salmog'ining tahlili aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tadqiqotimiz ob'ekti hisoblangan "Just moment" MCHJda o'rganilayotgan yillarda omborni boshqarish logistika xarajatlari yillar bo'yicha solishtirganda xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan me'yorlar darajasida bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Tahlil qilinayotgan yillarda ya'ni 2018 va 2021 yillarda jami logistika xarajatlarining o'rtacha miqdoridan past bo'lgan bo'lsa, 2019-2020 yillarda ushbu ko'rsatkich o'rtacha ko'rsatkich bilan teng bo'lgan. 2022 yilda ham jami logistika xarajatlari o'rtacha ko'rsatkichlarida 1,2 ga ortganligini va foiz bo'yicha 7 % ga kamayganini ko'ramiz.

2.1.4 -jadval

**“Just moment” MCHJda omborni boshqarish logistika xarajatlari
salmog‘ining tahlili⁷⁰**

№	Logistik xarajatlar turlari	O‘rtacha miqdor, %	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2022 yil o‘rtacha ko‘rsatkichdan farqi (+;-)
1	Kapital xarajatlar	12,0	12,1	12	12,2	11,6	11,8	-0,2
2	Ombor muomalalari	2,6	2,5	2,6	2,4	2,6	2,2	-0,4
3	Logistik xavflarni sug‘urtalash (sug‘urta xarajatlari)	1,2	1,1	1,2	1,4	1,2	0,8	-0,4
4	Omborlar va uskunalarning eskirishi	1,1	1,1	1,1	0,9	1,3	0,9	-0,2
	Jami logistika xarajatlari	16,9	16,8	16,9	16,9	16,7	15,7	-1,2

Ta‘minotchi buyurtma qilingan materiallarni o‘z vaqtida yetkazib bermasligi natijasida mijozning ishlab chiqarish jarayonida uzilishlar yuzaga keladi. Bunday holda, shartnoma shartlarining bajarilmaslik xolatlari vujudga keladi. Yetkazib berishning etishmasligi ma‘lum vaqtdan keyin qoplanishi mumkin, lekin bunda qo‘shimcha xarajatlar paydo bo‘ladi. Masalan: jarimalar, yetkazib berish shartlarini bajarmaganlik uchun to‘lovlar.

Mazkur holatlar tashkilotda ishlab chiqarish sikli salbiy tomonga o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Natijada esa potensial xaridorlar va mijozlar bilan aloqalar yomonlashadi yoki baholash qiyin bo‘lgan boshqa salbiy oqibatlar yuz berishi mumkin.

Qurilish korxonalarida ta‘minot jarayonida puxta ishlab chiqilgan logistik strategiyasidan foydalanishlari mumkin. Logistikasi strategiyasini qabul qilish uchun ombor tizimlarining ishlashi bilan bog‘liq xarajatlarni batafsil tahlil qilinishi zarur deb hisoblaymiz. Ma‘lumki, omborni saqlash jarayoniga logistika tizimining

⁷⁰Муаллифнинг ўз ишланмалари асосида тайёрланган

ishlash strategiyasi (zahiralarni boshqarish strategiyasi) natijasida o'zgaradigan xarajatlar ta'sir qiladi.

Bularga quyidagilar kiradi:

- 1) omborga tovar yetkazib berish (sotib olish) bilan bog'liq xarajatlar;
- 2) zahiralarni saqlash xarajatlari;
- 3) iste'molchilar buyurtmalarini bajarish xarajatlari;
- 4) talablarni qondirish mumkin bo'lmaganda, zahiralarning etishmasligi bilan bog'liq xarajatlar;
- 5) ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash xamda ombor tizimini boshqarish xarajatlari.

Qurilish korxonalarida ta'minot jarayonida ma'lum miqdordagi materiallarni sotib olish (yetkazib berish) xarajatlarini ikki qismga ajratish mumkin.

Birinchi qism xarajati yetkazib beruvchiga to'lanishi kerak bo'lgan summa – yetkazib beriladigan materiallarning narxidir. Shuningdek, materiallarni ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish uchun ombor tizimining ma'lum turdagi xarajatlari bor. Hozirgi vaqtda bu xarajatlar tranzaksion xarajatlar deb ataladi va har xil korxonalar xamda ombor tizimlari uchun sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Masalan, Sotib olish bo'limida buxgalteriya hisobida yuzaga keladigan, ishlov berish va buyurtma berishda yuzaga keladigan xarajatlar mavjud. Bularga ish qog'oz va hujjatlari, pochta xarajatlari, tegishli xodimlarning ish haqi, yo'l xarajatlari, yetkazib beruvchilar bilan telefon aloqasi, faks, elektron pochta, ma'lumot va kompyuter xarajatlari xamda boshqa xarajatlar kiradi.

Ikkinchi qism xarajatlari materiallarni yetkazib berish shartiga qarab paydo bo'ladi. Yetkazib berish shartida transport xarajatlari tovar narxiga kiritilishi yoki sotuvchi tomonidan to'lanishi mumkin. Sotuvchi tomonidan xarajat qoplanganda, tranzit zahiralari bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olish kerak. materiallarni omborga qabul qilish natijasida vujudga keladigan ba'zi xarajatlar mavjud bo'lib, bu xarajatlarga materiallarni idishlarga joylash va qadoqlash, materiallarni qabul qilish jarayonidagi nazorat qilish, dastlabki ro'yxatga olish xarajatlarni kiritish mumkin.

Moddiy boyliklarni saqlash xarajatlariga, yuqorida aytib o‘tilganidek, kapital xarajatlar, yuklarni tashish va tovarlarni saqlash bilan bog‘liq xarajatlar, zahiralarni joriy saqlash xarajatlari (sug‘urta, soliqlar), omborlarni saqlash paytida logistik tavakkalchiliklar va boshqalar kiradi.

Ombor tizimining kapital xarajatlari darajasi omborga qo‘yilgan umumiy moddiy boyliklarga mutanosib bo‘ladi. Tovar-moddiy zahiralarni saqlash xarajatlaridan kelib chiquvchi soliqlar diskret usulda mavjud moddiy boyliklar darajasidan olinadi.

Masalan, tovar-moddiy zahiralarni saqlash xarajatlariga kuchli ta’sir etuvchi omborni ijaraga olish bo‘yicha xarajatlarini ko‘rib chiqish mumkin. Ma’lumki omborni ijaraga olish uchun birinchi navbatda shartnoma tuziladi va u ma’lum vaqt davomida o‘z kuchida qoladi. Ijaraga olingan binolarning hajmi shartnoma muddati davomida moddiy boylikning maksimal miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Demak, ijara xarajatlari moddiy boylik darajasining o‘zgarishi bilan kundun-kunga o‘zgarmaydi, faqat yangi shartnoma tuzilganda o‘zgarishi mumkin.

Ba’zi xollarda korxonaning omborxonasi bilan bog‘liq xarajatlari materiallarning xajmiga yoki darajasiga umuman bog‘liq bo‘lmasligi xam mumkin yoki aksincha, ushbu xarajatlarning bir qismi mavjud materiallar darajasiga mos xolda o‘zgarib turadi.

Omborlar ishini va umuman ombor tizimini optimallashtirishning asosiy mezonlaridan biri bu umumiy logistika xarajatlaridir. Omborda logistika xarajatlari deganda, iste’molchilar buyurtmalarining ombor majmuasini bajarish natijasida mehnat, moddiy, moliyaviy va axborot resurslari xarajatlari tushuniladi.

Umuman olganda, ta’minotning logistika xarajatlarini hisobga olish qurilishi korxonalarining alohida xususiyatlarini inobatga olib tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

2.2-§. Ta’minot jarayonlarida tranzaksion xarajatlar hisobi

Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitlarida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda axborotlarni shakllantirish va qayta ishlash, samarali boshqaruv qarorlarini

chiqarishga sabab bo'luvchi ishonchli va tezkor axborotlar bazasini yaratish masalalari dolzarb bo'lib kelmoqda. Shunday ekan, tadbirkorlik sub'ektlarida ularning faoliyatini amalga oshirishda daromad ko'rish va rentabellikka erishish maqsadlarida sarflanadigan xarajatlarni hisobga olishni samarali tashkil etish va unumsiz xarajatlarni qisqartirish alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodchilar tomonidan sub'ekt xarajatlari tarkibini tadqiq etish, xususan tranzaksion xarajatlar hisobi va uni tashkil etilishini rivojlantirish masalalariga oid ilmiy ishlanmalarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlarda xarajatlarni aks ettirish bilan bir qatorda tranzaksion xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ham shakllantirish va oshkor qilish tamoyillari ko'rib chiqilishi zarur. Tashkilotlarda tranzaksion xarajatlarni hisobga olish tartib va nazariy-uslubiy jihatlari to'liq tadqiq etilmaganligi ularda axborot bazasi to'liq bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda.

Mazkur muammoning murakkabligi va ko'p qirraliligi, tranzaksion xarajatlarga bo'lgan yondashuvlarning munozaraliligi, xatto tranzaksion xarajatlarga berilgan ta'riflarni yagona to'xtamga kelinmaganligi bu borada qator izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqligini bildiradi.

Amaliyotda tranzaksion xarajatlar hisobini yuritib borish ko'rinmas holatga kelib qolganligi natijasida korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatida rasmiylashtiriladigan me'yoriy hujjatlarida aks ettirilmasligidadir, ushbu holat ularni to'g'ri va aniq baholanishini murakkablashtiradi. Korxonalar boshqaruvida tranzaksion xarajatlarni samarali boshqarish va ularni baholash hamda kamaytirish yo'llarini ochib borish zarur. Bizningcha, yuqoridagi muammolar, xususan qurilish sohasi uchun ham dolzarbdir, chunki qurilish korxonalarida tranzaksion xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha qator amallar va muomalalar an'ana tusiga kirgan.

Tranzaksion xarajatlar (inglizcha, transaction cost) – resurlarni sotib olish jarayonida xar-xil shartnomalarni tuzish (shu jumladan bozor mexanizmlarini o'rgani va ulardan foydalanish) bilan bog'liq xarajatlar; iqtisodiy agentlarning munosabatlari bilan bog'liq xarajatlar.

Tranzaksion xarajatlarning quyidagi turlari mavjud:

- kerakli ma'lumotlarni jamlash va ularni qayta ishlash xarajatlari;
- turli tashkilotlar bilan muzokaralar olib borish va qarorlar qabul qilish xarajatlari;
- sodir etiladigan tranzaksion xarajatlarni o'rgani va ularni nazorat qilish bilan bog'liq xarajatlar;
- tuzilgan shartnomalarning bajarilishini huquqiy tomondan himoya qilish xarajatlari.

Iqtisodiy manbalarda "Tranzaksion xarajatlar atrofdagi dunyoning murakkabligi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning cheklangan oqilona oqibati bo'lib, iqtisodiy muomalani muvofiqlashtirish tizimiga bog'liq. Juda yuqori tranzaksion xarajatlar iqtisodiy harakatlarga to'sqinlik qilishi mumkin. Ijtimoiy, davlat va iqtisodiy institutlar (masalan, fond birjasi) bu xarajatlarni rasmiy qoidalar va norasmiy me'yorlar yordamida kamaytiradi. Ikkinchisi biznes madaniyatini tashkil qiladi"⁷¹ deb aytib o'tilgan.

Tranzaksion xarajatlar kategoriyasi birinchi marta Ronald Kouz tomonidan qo'llanilgan bo'lib, uning "Firmaning tabiati" va "Ijtimoiy xarajatlar muammosi" nomli ilmiy asarlarida tranzaksion xarajatlarga ta'rif berib o'tilgan. U "Tranzaksion xarajatlar bozorning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq xarajatlardan boshqa narsa emas, kompaniyaning mavjudligi narx mexanizmining ishlashi uchun sezilarli xarajatlar mavjudligi bilan izohlanadi"⁷² deb fikrlagan.

I.Volostnov xam tranzaksion xarajatlar haqida to'xtalar ekan "Bugungi kunga kelib, tranzaksion xarajatlarning umumiy qabul qilingan yagona tasnifi mavjud emas. Tranzaksion xarajatlar: aniq va yashirin; o'lchanadigan va o'lchovsiz; buxgalteriya hisobida aks ettirilgan va aks ettirilmagan; mutlaq va o'rtacha; shartnomadan oldingi va shartnomadan keyingi kabilarga bo'linishi mumkin"⁷³ degan fikrni aytib o'tgan.

⁷¹https://ru.wikipedia.org/wiki/Транзакционные_издержки

⁷²Кouz P. Природа фирмы: (Ст. амер. Экономиста/Сокр. пер. с англ. Б.Нинскрса)//ЭКО: Экономика и орг. пром, пр-ва. - 1993. - №2 - С.66- 82., Коуз P. Фирма, рынок и право /Пер. с англ. - М.: Дело ЛТД, 1993.

⁷³ Волостнов И. Транзакционные издержки в деятельности, государственных предприятий: виды и средства минимизации. Менеджмент в России и зарубежом. – 2005. - №3. – С. 70-79

Quyidagi 2.2.1-jadvalda qator iqtisodchi olimlarni bu boradagi bildirib o‘tgan fikrlari keltirilgan.

2.2.1.-jadval

Iqtisodchi olimlarning tranzaksiyon xarajatlarga bergan ta’riflari⁷⁴

№	Muallif	Manba	Ta’rif
1.	Radaev V.V	Formirovanie novyx rossiyskix rыmkov: tranzaktsionnyye izderjki, formy kontrolya i delovaya etika. – M.: sentr politicheskix texnologiy, 1998. - 328s.	Tranzaksiyon xarajatlar - resurslardan foydalanish, texnik shartlarni o‘tkazish va mulkiy huquqlarni himoya qilish, biznes munosabatlariga kirish va saqlash bilan bog‘liq xarajatlar.
2.	Malaxov S.	Tranzaktsionnyye izderjki i makroekonomicheskoe ravновesie//Voprosy ekonomii. - 1998. - №11. - S.78-96.	Tranzaksiyon xarajatlar - bu taklif narxi va xaridor tomonidan to‘lanadigan eng past narx o‘rtasidagi farq
3.	Oleynik A.N.	Institutsionalnaya ekonomika. Uchebnoe posobie. – M.: INFRA-M, 2000. - 416 s.	Tranzaksiyon xarajatlar - kompaniyaning vaqt va boshqa qimmatli resurslarini tashqi muhit bilan turli aloqalarga, shuningdek, ichki aloqalarga: soliq va boshqa davlat organlari bilan aloqalar, xaridorlar, yetkazib beruvchilar, sheriklar bilan aloqalar va boshqalar.
4.	Nureev R.M.	Teoriya razvitiya institutsionalnoy konsepsii stanovleniya rыnochnoy ekonomii //Voprosy ekonomiki - 2000 - №6. - S. 126-145.	Tranzaksiyon xarajatlar ayirboshlash sohasida amalga oshiriladigan, mulkiy huquqlarni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan tranzaksiya hisoblanadi.
5.	Kostina O.V.	Tranzaktsionnyye izderjki: opыt politiko-ekonomicheskogo analiza. Avtoref. diss. na soisk. uchen, step, k.e.n. Ivanovo, 2007	Tranzaksiyon xarajatlar - bu muomala sohasi bilan bog‘liq xarajatlar, bunda xarajatlarning bir turi tovarlarni jismoniy rag‘batlantirish xarajatlari, boshqa turdagi xarajatlar - tovar-pul munosabatlaridan foydalanish xarajatlari. Jismoniy rag‘batlantirish deganda iste’molchiga tovarlarni olib kelish tushuniladi
6.	Muallif	Tranzaksiyon xarajatlar – ta’minot jarayonlari maqsadida tovarlar tranziti katta masshtabda bo‘lgan xaridlardan oldin qilinadigan xarajatlar. Ushbu xarajatlarni sotib olingan aktivlarning boshlang‘ich qiymatlari bo‘yicha kiritish maqsadga muvofiqdir.	

Qurilish tashkilotlarida mahsulotni ishlab chiqarish yoki sotib olish bo‘yicha samarali boshqaruv qarorini qabul qilish unumsiz xarajatlarini amalga oshirmaslikni ta’minlaydi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida tashkilot o‘z imkoniyatini boshqa bir nechta imkoniyatlar, masalan, mahsulotni optimal narhlarda

⁷⁴Muallif tomonidan tuzilgan

sotib olish uchun qidirish, kutish kabilar bilan solishtirib olishi zarurligini taqozo etadi. Rahbariyatning xarid qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilishida bitimlarni tuzish xarajatlarini mol yetkazuvchi o'z zimmasiga olishini ho'xlaydi, lekin boshqa zaruriy ma'lumotlarni qidirish yoki kutish xarajatlari tabiiy holatda amalga oshirilishi yuzaga keladi.

S.Malaxovning fikriga ko'ra, "Past narxga nisbatan mumkin bo'lgan ortiqcha to'lov tranzaksion xarajatlardir. Xaridor uchun tranzaksion xarajatlar ma'lumot qidirish, kutish yoki o'z ishlab chiqarishi uchun yuqori xarajatlarga muqobil ravishda taklif qilingan narx va u tomonidan to'langan past narx o'rtasidagi farqdir, ya'ni sotuvchi uchun tranzaksion xarajatlar talab narxi va yuqori ma'lumot qidirish va kutish xarajatlariga muqobil ravishda xaridorga taklif qilinishi mumkin bo'lgan yuqori narx o'rtasidagi farqdir"⁷⁵.

Ayrim mualliflar tranzaksiyalar ishtirokchilari uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlar va resurslarning to'liq emasligi xamda cheklanganligini tranzaksion xarajatlarning paydo bo'lishining sababi, deb ko'rsatishadi. Korxonada ichki resurslardan foydalangan holda qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni ishlab chiqishi yoki mijozlar talablariga muvofiq axborot yoki resurslarni tizimlashtirish va taqdim etishga ixtisoslashgan tashqi tashkilot (tranzaksiya muassasasi) xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Shubhasiz, rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida tranzaksion xarajatlarning o'sishiga tranzaksiyalarning murakkabligi ta'sir qiladi, o'tish davri iqtisodiyoti va rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli o'laroq, tranzaksion xarajatlarning o'sishi faoliyatni kengaytirish omili bo'lib, huquqiy bozorni, noqonuniy bozor o'rniga almashtiradi.

Noqonuniy bozorlarning tranzaksion xarajatlarning bir qismi sifatida tadqiqotchilar quyidagilarni ta'kidlaydilar:

⁷⁵Малахов С. Транзакционные издержки и макроэкономическое равновесие // Вопросы экономики. - 1998. - №11. - С.78-96.

- qonuniy bozorlarda noqonuniy usullardan foydalanish xarajatlari (mansabdor shaxslarga pora berish, korrupsiya natijasida yuzaga kelgan noaniqlik bilan bog‘liq xarajatlar);

- qonuniy bozorlarga kirish va ushbu bozorlarda rasmiy qoidalar doirasida faoliyat yuritish xarajatlari.

2.2.2-jadval

Tranzaksion xarajatlar tarkibi va tuzilishi⁷⁶

Xarajatlar turlari	Xarajatlar tarkibi
Yuridik shaxsni (korxonani) ro‘yxatdan o‘tkazish	Notarial xarajatlar(nizom va ta‘sis jamg‘armalar yig‘ilishi to‘g‘risida qaror tayyorlash), Davlat miqyosidagi yordam xizmati, boj to‘lovi va boshqa shunga o‘xshash xarajatlar
Faoliyatni tanlashga oid xarajatlar	Faoliyatning konkret turi, unga hos axborot va konsalting xizmatlari, ishlab chiqarilgan mahsulotni sertifikatlashtirish bo‘yicha litsenziya olish xarajatlari
Kredit va kreditlarni jalb qilish	Kredit qarzlarni, birja ma‘lumot va maslahat xizmatlarini to‘lash, bank komissiyalarini to‘lash, jarimalar va penyalarni to‘lash xarajatlari.
Shartnomalarni tayyorlash, tasdiqlash va nazorat qilish	Shartnomalarni tayyorlash va tasdiqlash, konsalting va xuquqiy xizmatni to‘lash, vakillik xarajatlari, kontragentlarni sug‘urta va monitoring qilish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar
Reklama va sotishdan keyingi xizmat	Reklamaning barcha turlarini to‘lash, kafolat berish va kafolatli xizmat uchun xarajatlar
Biznesni yaratish	Mustaqil ekspertlar (baholovchilar), maslahatchilar, auditorlar xizmatlari, axborot xizmatlari uchun imkoniyatlarni to‘lovlar, biznesni birlashtirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar
Biznesni ximoya qilish	Agentliklari xizmatlarini to‘lash, korporativ resurslarni boshqarish va boshqa shunga o‘xshash xarajatlar

Tranzaksion xarajatlarni kamaytirish korporativ foydani oshirish usullaridan biri hisoblanib, ammo shuni ta‘kidlash kerakki, hozirgi vaqtda ularning turli hil ta‘riflari mavjud, bu xarajatlarni tan olish tartibi, ularni miqdoriy baholash usullari va korporativ buxgalteriya hisobi va hisobotida ma‘lumotlarni tizimlashtirishdir. Shu bilan birga, korxonalarining umumiy xarajatlarida tranzaksion xarajatlarning ulushi ortib borishidadir.

Qurilish korxonalarida tranzaksion xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- resurslardan va mulkiy huquqlardan foydalanish (korxonani ro‘yxatdan o‘tkazish, faoliyatni litsenziyalash, binolarni ijaraga olish va aloqa tarmoqlariga kirish huquqi, kreditlar va uskunalarni lizingga olish);

⁷⁶Муаллиф томонидан тузилган

- resurslardan foydalanish huquqini va mulkiy huquqlarni (ishlab chiqarish, sotish, topshirish, iste'mol qilish huquqlari) olish;
- resurslar va mulkiy huquqlarni baholash (tashkiliy-huquqiy shakllarni o'zgartirish, buxgalteriya hisobi, auditorlik xizmatlari, marketing xizmatlari);
- resurslar va mulk huquqlarini himoya qilish (raqobatchilarni istisno qilish, yuridik xizmatlar, biznesni himoya qilish);
- hamkorlarni qidirish va tanlash (reklama, taqdimotlar, hamkorlar haqida ma'lumot to'plash, ularning to'lov qobiliyatini tekshirish);
- xo'jalik shartnomalarini tuzish va ularga rioya etilishini nazorat qilish (kelishuvlar, bitimlar va shartnomalarni rasmiylashtirish);
- xo'jalik shartnomalarini saqlash va huquqbuzarlarga nisbatan jazo choralarini qo'llash (kelishuvlarni kelishish va tuzatish, qo'shimcha imtiyozlar berish, hakamlik sudiga murojaat qilish, qarzni undirish).

Hozirgi kunda korxonalar faoliyatida tranzaksion xarajatlarning hisobini yuritib borish, bizningcha, individualdir. Tranzaksion xarajatlarning tarkibi, hajmi, o'sish dinamikasini tavsiflovchi axborot manbalarini yaratish, ularni minimallashtirishga urinish boshqaruv apparatining barcha bo'limlari uchun hosdir.

Korxonalar buxgalteriya hisobi va hisobotlarida tranzaksion xarajatlar to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish uchun tranzaksion xarajatlar tarkibini asoslash va ularni baholash usullarini ishlab chiqish hamda tegishli ma'lumotlarni umumlashtirish zaruratini paydo qiladi.

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini tizimlashtirish birlamchi kuzatish, xarajatlarni o'lchash, muomala xarajatlari bilan bog'liq iqtisodiy hayot faktlarini joriy guruhlash va yakuniy umumlashtirish orqali ta'minlanadi. Birlamchi monitoring korxonada tomonidan ishlab chiqilgan va turli foydalanuvchilarning tranzaksion xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan majburiy qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan birlamchi buxgalteriya hujjatlarini yuritish orqali amalga oshiriladi.

Tranzaksion xarajatlar tasnifi⁷⁷

Tranzaksion xarajatlarning turlari	Tranzaksion xarajatlarning tasnifi
Axborot qidirish xarajatlari	Kerakli aktivlar va xizmatlarning potensial xaridorlari va sotuvchilari tarkibi, joriy bozor narxlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish
Bitim shartlari va shakli bo'yicha muzokaralar o'tkazish xarajatlari	Muzokaralar olib borish, shartnoma shartlarini ishlab chiqish
Aktivlar va xizmatlar sifatini o'lchash xarajatlari	Aktivlar va xizmatlarning xususiyatlarini o'rganish, ekspertiza o'tkazish, maslahatlar
Shartnoma tuzish xarajatlari	Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish
Oportunizmni kuzatish va oldini olish xarajatlari	Shartnoma shartlariga rioya etilishini nazorat qilish
Mulk huquqlarini spesifikatsiya qilish va himoya qilish qiymati	Sudlar va arbitraj xizmatlari; shartnomani bajarish jarayonida buzilgan mulkiy huquqlarni tiklash uchun zarur bo'lgan vaqt va resurslar
Uchinchi shaxslarning asossiz da'volaridan himoya qilish xarajatlari	Korxonaning yuridik xizmatini, advokatlar xizmatlarini ta'minlash
Shartnoma tarkibini aniqlash xarajatlari	Kerakli aktivlarni sotib olish imkoniyatini aniqlash uchun bozor tadqiqotlari
Hamkorlarni aniqlash xarajatlari	Kontragentlarni o'rganish, joriy bozor narxlarini
Shartnoma taraflarining harakatlarini muvofiqlashtirish xarajatlari	Tomonlarning uzluksiz o'zaro ta'sirini o'z ichiga olgan shartnomalar tuzishda yuzaga keladi, bu esa korxonaning maxsus tuzilmasini yaratishga olib keladi.
To'liq bo'lmagan ma'lumotlar bilan bog'liq xarajatlar	Bozordagi ma'lumotlarning yetarli emasligi bitimni rad etishga olib kelishi mumkin
Oportunizmning narxi	Korxonada, shuningdek tashqi shartnomalar tuzishda, bajarmaslik, kontragentning insofsizligida paydo bo'ladi.
Ayirboshlashdan oldingi tranzaksion xarajatlar	Narxlar va mumkin bo'lgan alternativlar, mahsulot sifati va kontragentning ishonchliligi haqida ma'lumot olish narxi va boshqalar.
Ayirboshlash jarayonida yuzaga keladigan tranzaksion xarajatlar	Ular navbatda turish, notarial tasdiqlangan hujjatlarni olish, sug'urta olish, to'lovlarni amalga oshirish va boshqalar bilan bog'liq xarajatlardan iborat.
Ayirboshlashdan keyin yuzaga keladigan tranzaksion xarajatlar	Ular shartnomalarni himoya qilish, ularning bajarilishini tekshirish, sifat nazorati va boshqalarni o'z ichiga oladi.
Qidiruv xarajatlari	Qidiruv bilan bog'liq xarajatlar turlari: maqbul narx, tovarlar va xizmatlar, sotuvchilar, xaridorlar haqida ma'lumot
Muzokaralar narxi	So'rov va zahira narxi, xaridorlar va sotuvchilar haqida ma'lumotni shakllantirish
Shartnoma tuzish xarajatlari	Shartnomani ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar, shu jumladan uni amalga oshirish jarayonida kontragentlar, shu jumladan bitim taraflari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda uchinchi shaxslarni jalb qilish tartibi, shuningdek kutilmagan holatlar yuzaga kelganda.
Xarajatlarni monitoring qilish	Shartnoma shartlarini har bir kontragent tomonidan bajarilishini nazorat qilish
Narxlarni kelishish	Tomonlarni shartnomani bajarishga majburlash qiymati. to'liq yoki qisman uning buzilishi bilan bog'liq
Mulk huquqlarini himoya qilish xarajatlari	Korxonalar va davlat tomonidan taqdim etilgan huquqbuzarlardan himoya qilish bilan bog'liq xarajatlar

⁷⁷Muallif tomonidan tuzilgan

Birlamchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida xarajatlar baholanadi va buxgalteriya registrlarida ma'lumotlar tizimlashtiriladi. Tranzaksion xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish buxgalteriya hisobi registrlari va hisob siyosati hujjatlari bilan birga ishlab chiqilgan va tasdiqlangan moliyaviy hisobot shakllarida amalga oshiriladi.

Tranzaksion xarajatlarning o'zgarishiga quyidagi ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi.

1. Tashqi ta'sir etuvchi omillar: jamiyatning siyosiy barqarorligi, qonunga bo'ysunuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, inflyatsiya jarayonlari, soliqqa tortishning amaldagi tizimi va iqtisodiyotning axborot infratuzilmasi.

2. Ichki ta'sir etuvchi omillar: korxonalar faoliyati turlari, aktivlar tarkibi va o'z va ssuda kapitali manbalarining qiymati.

Omillarning ta'sir qilish usullari:

- uzoq muddatli shartnomalar tuzish imkoniyatini beradi, xavf va xarajatlarni kamaytiradi;
- kontragentlarning opportunistik xatti-harakatlari xavfini kamaytiradi, xarajatlarni kamaytiradi;
- xarajatlarning oshishiga olib keladi;
- korporativ buxgalteriya hisobida soliqlar va yig'implarni hisoblash quyi tizimini yaratish, soliq hisobotini shakllantirish xarajatlarning oshishiga olib keladi;
- axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, xarajatlarni kamaytiradi;
- royalti xarajatlarni oshiradi;
- ro'yxatga olishni talab qiladigan aktivlarning mavjudligi, foydalanish huquqini berish uchun to'lovlar, bojxona to'lovlari xarajatlarni oshiradi;
- foiz to'lovlari, kapitalni jalb qilish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar, xarajatlarni oshirish.

Amaliyot va nazariyaning o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish maqsadida, bizning tadqiqotlarimizga ko'ra, quyidagilarni amaliyotga joriy qilish zarur:

- tranzaksion xarajatlar hisobi uslubiyotini ishlab chiqish, ular bo'yicha axborotlarni moliyaviy hisob va hisobotlarda tizimlashtirish;
- operatsion xarajatlar tarkibini ularning kelib chiqqan omillariga asoslanib hisobga olish;
- tranzaksion xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish;
- korxonalarda tranzaksion xarajatlar hisobini shakllantirish.

Umuman olganda, qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobining boshlang'ich tartiblarini yuritishda quyidagi tranzaksion xarajatlar hisobini yuritib borish tavsiya etiladi:

- korxonani ro'yxatdan o'tkazish – unda quyidagi xarajatlar hisobga olinishi mumkin: ya'ni, notarial xizmatlar uchun to'lanadigan haq, davlat tashkilotlari ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar, soliq organlaridan ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq davlat bojini to'lash xarajatlari, budjetdan tashqari jamg'armalar va shunga o'xshash boshqa xarajatlar;

- olib boriladigan faoliyat turlarini litsenziyalash (tanlash)- belgilangan qonuniy faoliyatning ba'zi turlarini amalga oshirish uchun litsenziyalar olish, ishlarni, xizmatlarni, mahsulotlarni sertifikatlash xarajatlari, zarur axborotlarni olish, maslahat-konsalting xizmatlari bilan bog'liq, autsorsing xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar va boshqa xarajatlar;

- aktivlarni tan olinishidagi xarajatlar - davlat va patent bojlarini to'lash, intellektual mulk faoliyati natijalaridan foydalanish huquqi uchun to'lovlar, bojxona to'lovlari va yig'imlar, aktivlardan foydalanish bilan bog'liq boshqa xarajatlar;

- bank kreditlarini jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar - kredit shartnomalarini tuzish bo'yicha axborot va konsalting xizmatlari uchun to'lanadigan xarajatlar, bank komissiyalari, foizlar, jarimalar, yig'imlarni to'lash bo'yicha xarajatlari, majburiyatlar bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar;

- shartnomalarni tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazish va uni monitoring qilish – turli korxonalar bilan shartnomalarni tayyorlash va bajarish, shartnoma tuzish vaqtidagi konsalting va yuridik xizmatlar uchun to'lovlar, vakillik xarajatlari,

kontragentlarni tekshirish xarajatlari, tuzilgan shartnomalarni bajarish va uni monitoring qilish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar;

- korxonalarni tugatish, qayta tashkil etish, qo‘shib yuborish va birlashtirish - aktiv va majburiyatlarni qayta baholashdagi mustaqil ekspertlar uchun xarajatlar, maslahatchilar, auditorlik xizmatlari xarajatlari, korxonalarni tugatish, qayta tashkil etish, qo‘shib yuborish va birlashtirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar;

- korxonaning biznes xavfsizligini ta‘minlash - xavfsizlik agentliklari xizmatlari xarajatlari, korxonaning o‘z xavfsizligi va biznes xavfsizligi bilan bog‘liq boshqa xarajatlar.

Qator iqtisodchi olimlar korxonalarining tranzaksion xarajatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tashkil etish va hisobga olishning qator usullarini taklif qilishgan bo‘lib, ulardan I.G.Panjenskaya tranzaksion xarajatlarni hisobga olishning ikkita variantini ko‘rib chiqqan, unga ko‘ra, “ulardan biri alohida sintetik hisobni ajratishni o‘z ichiga oladi, ikkinchisi esa ish tartibiga o‘zgartirishlar kiritishni o‘z ichiga olib, buxgalteriya hisoblar rejasi va xarajatlar turlari bo‘yicha maxsus analitik hisoblarni joriy etishdir⁷⁸ degan fikrni aytib o‘tgan .

Xozirgi kunda qurilish korxonalarida boshlang‘ich hisob tizimining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, ayrim turdagi xarajatlarni hisobga olishda e‘tiborsizlikni yuzaga keltirib chiqarmoqda.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib bitim yoki shartnomalarni tuzishda har bir sotib olinadigan aktivlar bo‘yicha tranzaksion xarajatlarning qiymatlarini ularning boshlang‘ich qiymatlariga qo‘shish va ular bo‘yicha schyotlar ochilishi maqsadga muvofiq hisoblanib, ular quyidagilardir:

- asosiy vositalarni sotib olinishida ularning har bir turi tarkibida tranzaksion xarajatlar schyotlarni ochish;

- lizingga olingan asosiy vositalarni sotib olinishida ularning har bir turi tarkibida tranzaksion xarajatlar schyotlarni ochish;

⁷⁸ Панженская И.Г. 2009. Метод Обеспечения Финансового И Управленческого Учета Транзакционных Издержек. Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика, КиберЛенинка; Государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Адыгейский государственный университет», выпуск 1, стр. 91-98.

- nomoddiy aktivlarni sotib olinishida ularning har bir turi tarkibida tranzaksion xarajatlar schyotlarni ochish;
- xom ashyo va materiallarni sotib olinishida ularning har bir turi tarkibida tranzaksion xarajatlar schyotlarni ochish;
- tayyor mahsulotlarning sotilishida ularning har bir turi tarkibida tranzaksion xarajatlar schyotlarni ochish;
- tovarlarni sotilishida ularning har bir turi tarkibida tranzaksion xarajatlar schyotlarni ochish.

2.2.4.-jadval

“And Tex-Naz” va “Just Moment” MCHJlarning ta’minot jarayonida sotib olingan asosiy vosita va xom ashyo va materiallar bo‘yicha ko‘rsatkichlar haqida ma’lumot⁷⁹. (ming so‘mda)

Aktivlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
And Tex-Naz					
Asosiy vositalar	-	-	-	356000	830000
Xom ashyo va materiallar	17 126 874	17 598 472	16 786 112	21 956 148	26 314 320
Jami	17 126 874	17 598 472	16 786 112	21 956 148	26 314 320
Just moment					
Asosiy vositalar	-	-	-	-	-
Xom ashyo va materiallar	13 973 145	14 598 784	10 247 632	14 789 879	19 456 541
Jami	13 973 145	14 598 784	10 247 632	14 789 879	19 456 541

Qurilish korxonalarida transaksion xarajatlar schyotlarining analitik hisobi yuritilishi ta’minot jarayonlarida xarajatlarni to‘g‘ri tasniflashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Tadqiqot ob’ekti hisoblangan qurilish korxonalarida yuqorida schyotlar bo‘yicha hisob yuritilmagan va ta’minot jarayonlarida transaksion xarajatlarni alohida hisobda aks ettirishga e’tibor berilmagan. Korxonalarda faqatgina xizmat safari xarajatlarning yillar bo‘yicha umumiy hisob-kitoblar mavjud xolos, ularning tarkibida ta’minot jarayonlarida asosiy vosita, xom ashyo va materiallarni sotib olishga sarflangan xizmat safari xarajatlari va boshqalarning salmog‘i alohida, ya’ni transaksion xarajatlar ajratilgan holda hisob-kitob qilinmagan. Shuningdek, ushbu korxonada boshqaruv hisobida transaksion

⁷⁹ “And Tex-Naz” va “Just Moment” MCHJlarning ma’lumotlari asosida tayyorlangan

xarajatlarning tarkibiga kiritiluvchi yuqorida biz sanab o‘tgan xarajatlar bo‘yicha hech qanday ma’lumot mavjud emas.

2.2.5.-jadval

“And Tex-Naz” va “Just Moment” MCHJning sotib olingan aktivlar bo‘yicha xarajatlar haqida ma’lumot⁸⁰. (ming so‘mda)

Xarajatlar nomi	2018	2019	2020	2021	2022
And Tex-Naz					
Shartnomalar tuzishdagi xizmat safari xarajatlari	1250	1600	-	8500	9000
Rasmiylashtirish va huquqshunoslar uchun xarajatlar	-	-	-	8000	9500
Shartnoma tuzishdagi boshqa xarajatlar	-	-	-	210	265
Jami				16710	18765
Umumiy xizmat safari xarajatlari	8750	10400	8430	12400	14600
Just moment					
Shartnomalar tuzishdagi xizmat safari xarajatlari	760	843	-	2100	2450
Rasmiylashtirish va huquqshunoslar uchun xarajatlar					
Shartnoma tuzishdagi boshqa xarajatlar					
Jami	760	843	-	2100	2450
	1200	1430	1700	5400	6100

“And Tex-Naz” MChJning o‘rganayotgan yillarimizdagi yillarda sotib olgan asosiy vositalarning umumiy qiymati 1186000 ming so‘m bo‘lib, ushbu summaning tarkibiga kiritilgan transaksion xarajatlarni yuqorida aytib o‘tganimizdek “Asosiy vositalarni sotib olish bo‘yicha transaksion xarajatlar schyoti”da va materiallar tarkibiga kiritilgan transaksion xarajatlarni esa, “Materiallarni sotib olish bo‘yicha transaksion xarajatlar” schyotida alohida hisob-kitobni yuritish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi schyotlari ochilishi taklif etilayotgan tranzaksion xarajatlarning tarkibida “Mol yetkazib beruvchi va mijozlarni qidirish va topish”, “Muzokaralar o‘tkazish va shartnomalarni tuzish”, “Tomonlarning manfaatlarini ta’minlash”, “Axborot almashish”, “Tranzaksiyalar, ya’ni o‘tkazmalarni o‘tkazish”, “Mulkiy huquqlarni himoya qilish”, “Resurslarga egalik qilish”, “Ma’lumotlarni qidirish”, “Resurslarni baholash va sifat nazorati”, “Opportunistik hatti-harakatlardan himoya qilish” va boshqa xarajatlarni kiritish zarur. Bunday hisob tizimini yuritib borish korxonalarining tranzaksion xarajatlar bo‘yicha tizimlashtirilgan va hujjatlashtirilgan ma’lumotlarning shakllantirilishi hamda ularni nazorat qilinishiga olib keladi va shu

⁸⁰ “And Tex-Naz” va “Just Moment” MCHJlarning ma’lumotlari asosida tayyorlangan

2.2.6-jadval.

Tranzaksion xarajatlar hisobini yuritishda taklif etilayotgan namunaviy qaydnoma⁸¹

Xarajatlarning turlari	Kredit aylanma bo'yicha schyotlar (so'mda)						Debet aylanma bo'yicha schyotlar
	5800	6000	6700	6800	6900	Har bir schyotning ochiladigan subschyotlari bo'yicha
1	2	3	4	5	6	7	8
Korxonani ro'yxatdan o'tkazish xarajatlari							
Ta'sischi korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat bojini to'lash xarajatlari							
Litsenziatning arizasini ko'rib chiqish uchun hisoblangan xarajatlar							
Litsenziyalash faoliyati uchun kechiktirilgan xarajatlarning bir qismi							
Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lanadigan davlat boji							
Patentga talabnomani ro'yxatdan va ekspertizadan o'tkazish uchun patent boji hisoblaniishi							
Litsenziat intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish huquqi uchun haq to'lash							
Intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish huquqi uchun belgilangan bir martalik to'lov hisobdan chiqarilishi							
Ta'sischi ustav kapitalidagi ulushini to'lash uchun bank xizmatlari uchun to'lagan haq							
Bank xizmatlari xarajatlari ta'sischining ustav kapitalidagi ulushining boshlang'ich qiymatiga kiritilishi							
To'langan davlat boji ta'sischining ustav kapitalidagi ulushining boshlang'ich qiymatiga kiritilishi							
Korxonaning ro'yxatdan o'tkazish xarajatlari uchun ta'sischiga to'lanadigan kompensatsiya xarajatlari							
Kuzatuv Kengashi yoki ta'sischilar yig'ilishlarini tashkil etish va xizmat ko'rsatish xarajatlari							
Boshqaruv organi yig'ilishlarini o'tkazish xarajatlari							
Kechiktirilgan xarajatlar tarkibida mahsulotlarni, xizmatlarni sertifikatlash							
Mahsulot, ish va xizmatlarni sertifikatlash bo'yicha xarajatlar							
Axborot, konsalting, vositachilik va boshqa xizmatlar, bojxona to'lovlari va sotib olish bilan bog'liq yig'imlar uchun to'lovlar:							
Shartnomalarni bajarish va monitoring qilish bo'yicha konsalting, yuridik xizmatlar xarajatlari							
Tarjimonlar xizmatlari xarajatlari							
Shartnomalar shartlarini buzish bilan bog'liq jarimalar va peniyalar							
Korxonaning sudda ishtirok etishi uchun davlat boji undirilishi							
Sudda ishlarni ko'rib chiqish xarajatlari							
Mustaqil ekspert baholovchi xizmatlari xarajatlari							
Auditorlik xizmatlari xarajatlari							
Korxonada xodimlari tomonidan yoki outsorsing shartnomasi bo'yicha hisob va hisobotlarni tayyorlash xarajatlari							
Ko'rsatilgan reklama xarajatlari							
Sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofotlari							
Xavfsizlik agentliklari xizmatlari xarajatlari (korxonaning o'z qo'riqchilariga xizmat ko'rsatish)							
Jami							

⁸¹Муаллиф томонидан тузилган

orqali umumiy xarajatlarni kamaytirish maqsadida tahlil qilish imkoniyatini beradi deb hisoblaymiz.

Endi, tranzaksion xarajatlarini hisobda aks ettirishda ularni buxgalteriya qaydnomalarda hisobga olish tizimiga o'tadigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, xo'jalik muomalalarini buxgalteriya hisobi registrlarida yuritish korxonaning hisob siyosatiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Registrlarni yuritish tizimini shakllantirish buxgalteriya hisobini yuritish usullaridan biri bo'lib, unga ko'ra turli qaydnomalarni tuzish va ularni hisobda yuritib borish tizimini aks ettiradi. Hozirgi vaqtda korxonalar buxgalteriya registrlarining shakllari, ya'ni qaydnomalarni mustaqil ravishda ishlab chiqishlari mumkin. Ana shu maqsadda biz tomonimizdan tranzaksion xarajatlar hisobini olib borishda qaydnomaning namunaviy shakli ishlab chiqildi (2.2.6-jadval).

Avvalo, korxonaning boshlang'ich buxgalteriya hisobi hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish yoki umumlashtirilayotgan ma'lumotlarning mazmunini, reestr (qaydnoma)ning shaklini va undagi buxgalteriya yozuvlarining xususiyatlaridan kelib chiqib tuzish zarur. Buxgalteriya hisobida sintetik hisoblarni yuritish bo'yicha korxonalarining tranzaksion xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish analitik buxgalteriya ob'ektlarini o'z ichiga olgan buxgalteriya hisobi registrlari shakllarini ishlab chiqishni, hisob-kitob yozishmalarini va korxonaning ichki hisobot shakllarida, shuningdek balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini shakllantirishga imkon beradi.

2.3-§. Ta'minot jarayoni logistika xarajatlarini nazorat qilish va ularning buxgalteriya hisobini takomillashtirish

Xozirgi iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida qurilish korxonalari o'z faoliyatlarini ma'lum bir rejalashtirish tizimidan foydalanmay tashkil qilishning iloji yo'q. Biroq, barcha ishlab chiqaruvchi korxonalarida va iqtisodiyotning bu sohasida faoliyatni rejalashtirish va buxgalteriya hisobining tashkiliy jihatlarini o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim.

Ma'lumki, barcha ishlab chiqaruvchi korxonalar xajmi va ixtisosligi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Xar bir tarmoq korxonalari mahsulot ishlab chiqarish, ish-xizmatlar ko'rsatish va tayyor mahsulotni sotish jarayonlari bo'yicha o'ziga xos xususiyatlariga ega. Shu bilan birga, ularni ishlab chiqarishning texnologik turi birlashtiradi, bu esa rejalashtirishda tegishli xususiyatlarni hisobga olish zarurligini anglatadi. Shuningdek, ta'minot, ishlab chiqarish xamda sotish jarayonlarini rejalashtirilishi xar bir sohadagi barcha korxonalar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Zero, moddiy resruslarni sotib olishdan ishlab chiqarish jarayoni va sotish jarayoni rejalarini tuzish va shundan so'ng ehtiyojdan kelib chiqib xom ashyoni sotib olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Korxonalarining faoliyat yuritish sohasiga ko'ra ularda qo'llaniladigan buxgalteriya hisobining ham uslubiy, ham amaliy jixatdan xilma-xilligi rejalashtirish jaranining ham xilma-xilligini belgilaydi. Shunday qilib, agar savdo korxonalari, buxgalteriya hisobini buyurtmalariga asoslangan usulni qo'llasa, sanoatda korxonalarida bir korxonada doirasida ikki yoki undan ortiq buxgalteriya hisobi bo'linmalari mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, vertikal integratsiyalashgan neft korxonalarida xom neft ishlab chiqarish bir vaqtning o'zida jarayon (oddiy) usulda qayd qilinsa, neft mahsulotlarini qayta ishlash va sotish korxonalarida navbatma-navbat hisob-kitob qilish usuli qo'llaniladi.

Korxonalarda rejalashtirish tizimini shakllantirishning asosiy maqsadi ularda amalga oshirilishi zarur bo'lgan jarayonlar majmuini maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishdan iboratdir. Xo'jalik jarayonlarining barcha turlarini xo'jalik muomalalarini aks ettirilishidan tortib to uni hisobotlashtirish jarayonigacha, shuningdek, ularni tayyorlash ketma-ketligini aniqlash va belgilab olish zarur bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining o'zaro aloqalari rivojlanib bormoqda. Shuning uchun rejalashtirish jarayonida ishlab chiqarish, ta'minot va sotish jarayonlarini puxta ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bularning xar birini o'zaro uzviy bog'likligini ta'minlashga erishish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, sotish jarayonini

hisobga olgan xolda ishlab chiqarish jarayoni rejasi, shu asosida ta'minot jarayonining rejasi hisoblab chiqiladi.

Korxonalarining rivojlanishi natijasida ularda tayyorlanayotgan hisobotlarning ahamiyatini oshirishda ichki va tashqi foydalanuvchilarning o'zini ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ham tashqi va ichki foydalanuvchilarni tegishli qarorlarini qabul qilinishi albatta korxonalar tomonidan tayyorlanib foydalanuvchilarga taqdim etilishi zarur bo'lgan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligiga bevosita bog'liqdir

Ma'lumki, moliyaviy hisobot korxonaning belgilangan davrdagi ta'minot, ishlab chiqarish va sotish faoliyatini qamrab oladigan va ushbu davrda korxonalar faoliyatining ba'zi jihatlari, ya'ni uning moliyaviy holatini, foyda yoki zararini, pul oqimlari holatini va xususiy kapitalidagi o'zgarishlarini o'zida ifodalaydi

Korxonalarda tuzilayotgan moliyaviy hisobotlar, nafaqat korxonalar uchun, balki shu korxonalar ma'lumotlariga qiziquvchi tashqi foydalanuvchilar uchun tuzulishi va undagi moliyaviy ma'lumotlar korxonaning butun faoliyatini to'liq qamrab olishi, to'g'ri, aniq, shaffof bo'lishi hamda ichki va tashqi foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilishda qo'l kelishi, lozim

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yangi darajaga ko'tarish uchun biznes tili bo'lgan buxgalteriya hisobining xalqaro miqyosidagi tizimini korxonalarimizga tadbiq qilish kerak. Bunda asosiy vosita korxonalar moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlash bo'ladi.

O'zbekistonda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida, unga mos keladigan Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) tuzish amaliyoti rivojlanib bormoqda. Shuning uchun amaliyot bilan shug'ullanayotgan buxgalterlar yetakchi davlatlar va qo'shni davlatlarda shakllantirilgan tajribalarni o'rganishi hamda shu asosida milliy tizmini shakllantirishi kerak. Bunda bir qancha asosiy omillar, jumladan, mamlakatimizning geografik joylashuvi, biznes muhiti, investitsiyalar oqimi va asosiy investorlar tabiati, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishlari va resurlarning hajmini e'tiborga olish kerak. Hozirgi

kunda juda ko'p davlatlarda kam e'tibor qaratilgan milliy mentalitet va maxalliy korxonalaridagi korporativ madaniyatga ham asosiy e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Sanoat korxonalarida iqtisodiyotning barqaror bo'lmagan sharoitida rejalashtirilgan ishlarni tashkil etish, mehnat zichligi va rejalashtirish sifatiga ta'sir qiluvchi rejalashtirish standartlarini (boshlang'ich partiyalar o'lchamlari, tovar-moddiy zaxiralar hajmi, partiya hajmi, tovar-moddiy zaxiralar hajmi va boshqalar) tanlash qiyin. Ishlab chiqarish standartlarini aniqlash uchun odatda barqaror sharoitlarda olingan statistik ma'lumotlar yig'iladi. Qiyinchiliklarga qaramay, ishlab chiqarish korxonalarida rejalashtirish tizimini joriy etish quyidagi samaralarni beradi:

1. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish yoki jami xarajatlarini byudjetlashtirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish korxonaga qiymat qo'shmaydigan ko'plab haqiqiy xarajatlarni aniqlash imkonini beradi.

2. Standartlar va texnologik xaritalarni qayta ko'rib chiqish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun zaxiralarni topish. Ishlab chiqarish korxonasida boshqaruv hisobini tashkil etish operatsion va ishlab chiqarish hisobini joriy qilmasdan mumkin emas. Ushbu sohadagi muhim qadamlardan biri texnologik xaritalar va standartlarni qayta ko'rib chiqish bo'lib, ularning aksariyati sobiq ittifoq davridan qolgan. Ishda buzilgan har qanday me'yorlar o'g'irlik va boshqa qonunbuzarliklarga olib keladi. Odatda, ko'plab loyihalarda standartlarni qayta ko'rib chiqish natijasida mahsulot tannarxini optimallashtirish samarasi mahsulot tannarxining 0,3 dan 4,5 foizigacha bo'ladi. Qurilish tarmog'ida barcha xarajatlarni nazorat qilish va texnologik xaritalarni qayta ko'rib chiqish natijasida xarajatlar 7,0 foiz iqtisod qilindi. Bu qurilish sohasida hali ham katta salohiyat mavjudligini isbotlaydi (2.1.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar).

3. Korxonalarda tayyor mahsulot va materiallar zahiralari tarkibini o'zgartirish. Ko'pgina korxonalarda "talab taklifni belgilaydi" degan gapga qaramay, tegishli mutaxassislarni beparvoligi natijasida ishlab chiqarish hajmi

sotish rejasi bilan emas, balki ishlab chiqarish rejasi bilan belgilanadi. Oqibatda omborda iste'molchilar talabiga ega bo'lmagan tovarlar soni ko'payib, zarur mahsulotlar taqchilligi yuzaga keladi. Korxonada birinchi navbatda bunday muammo yuzaga kelmasligini ta'minlashi kerak, agar bunday muammo yuzaga kelsa, u savdo byudjeti va ishlab chiqarish byudjeti o'rtasidagi yaxlit aloqani ta'minlashi kerak. Bu korxonada menejerlaridan nafaqat savdoni rejalashtirish jarayonini, balki tijorat xodimlarining ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ham tushunishni talab qiladi.

4. Savdo-ishlab chiqarish korxonalarining kelishilgan ishining natijasi ombordagi likvid bo'lmagan zahiralarning qisqarishi va zarur mahsulotlarning tanqisligi ehtimolining kamayishi. Korxonalarda ta'minot sharoitlarini tahlil qilishda sifat jihatidan yangi bosqichga o'tish uchun byudjet tizimini joriy etish zarur. Byudjetni rejalashtirish tizimini amalga oshirish uchun boshqa buxgalteriya tizimlari uchun narx tarkibining barcha shartlarini taqqoslanadigan shaklga keltirish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, hisob-kitoblarning likvidlik darajasini hisobga olgan holda (naqd pulsiz mablag'lardan foydalanganda) turli provayderlarning narxлари va shartlarini solishtirish mumkin.

Yopiq rejalashtirish tizimining ajralmas qismi bo'lgan boshqaruv hisobi tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun menejerlarda turli xil buxgalteriya standartlarini integratsiyalashuvi yoki muvofiqligi bilan bog'liq bo'lgan savollarni tobora o'rtaga tashlanmoqda. Korxonalarda boshqaruv hisobi va hisoboti IAS, IFRS, US GAAP yoki ularning aralash versiyasiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Ammo bu standartlarning har biri foydalanilganda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rejalashtirish tizimi kelajakdagi iqtisodiy faoliyatga qaratilgan. IFRS hodisalarni qayd etish va hisobot berishni tartibga soladi. Byudjet tizimida rejalashtirish va boshqaruv hisobi o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Bu, birinchi navbatda, reja va faktni tahlil qilish mazmunli va taqqoslanadigan bo'lishi uchun zarurdir.

Korxonada uchun yagona standart sifatida MHXSni tanlash va bu standartlarni, shuningdek tasdiqlangan asosiy hisob siyosati va asosiy hisobot shakllarini, balans, foyda va zarar va pul oqimi to'g'risidagi hisobotni tuzish butun byudjetni olish

imkonini beradi. MHXSdan foydalanganda, u hisobotdagi barcha raqamlar bir xil tarzda talqin qilinishini ta'minlaydi, buning asosida biz har qanday tahlil kontekstida moliyaviy ko'rsatkichlarni osongina solishtirishimiz mumkin. Taqqoslash natijasida olingan natijalar, shuningdek, rejalashtirilgan va haqiqiy ma'lumotlarni tahlil qilish bizga oldindan belgilangan va tasdiqlangan maqsadlarga erishish uchun harakatlarni o'zgartirish bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish imkonini beradi. Korxonalar guruhida yagona hisobot standartlarini qo'llash aktivlarni tez va aniq birlashtirish, ularni shaffof qilish va mulkdorlar va yuqori boshqaruvni strategik va operatsion qarorlar qabul qilish uchun etarli tahliliy ma'lumot bilan ta'minlash imkonini beradi. Buning sababi, MHXSga muvofiq tayyorlangan hisobot barcha manfaatdor foydalanuvchilarga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun eng ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi. Uzoq vaqt davomida kompaniyalarga MHXS hisoboti faqat uni tashqi foydalanuvchilarga taqdim etish uchun kerak, deb hisoblangan. Bugungi kunda ko'pchilik menejerlar o'z tashkilotlarini yanada samarali boshqarish uchun MHXS bo'yicha moliyaviy hisobotga muhtoj ekanligini tushunishadi, chunki u tashkilot faoliyatini tashqi va ichki maqsadlarda baholashning o'ziga xos va aniq usulini ta'minlaydi. Ko'pgina etakchi korxonalar MHXS tamoyillariga muvofiq boshqaruv hisobi tizimini ishlab chiqmoqdalar. MHXSdan boshqaruv hisobi standartlari sifatida foydalanish ko'pchilik korxonalar uchun eng oqilona yechim hisoblanadi. Ko'pgina xo'jalik operatsiyalari uchun buxgalteriya hisobi tamoyillari va qoidalarini qayta yaratishga hojat yo'q, chunki MHXS va uning talqini tartibga solish va buxgalteriya hisobini soddalashtiradi

Qurilish kompaniyalari MHXSga o'tishda to'rtta asosiy maqsadni qo'yadilar:

- manfaatdor foydalanuvchilar, birinchi navbatda potentsial investorlar uchun moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirish. Biz xorijiy investorlarni jalb qilish vositasi sifatida MHXS asosidagi hisobotdan foydalanamiz;

- MHXS moliyaviy hisobotlarida taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligidan boshqaruv maqsadlarida foydalanish. Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirishda korxonalar rahbariyati xalqaro standartlar talablariga moslashtirilgan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan ishlaydi.

- korxonaning ijobiy imidjini yaratish, brend xabardorligini oshirish, reytinglarda ishtirok etish.

- asosiy korxonalari aksiyadorlik jamiyatlari bo'lgan va qimmatli qog'ozlari fond bozorida savdo tashkilotchilari orqali sotiladigan korxonalar guruhlarini bo'yicha qonun hujjatlariga buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS)ning asosiy qoidalaridan ishlab chiqarish korxonasini boshqarish maqsadlarida foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish asosida xalqaro boshqaruv hisobi amaliyoti bilan aniq bog'liqlik mavjud

BHHS № 2 "Tovar-moddiy zaxiralar" ga muvofiq ishlab chiqarish korxonalarida quyidagi aktivlar guruhlarini ushbu toifaga kiradi:

- sotilgan va ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xom ashyo;
- korxonaning o'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish – tayyorlik bosqichiga yetmagan mahsulotlar, yanada takomillashtirish uchun mo'ljallangan yarim tayyor mahsulotlar (tugallanmagan ishlab chiqarish).⁸²

Buxgalteriya hisobining xalqaro amaliyotida xarajatlarni hisobga olishning bir necha usullari mavjud:

- abzorpshe xarajatlar usuli;
- to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar usuli;
- funksiy bo'yicha xarajatlarni hisobga olish (faoliyatga asoslangan xarajatlar) va boshqalar.

Xarajatlarni hisobga olish usulini tanlash, shuningdek ularni tasniflash hal qilinayotgan boshqaruv muammosiga bog'liq. Boshqaruv hisobining bizning va jahon amaliyotini tahlil qilib, ishlab chiqarish korxonalarini oldida turgan quyidagi asosiy vazifalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

⁸² С. Ташназаров. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Олий ўқув юртлири магистратура мутахассисликлари учун дарслик. – Тошкент: ,2018. – 555 б.

- ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini hisoblash va foyda normasini aniqlash;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish va rejalashtirish;

- mas'uliyat markazlarining ishlab chiqarish faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish.

Tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi sotib olish, qayta ishlash xarajatlari va tovar-moddiy zaxiralarni joriy holatiga keltirish bilan bog'liq boshqa xarajatlar hisobiga shakllanadi.

S.Tashnazarov "Qayta ishlash xarajatlari ishlab chiqarishga chiqarilgan xom ashyoni qayta ishlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. 2-sonli BHHS "Zaxiralar", "Zaxiralar" ga binoan xarajatlar to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita, doimiy va o'zgaruvchan turlarga bo'linadi"⁸³ degan fikrni aytib o'tgan. Xarajatlarni bu guruhlash mahsulot tannarxini aniqlash va foyda normalarini hisoblash uchun boshqaruv hisobida keng qo'llaniladi. Masalan, xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy turlarga bo'lish boshqaruv hisobi tizimining asosini tashkil qiladi

"Tayyor mahsulot" deb nomlangan buxgalteriya hisobi ob'ektlarini tahlil qilish natijasida shuni ta'kidlash kerakki, tayyor mahsulot tannarxiga xom ashyo, materiallar, bevosita mehnat xarajatlari, boshqa to'g'ri moddalarga esa bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish hajmi ko'pincha tashqi omillarga (masalan, materiallar, butlovchi qismlar va boshqalar) bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish korxonasida 2-sonli BHHS "Tovar-moddiy zaxiralar" qoidalarini qo'llash afzalroqdir.

2-sonli BHHS "Tovar-moddiy zaxiralar" xarajatlarni hisobga olishning an'anaviy usulini tartibga soladi. Bunda ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgaruvchan qismi ishlab chiqarishning haqiqiy hajmiga mutanosib ravishda mahsulot birligiga to'g'ri keladigan tannarxga kiritiladi. Ushbu xarajatlarni taqsimlash uchun asos "haqiqiy ishlab chiqarish quvvati" ko'rsatkichidir. Asosiy


⁸³ S. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: ,2018. – 555 b.

tannarxni boshlang'ich tannarxga kiritish tashkilotning ishlab chiqarish ob'ektlarining normal ishlashiga yoki, boshqacha qilib aytganda, prognoz qilingan ishlab chiqarish hajmining mutanosibligiga asoslanadi.

Oddiy ishlab chiqarish quvvati - bu odatdagi ish sharoitida bir necha davrlardagi o'rtacha ko'rsatkichlarga asoslangan kutilayotgan ishlab chiqarish hajmidir. Ushbu qoida mahsulot tannarxiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va ishlab chiqarish korxonalari MHXS standartlariga ustunlik berishlarini taqazo qiladi.

Korxonalarda belgilangan tartib-qoidalarga binoan tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishlarida uzluksiz (doimiy) yoki davriy hisobga olish tizimlarining biridan foydalanishlari mumkin

Korxonalarda uzluksiz hisobga olish tizimidan foydalanilsa tovar-moddiy zaxiralarni kelib tushishi va chiqib ketishi xaqidagi ma'lumotlar ularni hisobga oluvchi schyotlarda batafsil aks ettirib boriladi. Tovar-moddiy zaxiralarni uzluksiz hisobga olish tizimida butun hisobot davri mobaynida tovar-moddiy zaxiralarning qoldig'i summalari va sotilgan (chiqib ketgan) zaxiralarning tannarxi to'grisidagi ma'lumotlar olinishi mumkin.



2.3.1-rasm. Qurilish korxonalarida davriy hisobni qo'llashning xususiyatlari⁸⁴

Davriy hisobga olish tizimi qo'llanilganida yuqoridagining aksi, ya'ni tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatdagi mavjudligi ularni inventarizatsiya qilish natijalari bo'yicha aniqlanadi. Sarflangan (chiqib ketgan) tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

⁸⁴ Муаллиф томонидан тузилган

ularni inventarizatsiya yakunlanishiga qadar aniqlanishi mumkin emas. Sarflangan (chiqib ketgan) tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi davr boshidagi qoldiq summasi va davr mobaynida tushumlarni qo'shish xamda davr oxiridagi qoldiq summasini ayirish yo'li bilan aniqlanadi.

Qurilish korxonalarini buxgalteriya hisobining xususiyati va xarajatlar hisobiga logistik yondoshuv davriy hisobni shu tarmoqqa ham qo'llashni imkoniyatini yuzaga keltirdi. Izlanishda qurilish tarmog'i xususiyatlaridan kelib chiqib, davriy hisob tizimini moddiy boyliklarni sotib olish jarayoniga tadbiiq qilish taklifi ishlab chiqildi. Taklifga ko'ra, mavjud schyotlar rejasiga 9141 "Davriy hisobda materiyallarni sotib olish (Qurilish korxonalarini uchun)" va 9151 "Davriy hisobda materiyallar qoldigini tuzatish (Qurilish korxonalarini uchun)" schyotlarini kiritish va ular yordamida moddiy boyliklarni sotib olish tizimini davriy hisobga olish jarayoni buxgalteriya yozuvlari (provodkalari) asoslandi. Qurilish korxonalarida moddiy qiymatliklarni hisobga olish soddalashtirilishi uchun bu usuldan keng foydalanish tavsiya qilinadi.

Bu jarayonda moddiy boliklar sotib olinganda:

Debet 9141-"Davriy hisobda materiyallarni sotib olish (Qurilish korxonalarini uchun)";

Kredit 6000-"Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar".

Hisobot davri yakunida inventarizatsiya o'tkazilib, moddiy boyliklar qoldig'i aniqlansa va u hisobot davri boshidagi qoldiqdan ko'proq chiqsa:

Debet 2010-"Asosiy ishlab chiqarish" yoki 0820-"Tugallanmagan qurilish";

Debet 1000-"Materiyallar";

Kredit 9141-"Davriy hisobda materiyallarni sotib olish (Qurilish korxonalarini uchun)" buxgalteriya yozuvi beriladi.

Hisobot davri yakunida inventarizatsiya o'tkazilib, moddiy boyliklar qoldig'i aniqlansa va u hisobot davri boshidagi qoldiqdan kamroq chiqsa:

Debet 2010-"Asosiy ishlab chiqarish" yoki 0820 "Tugallanmagan qurilish";

Kredit 9141-"Davriy hisobda materiyallarni sotib olish (Qurilish korxonalarini uchun)" buxgalteriya yozuvi beriladi.

Kredit 1000-"Materiyallar" buxgalteriya yozuvi beriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning qo'llanadigan tizimi tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash mumkin-ki, 2-sonli "Tovar-moddiy zahiralarni" nomli BHXSga muvofiq nafaqat moliyaviy, balki boshqaruv hisobini yuritish ham muvaffaqiyat qozonadi. Shunday qilib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning iqtisodiy foydasi yaqqol ko'rinib turibdi, ular moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashga va real vaziyatni aks ettirishga qaratilgan, bu esa korxonalar hisobotidan foydalanuvchilarga to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish, uni tashkil etishning barcha darajalarida amaldagi buxgalteriya tizimini keskin takomillashtirish va isloh qilishga olib keladi.

II bob bo'yicha xulosa

2-bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

Qurilish korxonalarida xom ashyo va materiyallar bilan ta'minlash jarayonini o'rganish quyidagi xulosalarni yuzaga kelishiga olib keldi:

1. Korxonada asosiy xom ashyo va materiyallar ta'minoti markazlashgan holda tashkil qilinadi. Bu korxonada bo'yicha sotib olishlarni umumiy nazorat qilish imkonini beradi.

2. Korxonada tashish, saqlash xarajatlari uchun sarflarning barchasi umumiy holda bir xil stavka bo'yicha hisobga olinadi va hisobdan chiqariladi. Ushbu xarajatlar tovar-moddiy zahiralarni bo'yicha ta'minotning ustama xarajatlari deb nomlanadi.

3. Korxonada materiyallarni sotib olishda rejali hisob baholari usulini qo'llash tavsiya qilinadi. Ushbu hisobot davri yakunida xaqiqiy xarajatlar summasini aniqlash va farqlar mahsulot tannarxiga kiritilishiga olib keladi.

Biz ta'minot jarayonlarida xarajatlar logistikasini yuritish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilinishi zarur deb hisoblaymiz:

1. Xaridlarni amalga oshirmaslik bo'yicha qaror. (Agar tashkilot harid qilinishi kerak bo'lgan mahsulotni o'zi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lsa).
2. Ta'minot maqsadida qilingan xaridlar tufayli yuzaga kelgan da'volar, jarimalar, penyalar tahlili va nazoratini yo'lga qo'yish bo'yicha qarorlar.
3. Asossiz oshirib yuborilgan xarajatlar summalarini aniqlash bo'yicha maxsus qaror.
4. Yetkazib berish (kelish)da yuzaga kelgan kamomad, aynish, buzilish sabablarini o'rganish hamda ularni qayta qoplash imkoniyatlarini qidirish bo'yicha qaror.
5. Xarajatlarni qisqartirish bo'yicha choralar ko'rish qarori.
6. Yetkazib berish (kelish)ni rejalashtirish (biznes reja) bo'yicha qaror.
7. Tender asosida yetkazib berish shartnomalarini o'z vaqtida tuzish bo'yicha qaror.
8. Ta'minot uchun xaridlarni bajarishdan oldin xarajatlar logistikasi ichki hisobini bozor talablaridan kelib chiqib o'rnatish bo'yicha qaror.

Tranzaksion xarajatlarni o'rganish asosida biz tomonimizdan unga quyidagicha ta'rif berildi: Tranzaksion xarajatlar – ta'minot jarayonlari maqsadida tovarlar tranziti katta masshtabda bo'lgan xaridlardan oldin qilinadigan xarajatlar. Ushbu xarajatlarni sotib olingan aktivlarning boshlang'ich qiymatlari bo'yicha kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash mumkin-ki, 2-sonli "Tovar-moddiy zahiralari" nomli BHXSga muvofiq nafaqat moliyaviy, balki boshqaruv hisobini yuritish ham muvaffaqiyat qozonadi. Shunday qilib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning iqtisodiy foydasi yaqqol ko'rinib turibdi, ular moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashga va real vaziyatni aks ettirishga qaratilgan, bu esa korxonalar hisobotidan foydalanuvchilarga to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish, uni tashkil etishning barcha darajalarida amaldagi buxgalteriya tizimini keskin takomillashtirish va isloh qilishga olib keladi.

III BOB. QURILISH KORXONALARIDA TA'MINOT JARAYONI LOGISTIKA XARAJATLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH


3.1-§. Logistika xarajatlari auditini rejalashtirish

Korxonalarda faoliyat yurituvchi mas'ul xodimlarning ularga yuklatilgan o'z xizmat vazifalariga befarqligi, belgilangan vazifalarni suiste'mol qilishlari va noqonuniy xarakatlarni sodir etishi korxonada faoliyatini izdan chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa korxonalar tomonidan mablag'larning yo'qotilish va turli xarajatlarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Ba'zida, bunday xolatlarni o'z vatida aniqlashda boshqaruv va moliyaviy hisob qoidalari imkoniyatlari yetarli bo'lmasligi mumkin. Ko'pgina xollarda ta'minot jarayoni xodimlari ta'minot korxonalaridan xom-ashyo va materiallarni sotib olishda ishlab chiqarish jarayoni talablarini inobatga olmagan xolda belgilangan miqdordan ortiqcha olinishiga sabab bo'ladilar. Shuning uchun, korxonalarda xaridlarni amalga oshirishda nafaqat miqdor ko'rsatkichlarni (tonna, metr va boshqalar) hisobga olish, balki korxonada ichki imkoniyatlarini inobatga olingan xolda uning moliyaviy imkoniyatlarini xam hisobga olish zarurdir.

Korxonalarda ta'minot jarayonida me'yorida ortiqcha materiallarni sotib olishning oldini olish uchun ishlab chiqarish jarayoni rejasiga mos xolda tuzilgan ta'minot rejasi tuzilishi kerak va u tasdiqlanishi lozim. Ushbu rejaga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Avvalo, qulay ta'minotchini tanlash zarur. Chunki, mol yetkazib beruvchilar bilan o'zaro hisob-kitoblar jarayoni ta'minotning o'z vaqtida amalga oshirilishi, undagi uzilishlarni oldini olishi zarur. Ta'minotchini tanlashda uning imkoniyatlari, joylashgan joyi ya'ni korxonada uzoq yoki yaqinligi kabilarga ham e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Moddiy resurslarni sotib olinayotganda yuk tashish xarajatlarning ortishi moddiy resurslar narxining o'sishiga sezilarli ta'sir qiladi.

Qurilish korxonasi ta'minot tizimini samarali tashkil qilish uchun moddiy resurslarni yetkazib beruvchi korxonalar o'rtasida tanlov o'tkazish uchun maxsus Komissiya tuzilishi mumkin. Komissiya tanlov amalga oshiriladigan yetkazib beruvchilar ro'yxatini tasdiqlashi kerak.



3.2.1-rasm. Yetkazib beruvchilarni tanlash bo'yicha komissiya tarkibi⁸⁵.

Tuzilgan komissiya mol yetkazib beruvchilarning ro'yxatini tuzish davomida ularning barcha imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, iqtisodiy xolatini tahlil qilishi muhim vazifa hisoblanadi. Ta'minotchilarning ro'yxati shakllangach, ta'minot jarayonini boshqarish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis tegishli tartibda sotib olinadigan resurslar narxini bilish maqsadida mol yetkazib beruvchilarga so'rovnomma yuborishi zarur. Yetkazib beruvchilarni tanlash to'g'risidagi qaror jamoaviy ravishda qabul qilinishi va yuqori rahbariyat tomonidan tasdiqlanishi kerak

Zarur xollarda mol yetkazib beruvchini almashtirish xolatlari ham e'tiborga olinishi kerak. Xozirgi sharoitda hech bir narsani to'liq kafolat bilan amalga oshirish mumkin emas. Favqulotda xolatlarda ta'minotchilar tomonidan zarur resurslarni yetkazib berishda uzilishlar vujudga kelishi ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu munosabat bilan shartnoma shartlarini bajarmagan yetkazib beruvchini almashtirish to'g'risidagi qarorlar tegishli tartibda korxonalaraxbariyati miqiyosida qabul qilinishi kerak.

Ta'minot tizimi korxonaning faoliyatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan soha bo'lganligi sababli, uni auditdan o'tkazish ham alohida e'tiborga olinadigan ishlardan biridir. Audit ishlarini rejalashtirishda auditorning ish faoliyati to'liq nazorat qilinsa, ikkinchidan audit ishlarini aniqlash uchun sharoit yaratiladi, uchinchidan tekshirish o'tkaziladigan korxonalar to'g'risida iqtisodiy ma'lumotlar

⁸⁵Muallif tomonidan ishlangan

bilan tanishib borish imkoniyati yaratiladi. Audit o'tkazish rejasi tuzilayotgan korxonaning xo'jalik faoliyatini o'rganish, tahlil qilish tartibi audit xulosasini yozish kabi ishlar hisobga olinib audit muddatlari bilan taqqoslanib chiqiladi. Rejalashtirish asosida mijozning iqtisodiy ma'lumotlarini yig'ish, ichki audit nazorati xizmatini o'rganishga imkoniyat yaratiladi. Audit ishlarini to'g'ri tashkil qilinishida, rejalashtirishga alohida ahamiyat berish kerak.

Audit ishlarini rejalashtirish nazoratni boshlang'ich davri hisoblanib, unda bajariladigan ishlar hajmi, nazorat rejasi va dasturlariga alohida ahamiyat beriladi. Audit ishlari rejalashtirilayotganda auditor tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga (kosalting) e'tibor qaratiladi. Audit nazoratini ta'sir kuchini oshirish maqsadida audit tashkiloti (firmasi) korxonani rahbari bilan reja topshiriqlarini oldindan rejalashtirish, nazorat o'tkaziladigan korxonani faoliyatini to'liqroq o'rganish imkonini beradi. Shu bilan birga korxonani boshqarish-tashkiliy tuzilmalarini, ishlab chiqarish xolati va mahsulot turlarini o'rganish, kapital mablag'lar xolatini tahlil qilish, to'lov qobiliyatini o'rganish uchun asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Auditorlik faoliyati to'g'risida" gi qonunda majburiy va tashabbus tarzida auditorlik tekshirishi o'tkazish (ko'zda tutilgan) belgilangan. Audit nazoratini to'g'ri tashkil qilish faoliyat davomida, bajariladigan ish hajmini to'g'ri aniqlab olishda, mijoz faoliyati bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, ichki nazorat holatini o'rganishga alohida ahamiyat beradi.

"Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish" nomli 300-sonli auditning xalqaro standartiga muvofiq: "Auditni rejalashtirish - bu uning strategiyasi va taktikasini aniqlash, maqsadga eng samarali erishish uchun jarayon va usullarni tanlash - moliyaviy hisobotning ishonchliligini tasdiqlash.

Bizning fikrimizcha, qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni auditini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi kerak (3.2.1 jadval)

TA'MINOT JARAYONI AUDITINING NAMUNAVIY UMUMIY REJASI⁸⁶

Tekshirilayotgan tashkilot: _____

Audit davri: _____

Kishi-soatlar soni: _____

Auditorlik guruhi rahbari: _____

Auditorlik guruhi tarkibi: _____

Rejalashtirilayotgan auditorlik riski: _____

Rejalashtirilayotgan muhimlik darajasi- _____

davomi

№	Rejalashtirilayotgan ish turlari	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Izox
1	Korxonada ta'minot jarayoni uchun ishlab chiqilgan qoidalar bilan tanishish.			
2	Korxonada hisob siyosati va uning ta'minot jarayoni bilan bog'liqligini o'rganish			
3	Ta'minot jarayonining boshqa jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini ko'rish.			
4	Ta'minot jarayonining ob'ektlarini o'rganish			
5	Materiyallar ta'minot jarayonini o'rganish			
6	Qurilish materiyallarini omborda saqlash jarayonini o'rganish			
7	Qurilish materiyallarini qurilish jarayoniga sarflash xarajatlari			
8	Asosiy vositalar ta'minot jarayonini o'rganish			
9	Ta'minot jarayoni auditori bo'yicha hisobot tayyorlash			
10	Ta'minot jarayoni auditori bo'yicha xulosa berish			

*uning nomidan auditorlik xulosalariga imzo chekish huquqiga ega bo'lgan auditorlik tashkiloti rahbari
Auditorlik guruhi rahbari

Auditni rejalashtirish auditning eng muhim bosqichlaridan biridir. Bir tomondan, auditorlik tekshiruvda ishtirok etuvchi mutaxassislardan samarali foydalanish darajasi auditorning auditga qanchalik puxta tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq bo'lib, bu tabiiy ravishda ularning ish vaqti fondidan oqilona foydalanishga va auditorlik tashkilotining mehnat xarajatlarini minimallashtirishga olib keladi va boshqa tomondan, mijoz hisobotida jiddiy moliyaviy xatolarni aniqlanmaslik xavfi. Yuqorida aytilganlarning barchasi auditorlik xizmatlari bozorida auditorlik tashkilotining raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Rejalashtirish, auditning boshlang'ich bosqichi bo'lib, auditorlik tashkiloti tomonidan auditning kutilayotgan hajmi, jadvallari va muddatlarini ko'rsatuvchi

⁸⁶Муаллиф ишланмаси

umumiy audit rejasini ishlab chiqishni, shuningdek auditning hajmi va turlarini belgilaydigan audit dasturini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Sub'ektning moliyaviy hisoboti bo'yicha asosli fikrni shakllantirish uchun zarur bo'lgan auditorlik protseduralarining ketma-ketligi"⁸⁷ auditni rejalashtirishga ushbu yondashuv berilgan

Qurilish korxonalarida audit umumiy rejasining tuzilishi va qo'llanilishi auditorlik tekshiruvlarining tizimli yo'lga qo'yilishiga, audit natijalari sifatiga hamda moliyaviy hisobotda muhim buzib ko'rsatishlarni o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

Iqtisodiy ma'lumotlar yig'ishda mijoz bilan auditorlik firmasi o'rtasida tuzilgan shartnoma shartida qanday xizmat ko'rsatish kelishilganligiga bog'liqdir. Agar mijoz bilan uzoq muddatli shartnoma tuzilgan bo'lib, ish olib borilsa auditor korxonada faoliyati to'g'risida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lib boradi. Audit o'tkazishdagi iqtisodiy ma'lumotlarni to'g'ri tanlash auditordan amaldagi ma'lumotni talab qiladi, chunki ma'lumotlar iqtisodiy mazmuniga qarab ham turkumlanadi. Audit nazoratida iqtisodiy ma'lumotlarni umumlashtirish, yakka tartibda tekshirish talab qilinadi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar umumlashtirilganda faqat bir turli ko'rsatkichlarga e'tibor beriladi.

Iqtisodchi olimlar K.Ahmadjonov va I.Yakubovlar auditni rejalashtirish bo'yicha quyidagi: "Auditda rejalashtirish - audit tekshiruvining maqsadini aniq belgilab olish va shu maqsadga olib boruvchi yo'llarni ishlab chiqishdir. Rejalashtirish jarayonida auditorlik tashkiloti tomonidan audit tekshiruvining vaqti, hajmi va tekshiruv ketma-ketligi belgilanadi. Samarali rejalashtirishni amalga oshirish uchun auditor tekshiruvni o'tkazishdan oldin, bo'lajak mijoz korxonaning o'zi bilan tanishishi va uning faoliyat turini o'rganishi lozim. Umumiy audit rejasi mijoz haqidagi dastlabki iqtisodiy - moliyaviy ma'lumotlarga asoslanadi"⁸⁸ degan fikrlarni berib o'tganlar.

⁸⁷ "Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish" nomli 300-sonli AXS <https://motherhouse.ru/uz/design/standartov-planirovanie-msa-300-330-planirovanie-audita-finansovoi/>.

⁸⁸ Audit-asoslari.K.Ahmadjonov-2010-Darslik.pdf. <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/10/2>

Korxonaning moliyaviy xolatini yaxshilanishida hisob ko'rsatkichlarini to'g'riligi, xo'jalik muomalalarini hujjatlar bilan ifodalashga alohida e'tibor beriladi, chunki turli ko'rinishdagi talon-tarojlik, asosan noto'g'ri hujjatlashtirish oqibatida sodir bo'ladi. Audit nazorati yordamida yo'l qo'yilgan kamchiliklar va xatolarni bartaraf qilish imkoniyati yaratiladi. Auditning asosiy maqsadi, buxgalteriya hisobi va hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarni ishonchligini aniqlab berishdir. Auditor va auditorlik firmalari faqat tijorat strukturalari emas, balki davlat organlari bilan ham o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

Ta'minot jarayonining xususiyatlari bu jarayon auditini rejalashtirish uchun asos yaratadi. Rejalashtirish murakkab va muhim bosqich bo'lib, uni to'g'ri amalga oshirish tekshiruv sifatining ortishiga sabab bo'ladi. Audit amaliyotida ta'minot jarayonini auditini rejalashtirish bo'yicha bir qancha tajribalar bor. Ularning har biri o'z xususiyatiga ega.

Sanab o'tilgan bosqichlar auditni sifatli amalga oshirilishini va belgilangan muddatlarda tekshiruvning tugatilishiga sabab bo'ladi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirgi kunda mamlakatimizda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlaridan biri bu auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari hisoblanadi. 2022-yil 11-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risida"gi 171-son qarori qabul qilindi. Unda auditorlik tekshiruvlarida auditorlik faoliyatining xalqaro standartlarini qo'llash bo'yicha vaziflar belgilab berildi. Shu sababli qurilish korxonalarida ham ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, o'tkazish va hisobot tayyorlash muhim hisoblanadi.

Tekshiruv davomida korxonada auditorlik xulosasida keltirilgan tavsiyalar korxonada xodimlari tomonidan ta'minot jarayonini tashkil etishda foydalanilsa yanada samarali bo'ladi.

3.2-§. Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini o'tkazish tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Zamonaviy dunyoda xarid (ta'minot) tizimi korxonada ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizimning ijobiy ishlashi ishlab chiqarish jarayonining sifatli tashkil etilishiga yaxshi, aksincha bo'lsa salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu jarayonda albatta materiallarning sifatiga ham e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki, ta'minot jarayonida sifatli materiallar xaridi ishlab chiqarish jarayonidagi tayyor mahsulotning ham sifatini oshirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'minot tizimining asosiy vazifasi ishlab chiqarish jarayonida belgilangan vazifalardan kelib chiqib ushbu jarayon uchun kerakli bo'lgan moddiy-texnik resurslar bilan doimiy ravishda o'z vaqtida sifatli ta'minotni amalga oshirishdir. Sotib olingan resurslar to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish jarayoniga yoki saqlash omborlariga xam kirishi mumkin.

Resurslarga quyidagi elementlar kiradi:

- sotib olingan xom ashyo va materiyallar;
- butlovchi qismlar;
- texnologik uskunalar;
- transport vositalari.

Ta'minot (xarid qilish) tizimi ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishda dan muhim rol o'ynaganligi sababli, qurilish korxonalarida moddiy resurslarni ta'minotini puxta o'ylangan rejalar asosida sifatli tashkillashtirish talab qilinadi. Shuning uchun qurilish korxonalarida ta'minot jarayonini rejalashtirishda quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

- ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy resurlar iste'molini joriy yoki istiqbolli tahlil qilish;
- qurilish ob'ektlari uchun tayorlangan smeta loyihalarini o'rganib chiqish va tahlil qilish;
- ob'ektlarni qurish hajmidagi moddiy resurlarning salmog'ini, hamda ulardan foydalanish darajasini aniqlash;
- moddiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish hajmini tahminlash;

- moddiy resurslarning turlari va miqdori, ularning ta'minot manbalari va foydalanish yo'nalishlarini aniqlash.

Qurilish korxonasi ta'minot (xarid qilish) tizimi – bu qurilish korxonasi ob'ektlarni qurish, ta'mirlash va boshqa shu kabi faoliyatlarni olib borish uchun zarur bo'ladigan mehnat vositalari va predmetlari bilan ta'minlaydigan o'zaro bog'liq muomalalar to'plamidir. Ta'minotni jarayonini sifatli tashkil etish bo'yicha korxonaning asosiy vazifasi, ishlab chiqarishni xarajatlarni tejash orqali barcha turdagi zarur moddiy resurslar bilan o'z vaqtida uzluksiz va har tomonlama ta'minlashni olib borishdir. Qurilish korxonalarida ta'minot jarayonining katta qismini materiyallarni sotib olish bo'yicha muomalalar tashkil etadi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun doimo talab qilinadi va qurilish ob'ektlarining moddiy asosini tashkil qiladi.

Moddiy va ishlab chiqarish zahiralari korxonaning aylanma mablag'larini ifodalaydi, ularni ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish faoliyatida ishlatiladigan barcha materiyallar, shuningdek korxonaning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun talab etiladigan bo'lgan materiyallar kiritilsa, ikkinchi guruhga o'z ehtiyojlaridan ortiqcha bo'lgan sotish uchun foydalaniladigan materiyallar kiradi, shuningdek, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar va tovarlar tashkil etadi.

Ta'minotni boshqarish – bu ta'minot jarayonini uzluksiz tashkil etish maqsadida ta'minot jarayoni zanjiri ishtirokchilarining vazifa va majburiyatlarini o'zaro ta'sirini muvofiqlashtirish faoliyatidir.

Korxonalarda xarid qilish (ta'minot) siyosati korxonada ta'minot bo'limi faoliyatining maqsadi va yo'nalishlari belgilanadigan umumiy tavsiyalar bo'lib, har bir korxonada o'zi uchun alohida ishlab chiqadigan ichki me'yoriy hujjatdir. Qurilish korxonalarida o'zlarining xarid qilish siyosatiga to'g'ri yondashish unda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishi ijobiy natijalarga olib keladi.

Xarid qilish tizimi vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1) sotib olinadigan resurs manbalarini va mol yetkazib beruvchilarni aniqlash va o'rganish;

2) talab etiladigan ehtiyojni aniqlash va buyurtma qilingan resurslar miqdorini hisoblash;

3) talab etiladigan buyurtmalar uchun qaror qabul qilish;

4) yetkazib berish miqdori va vaqtini belgilash hamda ularni nazorat ;

5) moddiy resurslar mavjudligini nazorat qilish va boshqarish;

6) shartnoma majburiyatlarining bajarilishini hisobga olish va monitoring qilish.

Xarid qilish tizimi ma'lum bir tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Quyidagilar xarid qilish tamoyillari sifatida e'tirof etiladi:

1) muntazamlik - rejalashtirilgan yetkazib berish jadvallari asosida resurslarni yetkazib berish;

2) ritmilik - resurslarni nisbatan teng vaqt oralig'ida yetkazib berish;

3) samaradorlik - moddiy resurslarni unga bo'lgan talabning o'zgarishiga mos xolda yetkazib berishni amalga oshirish;

4) iqtisodiy samaradorlik - resurslarni yetkazib berish uchun ish vaqti, moddiy va pul resurslarining tejamliligiga xamda xarajatlarning past darajasiga erishish;

5) moslashuvchanlik - zamonaviy xarid va ta'minot texnologiyalaridan foydalanish.

Tashkil etilayotgan ta'minot tizimi ta'minot bo'limi tomonidan ishlab chiqiladigan dastur asosida amalga oshiriladi. Ta'minot dasturini ishlab chiqish – bu turli bozorlardan sotib olishga mo'ljallangan moddiy resurslarning turi va miqdorini, shuningdek, ma'lum bir turdagi resursni sotib olish jarayoni uchun aniq vaqtni belgilash hamda ta'minot jarayoni uchun mas'ul shaxslarni va ularni vazifasi, majburiyatlarini belgilash bo'lib, ta'minot bo'limining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunda ta'minot tizimiga qo'yiladigan talablar ham belgilanadi. Quyidagilarni ta'minot tizimining talabalari sifatida ko'rishimiz mumkin:

- 1) korxonada faoliyati uchun zarur bo'lgan xom ashyo, butlovchi qismlar va xizmatlarning uzluksiz oqimini ta'minlash;
- 2) material zahiralari bilan sotib olish bilan bog'liq mablag'lar darajasini va ularni saqlash xarajatlarini kamaytirish;
- 3) resurslar sifatini doimiy saqlab qolish;
- 4) yetkazib beruvchilar bilan ishlash, ularning aniq ma'lumotlarini o'rganish va tahlil qilish;
- 5) texnik xizmat ko'rsatishning minimal umumiy qiymatiga erishish (xarid qilish jarayoni eng kam xarajat bilan mahsulot va xizmatlarning mavjudligini talab qiladi);
- 6) korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash;
- 7) munosabatlarni rivojlantirish va korxonaning boshqa funksional bo'linmalari xodimlari bilan uyg'un, samarali va ish munosabatlariga erishish.

Ta'minotning ishonchliligi – bu iste'molchini rejalashtirilgan vaqt davomida kerakli mahsulotlar bilan ta'minlash kafolati. Ta'minotchi imkon qadar xar qanday sharoitda ham iste'molchi talabini maksimal darajada qondirishi lozim. Ayniqsa, bu hozirgi raqobat muhiti sharoitida juda muhim sanaladi. Aks holda xar ikki tomon ham ma'lum darajada zarar ko'rishi mumkin.

Xarid qilish (ta'minot) tizimi auditi – bu yetkazib beruvchilarni qidirish, tender ishlari, pudrat ishlari, товар-моддий захиралар uchun arizalar va buyurtmalarni shakllantirishdan boshlab, audit jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni izlash, aniqlash, baholash, tahlil qilishdan iborat.

Auditning maqsadi xarid jarayonlarini optimallashtirish yo'llarini ishonchli va mustaqil baholashdir. Ushbu audit bir qarashda mavjud tizimning afzalliklari va kamchiliklarini qoplash imkonini beradi. Bundan tashqari, bu takomillashtirish bo'yicha harakatlar rejasini tuzish va o'zgarishlarning iqtisodiy samarasini baholashga yordam beradi. Natijada, bu quyidagilarga olib keladi:

- 1) moddiy boyliklar aylanishi tezlashishi;
- 2) omborlarni ortiqch materiyallardan bo'shatish;
- 3) saqlash hajmini oshirish;

4) xom ashyo va butlovchi qismlarni ishlab chiqarish jarayoniga yetkazib berish ritmini yaxshilash;

6) TMZ yetkazib berish uchun arizalar va buyurtmalarni qayta ishlash vaqtini qisqartirish;

8) transport xarajatlarini kamaytirish;

9) moliyaviy hisobotda muhim buzib ko'rsatishlarni o'z vaqtida aniqlash va auditorlik riskini pasaytirish.

Ta'minot jarayoni auditni rejalashtirish auditning majburiy bosqichi bo'lib, u audit strategiyasi va taktikasini, audit o'tkazish doirasini aniqlash, umumiy audit rejasini tuzish, auditning dasturini va aniq audit jarayonini ishlab chiqishdan iborat. Auditorlik tashkiloti majburiyat xati yozishdan oldin va xo'jalik yurituvchi sub'ekt bilan audit o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzishdan oldin auditni rejalashtirishni boshlashi kerak. Rejalashtirish auditning dastlabki bosqichi bo'lib, auditorlik tashkiloti tomonidan auditning kutilayotgan ko'lami, natijalari va muddatlarini ko'rsatadigan umumiy audit rejasi va audit dasturini ishlab chiqishdan iborat. Unda zarur bo'lgan audit tartib-qoidalarining ko'lami, turlari va ketma-ketligini auditorlik tashkiloti belgilaydi.

Iqtisodchi olimlar N.Sanayev va R.Narziyevlar: "Auditni rejalashtirish xalqaro standart bo'yicha amalga oshiriladi. Agarda audit uchun assistent bo'lishi zarur ekanligini hisobga olsak, nazorat uchun ham ishning rejali bo'lishi talab qilinadi. Rejalashtirish quyidagi uchta sababga ko'ra amalga oshiriladi:

a) ma'lumki, sifatli audit uchun auditor yetarli ma'lumotlarga, audit maqsadiga erishishi huquqiy majburiyatlarni maksimum qilishi, yaxshi malakaga ega bo'lishi kerak;

b) audit bunday tekshirishlarni o'tkazish uchun ma'lum vaqt sarflanishini aniqlab, raqobatda bankrot bo'lmasligi, yaxshi tasavvurga ega bo'lishi zarur;

v) mijozlar bilan belgilangan tartibda aloqada bo'lishini ta'minlash, intizom yoki shartnomalar buzilishi yuzasidan da'vo bildirishi uchun ham rejalashtirish lozim"⁸⁹ degan fiktni aytib o'tgan.

⁸⁹ N.Sanayev, R.Narziyev. Audit fani darslik. "Sharq" nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. 2001-yil.

Auditni rejalashtirish auditorlik tashkiloti tomonidan auditning umumiy tamoyillariga asoslangan xolda quyidagi ichki tamoyillarga muvofiq amalga oshirilishi kerak:

- rejalashtirishning murakkabligi;
- rejalashtirishning uzluksizligi;
- rejalashtirishning maqbulligi.

Auditni kompleks rejalashtirish tamoyili rejalashtirishning barcha bosqichlari bo'yicha – dastlabki rejalashtirishdan to bosh reja va audit dasturini tuzishgacha bir-biri bilan o'zaro bog'liqlik va izchillikni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Auditni rejalashtirishning uzluksizligi tamoyili esa, tayinlangan auditorlar guruhi uchun belgilangan vazifalarni tayinlashda va rejalashtirish bosqichlarini vaqt va tegishli tadbirkorlik sub'ektlari (alohida balansga ajratilgan tarkibiy bo'linmalar, filiallar, vakolatxonalar) bilan bog'lashda ifodalanadi. Auditni optimal rejalashtirish tamoyili shundan iboratki, auditorlik tashkiloti rejalashtirish jarayonida tashkilotning o'zi belgilagan mezonlar asosida umumiy reja va audit dasturining maqbul variantini tanlash imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Auditorlik tashkilotining auditni rejalashtirishda quyidagi asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- auditni dastlabki rejalashtirish;
- umumiy audit rejasini tayyorlash;
- audit dasturini tayyorlash.

Audit rejasini – bu auditning mo'ljallangan yo'nalishlari, ko'lami, mohiyati, xo'jalik yurituvchi sub'ekt va uning faoliyatining xususiyatlari, auditda qo'llaniladigan usul hamda usullarning xususiyatlarining mantiqiy tavsifi bo'lib hisoblanadi. Tuzilgan reja audit shartnomasi bajarilishining ajralmas bir qismidir. Auditor umumiy audit rejasini tayyorlash jarayonida auditor va mijoz korxonaga uchun maqul bo'lgan muhimlik darajasi va auditorlik riski kelishib olinadi.

Auditor auditning kutilayotgan ko'lami va tartibini tavsiflovchi umumiy audit rejasini tuzishi va hujjatlashtirishi kerak. Auditning umumiy rejasini audit dasturini ishlab chiqishda qo'llanma bo'lib xizmat qilish uchun yetarlicha batafsil bo'lishi

talab etiladi. Shu bilan birga, umumiy audit rejasining shakli va mazmuni tekshirilayotgan korxonada faoliyatining ko'lamini hamda o'ziga xos xususiyatlariga, auditning murakkabligiga va auditor tomonidan qo'llaniladigan o'ziga xos usullarga qarab farq qilishi mumkin. Umumiy audit rejasini ishlab chiqishda auditor audit o'tkazishning kutilayotgan ko'lamini va jarayonini hisobga olishi shart. Mukammal tuzilgan umumiy audit rejasini ishlab chiqishni osonlashtiradi. Shu bilan birgalikda, uning shakli va mazmuni quyidagilarga bog'liq:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning ya'ni, mijozning faoliyati hajmiga;
- audit o'tkazishning murakkabligiga;
- auditda belgilangan maxsus usullar va texnologik jarayonlar

Auditor umumiy audit rejasini ishlab chiqishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan quyidagi asosiy jihatlarni unutmasligi lozim:

- jarayonga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar haqida ma'lumotlarni o'rganish;

- risk va muhimlik darajasini belgilanishiga;
- mumomalar tabiati, vaqti va tartib ko'lamini;
- ishni muvofiqlashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish qobiliyati, xususan, jalb qilingan mutaxassislar;

- boshqa jihatlarni, jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining uzluksizligini taxmin qilish shubhali bo'lishi mumkinligi

Audit dasturi – bu audit davomida auditor tomonidan tuzilgan hujjat bo'lib, u ketma-ketlikni, audit texnikasi va usullari to'plamini, ijrochilar tarkibini va audit vaqtini belgilaydi. Auditor umumiy audit rejasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan rejalashtirilgan audit jarayonlarining tabiati, muddati va ko'lamini belgilaydigan audit dasturini tuzishi va hujjatlashtirishi kerak. Audit dasturi – bu auditni amalga oshiruvchi auditor uchun ko'rsatmalar to'plami, shuningdek ishning to'g'ri bajarilishini nazorat qilish va tekshirish vositasi. Audit dasturini tayyorlash jarayonida auditor o'zi olgan xatarlarni baholashni, shuningdek, mohiyatli audit jarayonlari davomida ta'minlanishi kerak bo'lgan ishonch darajasini, sinov nazorati

va mohiyatli audit jarayonlari uchun vaqt oraliq'ini, kutilayotgan har qanday yordamni muvofiqlashtirishni hisobga olishi shart.

Audit davomida auditning umumiy rejasi va audit dasturi zarur bo'lganda takomillashtirilishi va qayta ko'rib chiqilishi kerak. Auditor o'z ishini rejalashtirish o'zgaruvchan holatlar yoki auditorlik jarayonlarini bajarish paytida olingan kutilmagan natijalar tufayli auditorlik topshirig'ining butun muddati davomida doimiy ravishda amalga oshiriladi. Umumiy audit rejasi va dasturiga jiddiy o'zgartirishlar kiritish sabablari hujjatlashtirilishi kerak.

Auditni rejalashtirishda avvalo audit riskini hisoblab olish kerak. Buni hisoblashning bir necha usullari bo'lib, quyida ulardan biri bilan tanishamiz. Bu usul qurilish korxonalarini uchun foydalanishda qulaydir.

3.2.1-jadval.

O'ziga xos xavf omillari to'plamini baholash

O'ziga xos xavf omilining mazmuni	r_i	v_i	$r_i \times v_i$
Tashqi omillar			
Iqtisodiy jihatdan beqaror mintaqalarda, masalan, valyuta devalvatsiyasi yoki inflyatsiyasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlash	0,5	8	4,0
Beqaror bozor ta'siriga yoki shiddatli raqobat mavjudligiga sezgir bo'lgan faoliyat	0,3	8	2,4
Qurilish sohasidagi sezilarli o'zgarishlar	0,9	4	3,6
Kapital va kreditlardan foydalanish cheklavlari	0,8	5	4,0
Mu'yor bo'yicha omillar			
Murakkab qonunchilik	0,8	6	4,8
Korxonada faoliyatiga va uning moliyaviy natijalariga tartibga soluvchi yoki davlat idoralari tomonidan ta'sir o'tkazish	0,7	4	2,8
Qurilish faoliyatiga ta'sir qiluvchi qat'iy ekologik talablar	0,9	7	6,3
Qurilishda yoki davlat bo'yicha buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning yangi konseptual asoslarini joriy etish	0,9	8	7,2
Sub'ekt faoliyatining tabiati			
Ta'minot zanjiridagi o'zgarishlar	0,7	7	4,9
Balansdan tashqari moliyalashtirish, maxsus maqsadli kompaniyalar va boshqa murakkab moliyalashtirish usullaridan foydalanish	0,6	6	3,6
Bog'liq tomonlar bilan muhim bitimlar	0,9	9	8,1
Ichki nazoratning zaif tomonlari, ayniqsa rahbariyat javob bermaydigan narsalar	0,9	4	3,6
Muhim miqdordagi nostandart xatolar	0,5	6	3,0
$\sum_{i=1}^{13} r_i \cdot v_i$			58,3
$IR = \frac{\sum_{i=1}^{13} r_i \cdot v_i}{10 \cdot 13}$	0,4485		

Auditor tomonidan aniq vaziyatga qarab har bir omillarning aniq holatda mazmuni va soni belgilanadi. auditorning kasbiy xulosasiga yoki ekspertlarning xulosalariga ko‘ra ularning reytingi va baholanishi asoslanadi

Biz shunga o‘xshash hisob-kitobni ichki nazorat riski ko‘rsatkichlari bilan amalga oshiramiz. Ichki nazorat riski omillarining taxminiy ro‘yxati 3.2.2-jadvalda keltirilgan.

3.2.2-jadval.

Ichki nazorat xavfi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan omillarni baholash

Ichki nazorat xavf omilining mazmuni	r_i	v_i	$r_i \times v_i$
Boshqarish muhiti			
Halollik va axloqiy qadriyatlarni xabardor qilish va amalga oshirish (xodimlarni firibgar, noqonuniy yoki axloqsiz faoliyat bilan shug‘ullanishga undashi mumkin bo‘lgan rag‘batlantirish va vasvasalarni kamaytirish). Xodimlarni axloqiy va xulq-atvor kodeksi bilan tanishtirish	0,8	8,0	6,4
Kasbiy kompetensiya majburiyatlari-xodimning ishini ifodalovchi vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar	0,8	8,0	6,4
Boshqaruv vakolatiga yega bo‘lgan shaxslarning ishtiroki (korxonah rahbariyatidan mustaqillik, ularning tajribasi va maqomi, ularning ishtiroki va faoliyatini nazorat qilish ko‘lami, ular olgan ma‘lumotlar, rahbariyat tomonidan qanday qiyin masalalar aniqlanishi va hal qilinishi)	0,7	4,0	2,8
Korxonani boshqarish falsafasi va uslubi (korxonah rahbariyatining biznes xatarlarini aniqlash va nazorat qilish yondashuvi, boshqaruvning munosabati va harakatlari sub’ektning moliyaviy hisobotga yondashuvi (mavjud alternativlarni konservativ yoki progressiv tanlash)	0,9	9,0	8,1
Tashkiliy tuzilma (vakolat va javobgarlikning asosiy yo‘nalishlarini, shuningdek tegishli	0,9	6,0	5,4
$\sum_{i=1}^5 r_i \cdot v_i$			29,1
$IR = \frac{\sum_{i=1}^5 r_i \cdot v_i}{10 \cdot 5}$	0,582		

Moddiy noto‘g‘ri ma‘lumotlar xavfini ajratish va shunga mos ravishda ISA 400 ning A200 qoidasiga binoan uning tarkibiy qismlarini alohida hisoblashni zarur deb topadi: “... auditor afzal qilingan audit texnikasiga, shuningdek amaliy jihatlariga qarab, o‘ziga xos xavf va nazorat tizimining xavfini alohida yoki birgalikda baholashi mumkin”⁹⁰.

⁹⁰ Internet ma‘lumotlari. <https://www.transtutors.com/questions/isa-400-risk-assessments-and-internal-control-identifies-a-number-of-key-procedures--8388491.htm>

Shunday qilib, biz moddiy noto'g'ri ishlash xavfining ikkita komponentining raqamli qiymatlarini aniqladik. Moddiy noto'g'ri ma'lumot (MMR) xavfini baholash uchun uni (1) formulaga muvofiq o'ziga xos xavf va nazorat xavfi funksiyasi sifatida aniqlash mumkin:

$$\text{MMR} = \text{IR} + \text{CR} - \text{IR} \times \text{CR}. \quad (1)$$

Bizning korxonamizda moddiy noto'g'ri ishlash xavfining ajralmas qiymati:

$$\text{MMR} = 0,4485 + 0,582 - 0,4485 \times 0,582 = 0,7695.$$

Auditni rejalashtirish jarayoniga mavjud vositalar xar-xil ko'rsatkichlar ta'sir qiladi. Ushbu jarayonda riskni aniqlash vositalari rejalashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

Qurilish korxonalarida audit umumiy rejasining tuzilishi va qo'llanilishi auditorlik tekshiruvlarining tizimli yo'lga qo'yilishiga, audit natijalari sifatiga hamda moliyaviy hisobotda muhim buzib ko'rsatishlarni o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi. Xalqaro audit amaliyotida audit umumiy rejasini to'g'ri tuzish va undan foydalanish auditorlik riskini 1,5 % ga pasaytirishiga olib keladi. Yirik xalqaro auditorik tashkilotlari o'z faoliyati natijalarining sifat va samarasini doim shu bilan bog'laydi.

Auditni o'tkazishda kerakli normativ va qo'shimcha hujjatlarning dolzarbligini aniqlash - xaridlar tizimining tashkiliy tuzilmasi, "qimmatli xaridlar to'g'risida" va "xaridlar faoliyati etikasi to'g'risida"gi qoidalar mavjudligini va yangilanishini tekshirish kerak. Shuningdek, materiyallar uchun ilovalar, bayonnomalar, texnik shartlar va davlat standartlarining mavjudligi va yangilanishini tekshirish, hujjatlar bo'yicha davlat standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish zarur bo'ladi.

Xaridlarni belgilangan muddatlarga muvofiqligini aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- muddatlarni shakllantirish uchun javobgarlarni aniqlash;
- resurslarni taqsimlashning to'liqligini tekshirish;
- muddatlarda va qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun talablar ta'rifi va ularni o'zgartirish.

Xodimlarga baho berish:

- malakalarning berilgan ish darajasiga muvofiqligini tekshirish;
- shaxsiy fayllarning mavjudligini, ularning tarkibini tekshirish;
- xodimlarni sertifikatlash va o'quv dasturlarini tekshirish.

Ta'minot jarayoni auditorlik tekshiruvchi vaqtida yetkazib beruvchini tanlash usulini baholashda quyidagilar o'rganiladi:

- yetkazib beruvchilarni tanlash mezonlarining yetarliligini tekshirish;
- yetkazib beruvchilarning yozuvlarini tekshirish;
- talablar bo'yicha yetkazib beruvchilarning ish sharoitlariga muvofiqligini aniqlash.

Materiyallarga bo'lgan talabni aniqlash:

- rejalashtirish;
- materiyallarni qabul qilish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;
- materiyallarning miqdoriy muvofiqligini tekshirish;
- kirish nazoratini baholash kabilarni o'z ichiga oladi.

Auditni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qilinishi kerak bo'lgan ishlardan yana biri nazorat ro'yxatini tayyorlashdir. Nazorat ro'yxatlari tayyorlash ham muhim tadbirlardan biri bo'lib, auditor tekshiradigan faoliyat to'g'ri bajarilayotganligini aniqlash uchun tuziladi.

Nazorat ro'yxati – bu auditor auditni amalga oshirish vaqtida nimalarga e'tibor qaratishi xaqidagi, tekshirishi kerak bo'lgan masalalar ro'yxatidir. Shuningdek, u tekshirilayotgan bo'linma xodimlariga tuzilgan savollar shaklida yoki auditorga audit o'tkazishni rejalashtirgan barcha fikrlarni ko'rsatgan holda eslatma shaklida tuzilishi mumkin. Nazorat ro'yxatlari, shuningdek, hech qanday muammo aniqlanmagan bo'lsa ham, tekshirilgan tizimning barcha tafsilotlarini ko'rsatadigan eslatmalar jurnali uchun qayd sifatida ishlatilishi mumkin. Nazorat ro'yxatlari ishlab chiqilgan dastur asosida tuziladi. Har bir nazorat ro'yxatida amaldagi standartning ma'lum bir xatboshisiga havolalar, tizim bo'yicha qo'llanma yoki tekshirish amalga oshiriladigan boshqa hujjat, shuningdek muvofiqlik, nomuvofiqlik belgilari va sharhlar uchun maydon bo'lishi kerak. Audit davomida

auditor nazorat ro'yxatiga o'z yozuvlarini kiritadi, bu esa auditorlik xulosalarini tuzish ishlarini yanada osonlashtiradi.

Audit nazorat ro'yxati va savolnomasida quyidagilar aks ettirilishi mumkin.

1. Hujjatlar dolzarbligi qancha muddatda tekshiriladi?
2. Ishchilar o'zgarishlar haqida qanday xabardor qilinadi?
3. Topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish uchun kim javobgar?
4. O'zgarishlar paytida muddatlar qanday shakllantiriladi?
5. Kasbiy rivojlanish faoliyati mavjudligi?
6. Ta'lim, ko'nikmalari, ish tajribasi va qayta tayyorlash darajasi?
7. Xodimlarning vakolatlariga bog'liqligi.
8. Yetkazib beruvchi qanday mezonlar bo'yicha baholanishi?
9. Ishonchli yetkazib beruvchilarning ma'lumotlari.
10. Yetkazib beruvchilar qanchalik tez-tez qayta baholanishi?
11. Materialni qabul qilish uchun kim javobgar ekanligi?
12. Kirish nazorati bo'yicha hujjatlar namuna hajmi va usulining spesifikatsiyasi bilan ishlab chiqilganligi.
13. TMZ omborda qanchalik samarali yangilanishi?
14. TMZ yetishmasligi tufayli kechikishlar mavjudligi.

Umuman olganda, audit uslubiyotini o'rganish natijasida, ta'minot xarajatlari va umumiy holda ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini bo'yicha tartiblangan hamda qurilish faoliyatiga yo'naltirilgan uslubiyot yo'q degan xulosaga kelish mumkin. Shunday bo'lsada, hozirgi iqtisodiy rivojlanish va mamlakatimizdagi qurilish sanoati rivoji shuni ko'rsatmoqdaki, ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini o'tkazish bo'yicha yagona, asoslangan va universal audit uslubiyotini ishlab chiqish kerak.

3.3-§. Qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini takomillashtirish

Mamlakatimizda hozirgi kunda qurilish tarmog'ida katta yutuqlarga erishib kelinmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shundan kelib chiqqan xolda qurilish tarmog'ida tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelayotgan bir qator rivojlangan qurilish firmalari faoliyat olib bomoqdalar. Shuningdek, ushbu korxonalarda samarli tashkil etilgan ta'minot jarayoni va uning logistik tizimi yuqori malakali mutaxassislar, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanish hamda yaxshi jixozlangan ta'minot omborlarining mavjudligini nazarda tutadi. Biroq, shuni ham alohida ta'kidlash joizki, yaratilayotgan mavjud shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarga qaramasdan ba'zi qurilish korxonalarida xali ham eski tartibdagi tartibsiz boshqaruv, malakali mutaxassilarning yetishmasligi, ularning zamonaviy tizimlarni tushunmasligi natijasida ta'minot jarayoni logistika tizimlarini amalga oshirishlariga tayyor emasliklarini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari ko'pgina xollarda, logistika bo'yicha mutaxassislar odatda korxonaning tizimli muammolarini xal qilishda tegishli soha vakillari bilan kelishmasdan mustaqil ravishda funksional sohalarda yechimlarni taklif qilishadi. Bularning barchasi korxonalarni logistika auditini o'tkazish talabi bilan mustaqil ekspertlarga murojaat qilishga majbur qiladi. Audit natijalari logistika sohasida axborot va konsalting yechimlarini taklif qiluvchi firmalar, ombor operatorlari va ekspeditorlik korxonalari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Xar bir jarayonni o'rganish ma'lum tamoyillarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Jumladan, logistika auditida xam o'ziga xos bo'lgan maxsus tamoyil umumiydan xususiyga o'tishdir. Ushbu tamoyilning mazmuni yuqori darajali ko'rsatkichlardan past darajali ko'rsatkichlar o'tish, natijaga erishish uchun sabab bo'lgan omillarga o'tishdir. Ta'minot zanjirida ombor tizimini unga xizmat ko'rsatuvchi transport tizimi o'rganilishi mahsulotni sotib olish vaqtida emas, balki bu bo'yicha qaror ta'minot zanjirining tizimli ko'rinishida namoyon bo'lishi bo'lishi kerak. Ma'lumki, logistika auditini o'tkazishdan avval ma'lum bir jamoa

shakllantiriladi. Jamoaga tegishli mutaxassilar ya'ni, logistika tizimi xodimlari va sohaga tegishli boshqa bo'lim xodimlari hamda uchinchi tomon vakillari, jumladan tashqi ekspertlar jalb etilishi mumkin. Ushbu mutaxassislarning bilim darajasi va kasbiy mahoratlari audit o'tkazish jarayonida juda muhim hisoblanadi. Jalb etilgan vakillar o'rganilayotgan tarmoq xususiyatlari bo'yicha soha mutaxassilari bo'lmashliklari mumkin, biroq, ta'minot tizimini boshqarish bo'yicha vakolatlariga ega bo'lishlari shart. Bu mavjud imkoniyatlar va salohiyatni ochib berishga, logistika tizimi darajasini ochib berishga yordam beradi.

Auditning dastlabki bosqichida tuzilgan jamoa tegishli bo'limlarni omborxonalar, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'limlar va sotish bilan bog'liq jarayonlarni o'rganadilar. Shundan so'ng, ma'lum muddat natijalarni qayta ishlab, tegishli tavsiya tayyorlaydilar. Jalb qilingan mutaxassislar bilan bolang'ich dalillarni olish uchun intervyular va savolnomalar hamda logistika jarayoni bo'yicha ko'rsatkichlar ro'yxatini tuzadilar. Shundan so'ng to'g'ridan-to'g'ri logistika auditi tartibiga o'tish mumkin.

Logistika auditi quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- ta'minot jarayoni logistika tizimi masalalari bo'yicha ushbu sohaga tegishli xodimlar bilan suhbatlar uyushtirish;
- ta'minot jarayoniga bog'liq bo'lgan hujjatlar namunasini ya'ni, boshlang'ich hujjatlar, hisobotlar va turli fayllarni qayta ishlash;
- turli tahlillar va ta'minot tizimi xaqidagi ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun shartnoma ma'lumotlarini o'rganish.

Audit davomida mijoz korxonadan jalb qilingan vakillar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, muammolarning turli yechimlari hamda g'oyalar juda muhimdir. Ushbu yechimlar va g'oyalar bo'yicha malga oshiriladigan tizimli tahlil asosida tezkor ma'lumotlar shakllanadi.

Ushbu ma'lumotlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- korxonadan ichki va tashqi mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumotlar hamda ularning sifatini baholash;

- amaldagi logistika tizimini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar ya'ni, ta'minot, transport, ombor xarajatlari xamda inventaritsiya ma'lumotlari.

- resruslardan foydalanish ko'rsatkichlari ma'lumotlari;

- korxonaning raqobatbardoshlik va salohiyatini belgilash bilan bog'liq ma'lumotlar.

Kerakli audit ma'lumotlariga ega bo'lgandan so'ng, tashqi korxonalar ma'lumotlarini o'rganishga o'tish mumkin. Ish davomida ular korxonaning ta'minot jarayonini o'rganish uchun mijozlarning talabalari, raqobatchilarning xarakatlari, shuningdek, boshqa zarur ma'lumotlarni ko'rib chiqadilar. Auditorlar boshqa korxonalar ma'lumotlarini o'rganishda pochta ma'lumotnomalari, tanglangan ta'minotchilar hamda mijozlar bilan suhbatlar tashkil etish shaklida tashqi ma'lumotlarni olishlari mumkin.

Odatda suhbatlar tanlangan korxonalar rahbarlari va tegishli bo'lim xodimlari bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda standart shakldagi anketalar va har bir korxonaga uchun mo'ljallangan savolnomalardan foydalaniladi. Ular bir nechta vaziflarni bajaradi. Anketa va savolnomalar korxonaning logistika tizimi to'g'risida tuzilgan ma'lumotlar manbai va ushbu tizim faoliyatining asosiy masalalariga mutaxassislar e'tiborini jalb qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Anketalarni qayta ishlashda asosiy e'tibor mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatiga, har xil turdagi xarajatlarning sabablari va oqibatlarini tahlil qilishga qaratiladi

Boshqa korxonalar ma'lumotlari asosida shakllantirilgan audit natijalari ham logistika auditori guruhiga korxonaning kelajakdagi ta'minot jarayoni logistika tizimini rivojlanish strategiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga va joriy logistika operatsion tizimida amalga oshirilishi kerak bo'lgan o'zgarishlarni ko'rsatishga, samarali logistika tizimini ishlab chiqish bo'yicha tavsiya etilgan strategiyani tavsiflashga imkon beradi.

Har bir mulk egasi o'z zimmasidagi mulkni to'liqligini ta'minlashga turli nazorat shakllaridan, shu jumladan auditor xizmatidan foydalanish mumkin. Ta'minot jarayoni ob'ektlari bilan yuqorida tanishib chiqdik. Keltirilgan ma'lumotlarga asosan ta'minot jarayonidagi tipik muomalalar masalasini ko'ramiz.

Tipik muomala deganda, shu jarayonga tegishli bo'lgan va jarayonning muomalalari tushuniladi. Auditda har bir jarayon bo'yicha tipik muomalalar guruhlari o'rganiladi.

Ta'minot jarayoniga oid muomalalar quyidagi faoliyat turlari bo'yicha tasniflanadi:

- tovar, xizmat, yoki boshqa aktivlarga talabnoma tuzish;
- sotib olishni tasdiqlash va ulgurja ta'minotchilarni belgilash;
- sotib olish, buyurtmalarni joylashtirish;
- qabul qilish, tekshirish.

Ta'minot jarayoni auditi ta'minot jarayoniga oid axborotlarni yig'ishdan boshlanadi. Axborot yig'ish so'rov o'tkazish jarayoni, kuzatishlar, va hujjatlarni tanlanma tekshirish orqali amalga oshiriladi. Tipik muomalalar har biri doimiy qaytariluvchi operatsiyalar bo'lib hisoblanadi. Ularni har bir tekshiruvda bir xil usulda tekshiriladi.

Auditorlik tekshiruvi ta'minot jarayoni nazoratining samaradorligini baholanadi. Baholash har bir holatni chuqur o'rganish orqali amalga oshiriladi. Buning natijasida korxonada nazorat tizimi "a'lo" (nazorat samaradorligi yuqori), "yaxshi" (nazorat samaradorligi o'rtacha), "qoniqarsiz" (nazorat tizimi yomon) tabaqalashda baholanadi.

Auditor ta'minot jarayonidagi nazorat tizimini baxolash davomida nazorat testlaridan foydalaniladi. Testlar o'zida ta'minot jarayonidagi nazorat tizimini baholashga imkon beradi. Har bir test ma'lum jarayonni tekshirish maqsadida amalga oshiriladi. Masalan, sotib olish jarayoni testlariga misol sifatidagi quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Ta'minot jarayoni auditorlik testlari tartiblari.
2. Ta'minot hisobotining birini tanlab olish.
3. Tanlab olingan ta'minot hisobotining to'liqligini tekshirish.
4. TMZlarni schyotlaridagi yozuvlarni tekshirish.
5. Sotib olish bo'limi xodimlarining malakasini tekshirish.

Analitik protseduralar tushunchasini kengroq tushinish kerak. Unga turli olimlar xar-xil ta'rif beradilar. A.Arens, Dj.Lobbeklar tomonidan tahliliy chora

(analitik protsedura) larga aniqlik kiritish maqsadida, ularning ta'rifi keltirilgan. Tahliliy chora (analitik protsedura)lar – auditning har bir bosqichida u yoki bu tipdagi dalillarni yig'ish xususiyatlari bo'yicha aniq ko'rsatmalar guruhini o'zida ifodalaydi ⁹¹. Masalan, tovar moddiy zahiralarni yo'qlama qilish bo'yicha dalolatnoma tuzish tahliliy chora (analitik protsedura)larga misol bo'la oladi.

Tahliliy chora (analitik protsedura)larni amalga oshirishda maxsus terminlar ishlatiladi. Bu terminlar mulliflar tomonidan keltirilgan bo'lib, ular haqida ham batafsil to'xtalib o'tish joizdir, zero ularni bilish auditorlik isbotining xususiyatlarini kengroq tushunishga imkon beradi. Tahliliy chora (analitik protsedura)lar tekshirilayotgan umumiy elementlar ichidan ba'zilarini tanlab olish jarayonini o'z ichiga oladi. Auditor har bir tekshiruvda tanlash shartlarini o'zi belgilashi kerak. Bunda tanlash uchun asos sifatida auditor yoki auditorlik firmasi tomonidan qabul qilingan ketma-ketlik olinadi.

Xom ashyo va moddiy boyliklarni ta'minoti auditi deganda asosan ikki ko'rsatkichni, birinchisi buxgalteriya hisobidagi yozuvlar bilan moddiy javobgar shaxslarning tovar hisobotidagi ko'rsatkichlarini bir-biriga mos kelishini haqiqiy tovar qoldiqlari bilan taqqoslash tushuniladi.

Qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni auditida korxonada ombor xo'jaligining tashkil etilishi ahvoli va tovar-moddiy zahiralari saqlanishini tekshirish eng muhim auditorlik amallaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qurilish korxonasi faoliyatining ushbu sohasini har tomonlama o'rganish davomida auditor omborlar, qurilish ishlari olib borilayotgan ob'ektlar va ishlab chiqarish zahiralari saqlanadigan boshqa joylarni tekshiradi. Bunda ishlab chiqarish zahiralari saqlash sharoitlari, yong'in xavfining oldini olish, omborlarning qurilmalar, texnikalar, asboblari bilan jihozlanganligi va ularning to'g'ri ishlatilishi, ombor binolarini qo'riqlash holati ham o'rganiladi. Ombor xo'jaligining qoniqarsiz tashkil etilganligi tovar-moddiy zahiralari saqlanishi ustidan ichki nazoratning past darajada ekanligidan dalolat beradi.

⁹¹ Аренс А., Лоббек Дж. Аудит: Пер. с англ.; Гл.редактор серии проф. Я.В.Соколов. – М.: Финансы и статистика, 2001, 170-бет

Tadqiqotimiz ob’ekti hisoblangan qurilish korxonalarida biz o’rganayotgan yillarda ta’minot jarayoni bo’yicha auditorlik tekshiruvlari o’tkazilmagan. Ularda faqatgina tender jarayonlarida ishtirok etish uchun moliyaviy xolatini ishonchligini tasdiqlash maqsadida faqatgina Moliyaviy hisobotning 1-shakli “Buxgalteriya balansi” va 2-shakl “Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot” bo’yicha xulosa taqdim etiladi xolos. 25.02.2021 yilda qabul qilingan yangi taxrirdagi O‘zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi Qonunning 35-moddasida “Majburiy auditorlik tekshiruvi”⁹² deb nomlangan bo‘lib qurilish korxonalari ushbu moddada belgilangan mezonlarga kiritilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda biz tomonimizdan taklif etilayotgan (3.3.1-jadval) “Ta’minot jarayoni logistika xarajatlari auditini o’tkazishda foydalaniladigan namunaviy test” auditorning ushbu jarayonni amalga oshirishdagi “Ishchi hujjati”lari sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu test korxonada ta’minot jarayoni yuzasidan ichki nazoratning to’g’ri tashkil etilganligi yoki yo‘qligi bo’yicha dastlabki xulosalarni shakllantirib, auditorning ish rejasini ko‘lamini yanada mukammalroq tuzilishiga olib kelishi mumkin.

Malumki, barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, xususan, qurilish korxonalarida juda ko‘p xollarda moddiy qiymatliklarni auditi jarayonida turli qonunbuzarlik xolatlari uchraydi. Moddiy javobgar shaxslar o‘z ishlarining bajarilishiga befarqlik qilishlari, belgilangan tartib qoidalarga amal qilmasliklari va boshqa xolatlar shu kabi vaziyatlar kelib chiqadi. Tekshiruv davomida moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyatlari, to‘lig‘icha o‘rganib chiqiladi. Ularning javobgarlik hissini yuqoriligi moddiy qiymatliklarning saqlanishi va maqsadga muvofiq sarflanishini ta’minlashning asosi bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun ularga tegishli tartibda moddiy qiymatliklarni hisobini yuritish bo’yicha tartib-qoidalar, yo‘riqnomalar bo’yicha tushuntirishlar berish muhim hisoblanadi.

⁹² Ўзбекистон Республикаси “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги Қонун. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.02.2021 й., 03/21/677/0155-сон, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 14.03.2022 й., 03/22/759/0213-сон, 30.03.2022 й., 03/22/760/0249-сон, 21.04.2022 й., 03/22/765/0332-сон; 21.01.2023 й., 03/23/815/0044-сон

Ombor xo'jaligini ko'zdan kechirish jarayonida tegishli tartibda tovar-moddiy zahiralarni kirimi va chiqimini o'z vaqtida rasmiylashtirilishi, omborxonadaftariidagi yozishmalarni to'g'ri olib borilayotganligi tekshiriladi. Tekshirishda hisobga olinmagan ortiqcha materiyallar va tayyor mahsulotlar aniqlansa ular bo'yicha tegishli tushuntirishlar olinadi. Hisobga olinmagan ortiqcha materiyallar odatda alohida saqlanadi. Ularni aniqlash uchun omborxonada hisobi daftari yoki kartochkalari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Hisobga olinmagan oshiqcha materiyallar va tayyor mahsulotlar quyidagi yo'llar bilan vujudga kelishi mumkin:

- mahsulot ishlab chiqarish, ish-xizmatlar ko'rsatish jarayonida xom-ashyo materiallarni bir-biriga almashtirish;

- omborchilarning xom-ashyo materiallarni tortib berishda og'irlikdan urib qolishi, namligini oshirib ko'rsatish;

- tayyor mahsulotlarni xaridorlarga jo'natish mobaynida o'lchovdan, hisobdan va tarozidan urib qolishlar;

- moddiy qiymatliklarni yuklash, tashish, tushirish yoki saqlash mobaynida yo'qolganligi xaqida asossiz dalolatnomalar tuzish va shunga o'xshash.

Qoidagi ko'ra agar omborda moddiy javobgar shaxslarning noqonuniy xattixarakatlari tufayli vujudga kelgan ortiqcha materiallar bo'lsa, ba'zi materiallarning o'sha davrdagi chiqimi kirimidan ortib ketadi. Bunday xollarni bartaraf etish ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi. Ya'ni, keyingi kirim va tushumlar hisobidan qoplanishi lozim bo'ladi. Omborda hujjatli tekshirishni amalga oshirish ombor xo'jaligi bo'yicha asosli xulosa va tadbirlar belgilashda katta ahamiyatga egadir.

Qurilish korxonalarida ta'minot jarayonida ta'minotchilar bilan tuzilgan shartnomalar, tovar-transport yuk xatlari, schyot-fakturalar, qabul kvitansiyalari kabi kirim hujjatlari moddiy resurlarning kirimini tekshirishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun auditor ushbu jarayon bo'yicha yetarli xulosa shakllantirish uchun yuqoridagi hujjatlarni sinchkovlik bilan tekshirish talab etiladi.

3.3.1-jadval

Ta'minot jarayoni logistika xarajatlari auditini o'tkazishda foydalaniladigan namunaviy test (Ishchi hujjati)⁹³

№	Nazoratning yo'nalishlari va savollari	Javoblar			Izoh
		Ha	Yo'q	J/Y	
1	Omborlar binolari begona shaxslar kirishidan himoyalanganmi? Quyidagilar mavjudmi: soqchilar; yong'inga qarshi signalizatsiya; Qiymatliklarni berish va olib chiqib ketish nazorat qilinadimi?				
2	Moddiy qiymatliklar inventarizatsiyasi o'tkaziladimi (majburiy, rejali, to'satdan)?				
3	Inventarizatsiya natijalari tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladimi (inventarizatsiya ro'yxatlari, solishtirma qaydnomalar)?				
4	Inventarizatsiya o'tkazish sanasiga moddiy javobgar shaxslar hisobotlari tuziladimi?				
5	Doimiy inventarizatsiya komissiyasi mavjudmi?				
6	O'g'irlik, kamomadlarga aybdor shaxslar javobgarlikka tortiladimi?				
7	Omborda navli miqdoriy analitik hisobning yuritilishi ta'minlanadimi?				
8	Ombor mudiri va boshqalar bilan moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuziladimi?				
9	Oldin o'g'irlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxslarga moddiy javobgarlik yuklanganmi?				
10	Buxgalteriya hisobi material qiymatliklarga bevosita javobgar bo'lmagan shaxslar tomonidan yuritiladimi?				
11	Quyidagilar ishlab chiqilganmi: -materiallar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishda ishchilarning majburiyatlari va - javobgarliklarini chegaralab beruvchi lavozim yo'riqnomalari; -materiallarni saqlash, qabul qilish, chiqarish bo'yicha yo'riqnomalar; -yo'riqnomalarga rioya qilish nazorat qilinadimi?				
12	Boshlang'ich hujjatlashtirish shakllari qo'llaniladimi?				
13	Har bir operatsiya bo'yicha kirim va chiqim hujjatlari tuziladimi?				
14	Barcha majburiy rekvizitlar to'ldiriladimi?				
15	Hujjatlar operatsiya amalga oshirilgan kunda tuziladimi?				

⁹³Муаллиф ишланмаси

16	Barcha elektron hujjatlar qog'ozga chiqariladimi?				
17	Moddiy javobgar shaxslarning imzolarining namunasi mavjudmi?				
18	Boshlang'ich hujjatlarni raqamlash amalga oshiriladimi?				
19	Ro'yxatga olish jurnallarida hujjat (schyot-faktura, ishonchnoma)lar ro'yxatga olinadimi?				
20	Materiyallarni kirim qilishning to'liqligini tekshirish amalga oshiriladimi?				
21	Materiyallarning sarflanishini me'yorlash tizimi qo'llaniladimi?				
22	Me'yordan yuqori xarajatlar tasdiqlanadimi (me'yorlardan foydalanilganda)?				
23	Ortiqcha xarajatlar qilinishiga aybdor shaxslar aniqlanadimi?				
24	Materiyallarni chiqarishda va qabul qilishda o'lchash asbob-uskunalari qo'llaniladimi?				
25	Boshlang'ich hujjatlar moddiy javobgar shaxslarning hisobotlariga ilova qilinadimi?				
26	Ushbu hisobotlarning ma'lumotlari boshlang'ich hujjatlar ma'lumotlari bilansolishtiriladimi?				
27	Hisobotlar arifmetik aniqlikka tekshiriladimi?				
28	Materiyallarni buxgalteriya hisobining avtomatlashtirish dasturlari qo'llaniladimi?				
29	Materiyallarning hisobga olish tamoyillari hisob siyosatida belgilab o'tilganmi(qo'llaniladigan schyotlar, baholash usullari va boshqalar)?				
30	Qaydnomalar, jurnal-orderlarning ma'lumotlari Bosh kitob bilan muntazam ravishda,solishtirib boriladimi?				
31	Ichki nazoratni amalga oshirish uchun tashkilotda tarkibiy bo'linma (ichki nazorat xizmati va boshqalar) tashkil qilinganmi?				
32	Ichki nazorat bo'limi to'g'risida tasdiqlangan nizom mavjudmi?				
33	Tekshirish o'tkazishning tasdiqlangan dasturi, jadvali (grafigi) mavjudmi?				
34	Tekshirish o'tkazish natijalarini aks ettiruvchi dalolatnomalar va boshqa ichki hujjatlar mavjudmi?				
35	Tekshirish muntazam ravishda o'tkaziladimi va ularning davriyligi tashkilot bo'yicha tasdiqlangan nizomlarga mos keladimi?				
36	Nazoratchilar o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash mavjudmi?				
37	Ichki nazorat organlarining faoliyati natijalari bo'yicha o'zgarishlar buxgalteriya hisobiga tezkor ravishda kiritiladimi?				

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, qurilish korxonalari moddiy qiymatliklarni kirim qilish vaqtida ularning to'g'ri baholanishi va to'liq kiringa olinishi hamda yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni to'g'ri hisobga olinishida chalkashliklarga yo'l qo'yilish xollarini ko'p uchratishimiz mumkin. Ushbu xolatda auditor kirim qilishga oid dastlabki hujjat ma'lumotlarini hisob registri ma'lumotlari bilan taqqoslab ularning mosligini aniqlashlari mumkin.

Zaruriyat tug'ilganda auditor qarama-qarshi usuldan foydalangan holda moddiy qiymatliklarni kirim qilish uchun asos bo'lgan hujjatlarni ularning mol yetkazib beruvchilarda saqlanadigan nusxalari bilan solishtirib tegishli xulosalar shakllantiriladi.

Sub'ektning omborxonana-tayyorlov apparatini saqlash uchun qilingan sarflari, uning hisob siyosatida ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq tayyorlangan materiyallar tannarxiga qo'shilishi mumkin. Bunday sarflar, odatda, hisobot oyining oxirida taqsimlanadi.

Har bir mulk egasining asosiy maqsadi o'z faoliyatini foydali bo'lishini ta'minlashdir. Buning uchun mulkdor amalga oshirilgan muomalalarini to'g'riligini ta'minlash bilan birga sarf-xarajatlarini kamaytirishga erishish zarur. Audit nazorati yordamida mulkdorga tegishli faoliyati bo'yicha tegishli tavsiyanomalar berish uchun asos yaratiladi.

Audit yordamida mulkdorga mulkiy munosabatlarni uni amaldagi Qonun va Nizomlar asosida tashkil qilinganligi, buxgalteriya hisoblarini to'g'riligi, ularni qonun talablariga mos kelishi o'rganiladi.

Misol uchun auditor tuzilgan shartnomaga asosan korxonaning yillik buxgalteriya hisobotini tekshirib chiqqan bo'lsa, faqat buxgalteriya hisoboti to'g'risida xulosa berish kerak. Agar tekshirishda ayrim kamchilik va nuqsonlar aniqlansa, ularni bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatadi.

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z mulkini to'liqligini ta'minlash chora tadbirlari ishlab chiqadi. Asosiy e'tibor moddiy javobgarlikka xodimlarni tanlashga qaratilishi kerak. Moddiy javobgarlik lavozimiga tegishli ma'lumotga, ya'ni kasb mahoratiga ega bo'lgan shaxslar tanlashi kerak.

Umuman olganda, ta'minot jarayonini auditi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har qanday korxonada amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz. Auditda ta'minot jarayonida yuz bergan barcha muammolar hal qilinadi.

III bob bo'yicha xulosalar.

Ta'minot tizimi korxonaning faoliyatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan soha bo'lganligi sababli, uni auditdan o'tkazish ham alohida e'tiborga olinadigan ishlardan biridir. Audit ishlarini rejalashtirishda auditorning ish faoliyati to'liq nazorat qilinsa, ikkinchidan audit ishlarini aniqlash uchun sharoit yaratiladi, uchinchidan tekshirish o'tkaziladigan korxonaga to'g'risida iqtisodiy ma'lumotlar bilan tanishib borish imkoniyati yaratiladi. Audit o'tkazish rejasi tuzilayotgan korxonaning xo'jalik faoliyatini o'rganish, tahlil qilish tartibi audit xulosasini yozish kabi ishlar hisobga olinib audit muddatlari bilan taqqoslanib chiqiladi.

1. Logistika auditining asosiy tamoyili umumiydan xususiya o'tishdir: global maqsadlar va operatsion ko'rsatkichlardan past samaradorlik ko'rsatkichlariga, mahsuldorlik va qo'ldan boy berilgan imkoniyatlar sabablariga va shundan keyingina – tanlangan faoliyat yo'nalishlarini batafsil o'rganishga o'tiladi.

2. Har bir mulk egasi o'z zimmasidagi mulkni to'liqligini ta'minlashga e'tibor qaratishi lozim. Bunda turli nazorat shakllaridan, shu jumladan auditor xizmatidan foydalanish mumkin.

3. Ta'minot jarayonini auditi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har qanday korxonada amalga oshirilishi kerak. Xususan bu qurilish korxonalari faoliyatiga ham taalluqli hisoblanadi. Auditda ta'minot jarayonida yuz bergan barcha muammolar hal qilinadi.

4. Ta'minot jarayoni auditni rejalashtirish auditning majburiy bosqichi bo'lib, u audit strategiyasi va taktikasini, audit o'tkazish doirasini aniqlash, umumiy audit rejasini tuzish, auditning dasturini va aniq audit jarayonini ishlab chiqishdan iborat.

Umuman olganda mamlakatimizda ushbu faoliyat turiga ehtiyoj yanada orti bormoqda.

XULOSA

Tadqiqotlarimiz mobaynida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Qurilish korxonalari ta'minotining logistikasi korxonadagi ishlab chiqarish jarayonining birinchi bosqichidir. Ta'minot jarayonining korxonadagi ahamiyati shundaki, uning yordamida ishlab chiqarish to'xtab qolishlarsiz amalga oshiriladi. Har qanday to'xtab qolish esa korxonada faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'minot jarayonining asosiy maqsadi zaruriy resurslarni sotib olishgina emas, uning asosiy maqsadi ishlab chiqarish jarayoni uchun resurslar ta'minotini kafolatlashdir.

2. Xom ashyo va materiallar ta'minoti tizimining samarali ishlashi korxonada uchta asosiy muammoni hal qiladi. Birinchidan, ishlab chiqarishning maromiyligi ta'minlansa, ikkinchidan, materiallar bilan korxonaning kapitali band bo'lishi oldi olinadi va uchinchidan, materiallarni saqlash xarajatlari iqtisod qilinadi. Ta'minot tizimining tashkil qilinishi va uning samarali ishlashi bu jarayonning buxgalteriya hisobi qanday yo'lga qo'yilganligiga bog'liq.

3. Logistika xarajatlarni pasaytirish eng muhim vazifa ekanligidan kelib chiqib, shu o'rinda logistika xarajatlarini tasniflash tadqiqotimizning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblandi.

Logistikada ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari logistika xarajatlari o'rganiladi. Ularning orasidan aynan ta'minot jarayonlari logistika xarajatlari tasnifi keltirib o'tildi.

4. Logistika auditining asosiy tamoyili umumiydan xususiya o'tishdir: global maqsadlar va operatsion ko'rsatkichlardan past samaradorlik ko'rsatkichlariga, mahsuldorlik va qo'ldan boy berilgan imkoniyatlar sabablariga va shundan keyingina – tanlangan faoliyat yo'nalishlarini batafsil o'rganishga o'tiladi.

Izlanishlarimizga ko'ra, qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Logistikada ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari logistika xarajatlari o'rganiladi. Ilmiy izlanishlarimiz asosida ularning orasidan aynan

ta'minot jarayoni logistika xarajatlari tasnifi va guruxi shakllantirildi xamda qurilish korxonalarida qo'llash tavsiya etildi.

2. Tadqiqotlarimizga ko'ra, qurilish korxonalarida uy-joylarni qurish jarayonlariga nisbatan an'anaviy va logistik yondashuvni tahlili amalga oshirildi. Ana shunga ko'ra, qurilish korxonalarida logistika xarajatlari hisobini doimiy olib borish va logistik muomalalardan keng foydalanish orqali sohada uy-joy qurish va buyurtmalarni o'z vaqtida sifatli bajarilishiga erishish mumkinligi asoslab berildi, bunda qurilish korxonalar hisob tizimida logistika xarajatlari hisobi va tahlilini alohida olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3. Hozirgi kunda yana bir asosiy muammolardan biri ombor xo'jaligini to'g'ri tashkil etish va omborlardagi zahiralarini saqlash xarajatlari bo'yicha logistik boshqarishni tashkil etishdir. Moddiy-texnika ta'minoti omborlarini saqlab turishning xarajatlar logistikasi hisobini aniqlashtirish uchun biz "Omborxonalarini saqlash xarajatlari moddalari"ni ishlab chiqildi.

Shundan kelib chiqib, qurilish korxonalarida hisob siyosatiga 2530 – "Qurilish korxonalarida omborxonalarini saqlash xarajatlari" schyoti va uning tarkibida 2531 – "Ta'minot omborlariga materiallarni tashish xarajatlari", 2532 – "Ta'minot omborlarida materiallarni saqlash va ishlab chiqarishga chiqarish xarajatlari", 2533 – "Ta'minot omborlarining boshqa xarajatlari" schyotlarini kiritish asosida qurilish korxonalarida omborxonalarini saqlash xarajatlari buxgalteriya hisobining to'liq va aniq yuritilishini ta'minlash asoslandi.

4. Qurilish korxonalarida yuqoridagilardan kelib chiqib bitim yoki shartnomalarni tuzishda har bir sotib olinadigan aktivlar bo'yicha tranzaksion xarajatlarning qiymatlarini ularning boshlang'ich qiymatlariga qo'shish maqsadga muvofiq.

Qurilish korxonalarida ta'minot jarayoni logistika xarajatlari tarkibida tranzaksion xarajatlar hisobini alohida yuritish asosida buxgalteriya ma'lumotlari shaffofligi va boshqaruv qarorlarining aniqligini ta'minlash asoslangan. Ana shu maqsadda biz tomonimizdan qurilish korxonalarida tranzaksion xarajatlar hisobini olib borishda qaydnomaning namunaviy shakli ishlab chiqildi.

5. Qurilish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning davriy usulini qo'llash orqali qurilish korxonalari hisobi siyosatiga 9141 – “Davriy hisobda materiallarni sotib olish (qurilish korxonalari uchun)” va 9151 – “Davriy hisobda materiallar qoldig'ini tuzatish (qurilish korxonalari uchun)” schyotlarini kiritish va logistika xarajatlari salmog'ini kamaytirish asoslandi

6. Ta'minot tizimi korxonaning faoliyatida alohida ahamiyatga ega soha bo'lganligi sababli, uni auditdan o'tkazish ham alohida e'tiborga olinadigan ishlardan biridir. Audit ishlarini rejalashtirishda auditorning ish faoliyati to'liq nazorat qilinsa, ikkinchidan audit ishlarini aniqlash uchun sharoit yaratiladi, uchinchidan tekshirish o'tkaziladigan korxonada to'g'risida iqtisodiy ma'lumotlar bilan tanishib borish imkoniyati yaratiladi. Shu maqsadda biz tomonimizdan qurilish korxonalarida auditorlik tekshiruvlari jarayonida foydalanish tavsiya etilgan “Namunaviy audit umumiy rejasi” asosida auditorlik tekshiruvining tizimli yo'lga qo'yilishida “ta'minot va logistika xarajatlari” maxsus bandini kiritish orqali moliyaviy hisobotda muhim buzib ko'rsatishlarni o'z vaqtida aniqlash va auditorlik riskini pasaytirish taklif etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Huquqiy va me‘yoriy hujjatlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 1992 yil 15 dekabr, Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020 y., 03/20/653/1592-son.

3. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 1-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020 y., 03/20/653/1592-son.

4. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 13 aprel, O‘RQ-404-son. “Xalq so‘zi” 2016 yil 14 apreldagi 73 (6508)-soni.

5. “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. (Yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.03.2022 y., 03/22/759/0213-son, 30.03.2022 y., 03/22/760/0249-son, 21.04.2022 y., 03/22/765/0332-son; 21.01.2023 y., 03/23/815/0044-son b.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari

6. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 8-ilova, 2017 yil 7 fevral. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son.

7. “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.11.2018 yildagi PF-5577-son. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.11.2018 y., 06/18/5577/2187-son; 14.03.2020 y., 06/20/5963/0300-son,

20.05.2020 y., 06/20/5997/0634-son, 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son, 28.11.2020 y., 06/20/6119/1570-son

8. O‘zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.03.2020 yildagi PF-5963-son Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2020 y., 06/20/5963/0300-son, 28.11.2020 y., 06/20/6119/1570-son.

9. “Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi PQ- 4586 -son, 2020 yil 5 fevral. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.02.2020 y., 07/20/4586/0127-son, 28.11.2020 y., 06/20/6119/1570-son.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

10. “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori. 1999 yil 5 fevral № 54. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami, 2015 y., 9-son, 100-modda; 2016 y., 17-son, 176-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2020 y., 09/20/217/0426-son.

11. “Qurilish sohasida ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash va akkreditatsiya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 maydagi 381-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.05.2019 y., 09/19/381/3101-son; 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son; 15.01.2020 y., 09/20/24/0053-son, 28.09.2020 y., 09/20/588/1331-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.05.2021 y., 09/21/290/0440-son; 22.02.2022 y., 09/22/80/0154-son

12. “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimining tubdan takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 sentabrdagi 588-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020 y., 09/20/588/1331-son.

13. “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi 321-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021 yil 21 may

14. “Korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizom” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktabrdagi 215-son Qarori bilan tasdiqlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2006. 42 (230)-son.

1.4. Boshqa me’yoriy hujjatlar

15. O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartlari. O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi – T.: 2003. – 186 b.

16. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi huzuridagi qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyalari tomonidan o‘tkaziladigan bino va inshootlarning instrumental texnik tekshiruv ishlarini baholashning yagona hisoblash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi O‘zbekiston Respublikasi qurilish vazirining 2022 yil 28 martdagi buyrug‘i. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.03.2022 y., 10/22/3356/0251.

17. Международные стандарты внутреннего аудита. [www.iiaru.ru/files/documents_open/IPPF%202013%20 English.pdf](http://www.iiaru.ru/files/documents_open/IPPF%202013%20English.pdf)

18. Xalqaro ichki auditorlar instituti mutaxassislari sharhi. [www.theiia.org/guidance/standards-and-guidance/ippf/definition-of-internal-auditing.](http://www.theiia.org/guidance/standards-and-guidance/ippf/definition-of-internal-auditing))

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik

qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – T.: O'zbekiston, 2017.- 104 b.

21.Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – T.: O'zbekiston. 2017, 22-b.

2. Kitob va turkum nashrlari

1.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami

a) bir muallifning:

22.Abdug'aniev A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari. Monografiya. – T.: TMI, 2003. 117-b.

23.Ардатова М. М. Логистика в вопросах и ответах. Учебное пособие. – М.: ТК Велби, Проспект, 2009 – 272 с

24.Балабанов И. Т. Интерактивный бизнес. Спб.: Питер, 2010. – 185 с.

25.Гаджинский А.М. Основы логистики. – М.: Инфарм – Маркетинг, 1996. – с. 12, 173.

26.Голиков Е.А. Маркетинг и логистика. Учебное пособие. – М.: Дашков и К°, 1999. – с. 180.

27.Гордон М.П. Рынок и логистика. – М.: Экономика, 1993. – с. 13.

28.Dadaboyev Q.A. Logistika. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2004. 12-b, 29-b, 35-b.

29.Дегтяренко В.Г. Основы логистики и маркетинга. Ростов-на-Дону: Экспертное бюро, Москва: Гордарика, 1996. – с. 4.

30.Левкин Г.Г. Логистика: теория и практика / Г.Г.Левкин. – Ростов н/Д: Феникс, 2009. – 221, [1] с.

31.Махмдиев В.С. Logistika. (Elektron o'quv qo'llanma). – Q.: www.ziyonet.uz., 2003.

32.Миротин Л.Б. Логистика: общественный пассажирский транспорт. Учебник. – М.: Экзамен, 2003. – с. 9.

33.Родников А.Н. Логистика. Терминологический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2000. - с. 251.

34.Семенов А.И. Предпринимательская логистика. СПб.: Политехника, 1997. – с.314

35.Федоров Л.С. Логистика. Учебник. – М.: ИНФРА, 2001. – с. 12.

36.Чудаков А.Д. Логистика: 500 вопросов и ответов. Уч. пос. – М.: РДЛ, 2005. – с. 178.

b) ikki muallifning:

37.Аренс А., Лоббек Дж. Аудит:. – М.: Финансы и статистика, 2001. – С. 170

38.Бауэрсокс Д. Дж., Клосс Д. Дж. Логистика. Интегрированная цепь поставок. – М.: Олимп-бизнес, 2001. – с. 57.

39.Бенке И.Ю., Юльчиева Г.Н. Японское искусство торговать в практике. – Алматы: 1999. – с.227.

40.Григорьев М.Н., Долгов А.П. Логистики. Учебное пособие. – М.: Гардарики, 2006. – с 15.

41.Канке А.А., Кошева И.П. Логистика: уч. – 2-е изд. – М.: ФОРУМ, ИНФРА-М, 2007. – с.189.

42.Линдерс М.Р., Фирон Х.Е. Управление снабжением и запасами. Логистика / пер. с англ. СПб.: Виктория Плюс, 2002. – с.97.

43.Новиков О.А., Уваров С.А. Логистики. Учебное пособие. – СПб.: Бизнес-пресс, 1999. – с 32.

44.Омельченко И.И., Киреев А.В. Промышленная логистика. – М.: ЮНИТИ, 1997. – с. 88.

45.Хорнгрен Ч.Т. ва Фостер Дж. Бухгалтерский учет: Управленческий аспект: – М.: Финансы и статистика, 2000. – с. 137.

v) uch muallifning:

46.Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. – М.: Финансы и статистика, 1996. – с.164.

47.Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Yakubov U.K. Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlilning xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma. – T.:TMI, 2004. –148 b.

3. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

48.Бахарев В.О. Производственно-заготовительная и сбытовая логистика предприятий ювелирной промышленности. автореф. дисс. д.э.н. – СПб.: 1997. – с. 7

49.Kudbiev SH.D. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va uni takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun avtoreferat. – T.: Bank-moliya akademiyasi. 2006.

50.Ilxomov SH.I. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun avtoreferati. T.: TMI 2018. –40 b.

51.Mamatov Z.T. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy hisobot auditini o‘tkazishni takomillashtirish masalalari: iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun avtoreferati. - Toshkent: 2005. - 40 b.;

52.Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining nazariy va metodologik muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun avtoreferat. – T.: Bank-moliya akademiyasi. 2006.

4. Jurnallardagi maqolalarga havolalar

53.Volostnov I. Tranzaktsionnye izderjki v deyatelnosti, gosudarstvennykh predpriyatiy: vidy i sredstva minimizatsii. - Menedjment v Rossii i zarubejnom. – 2005. - №3. – S. 70-79.

54.Dilmurodov O. Meva-sabzavotchilik majmuida logistik tizim // Bozor, pul va kredit. 2007. №2. 64-b.

55.Малахов С. Транзакционные издержки и макроэкономическое равновесие // Вопросы экономики. - 1998. - №11. - С.78-96.

56.Mamatkulov M.SH. Uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruvchi tashkilotlarda logistika xarajatlari boshqaruv hisobini takomillashtirish. // Logistika va iqtisodiyot. – Toshkent, 2021. – №1. – 209 b.
<http://economyjournal.uz/maqola/Logistikavaiqtisodiyot.2021.1-son.pdf>

57. Панженская И.Г. 2009. Метод Обеспечения Финансового И Управленческого Учета Транзакционных Издержек. Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика, КиберЛенинка; Государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Адыгейский государственный университет», выпуск 1, стр. 91-98.

5. Simpoizum va konferensiya ishlariga havolalar

58. Bobinin L.F. Sbor. trud. prof. pre. sost. IEF po mat. konf. Kazaxstan-2030. – Алматы: 1998. – s. 32.

59. Juraev N.Yu. Metody ucheta dvijeniya predmetov truda // mat. mej. nauch-prekt. kon. Zakonomernosti, tendensii i osobennosti razvitiya sos-ekon. otnosh. v stranah rynochnoy orientatsii. – Алматы: 2001. – s. 31

60. Штабенау Г. Логистика: Проблемы и перспективы // Тез. док. науч. практ. сем. – М.: 1989. – с. 9.

61. Жураев Н.Ю. Методы учета движения предметов труда // Материалы меж. научно-прект. конф. Закономерности, тенденции и особенности развития соц-экон. отношений в странах рыночной ориентации. – Алматы: 2001, с. 31

Moliyaviy va statistik ma'lumotlar

62. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari.

63. O'zbekiston Respublikasi qurilish korxonalari moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari.

Internet saxifalariga xavolalar

64. www.audit.cornell.edu/

65. www.audit.gov.az/uploads/Daxili_audit_haqqinda_qanun_rus.pdf

66. www.buhgalt.ru

67. www.cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/202552

68. www.cer.uz (Iqtisodiy izlanishlar markazi)

69. www.edu.uz/uz/pages/markaziy

70. www.edu.uz/uz/pages/structures

71. www.finansexpress.uz

72. www.gcomim.uz
73. www.global.hokudai.ac.jp/about/university-profile/governing-organization/
74. www.internalaudit.ku.edu/
75. www.keio.ac.jp/en/assets/download/about/learn-more/facts/organizational-chart.pdf
76. www.lancaster.ac.uk/media/lancaster-university/content-assets/documents/strategic-planning-governance/governance/council-key-documents/Charter-Statutes-Ordinances.pdf
77. www.lex.uz
78. www.marquette.edu/riskunit/internalaudit/role.shtml
79. www.ncz.tj/content/zakon-respubliki-tadjikistan-o-vnutrennem-audite-v-organizatsiyax-gosudarstvennogo-sektora
80. www.pravo.eastink.uz (Iqtisodiy qonunlar to‘plami)
81. www.purdue.edu/ia/index.php
82. www.ryerson.ca/senate/senate-meetings/act-bylaws-guidelines/
83. www.savethestudent.org/make-money/50-business-ideas-to-start-at-university.html
84. www.tdau.uz/site/menu?s=universitet-nizomi
85. www.tfi.uz/uz/doc-page/ustav
86. www.tiame.uz/uz/page/Institut%20nizomi
87. www.tiame.uz/uz/page/Institut%20tuzilmasi
88. www.tsue.uz/
89. www.usfca.edu/
90. www.ziyonet.uz
91. www2.gwu.edu/~rpsol/information%20for%20visiting%20scholars/unimon.html